

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMY KENGASH
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI**

Qo‘lyozma huquqida

UO‘K:801:82:821:512.133(092)

SHAYMARDONOV TILOVMUROD ABILAYEVICH

SIDDIQIY-AJZIY ASARLARINING QIYOSIY-MATNIY TADQIQI

10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
ILMIY DARAJASINI OLIH UCHUN YOZILGAN**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

Jabborov Nurboy Abdulhakimovich,
filologiya fanlari doktori, professor

TOSHKENT – 2023

MUNDARIJA

KIRISH	3-12
I BOB. SIDDIQIY-AJZIY HAYOTI VA IJODI MANBALARI HAMDA ULARNING O‘RGANILISH TARIXI	
1.1. Siddiqiy-Ajziy hayoti va ijodining o‘rganilishi.....	13-28
1.2. Shoir adabiy merosi manbalari.....	28-55
II BOB. SHOIR ASARLARINING QIYOSIY-MATNIY TADQIQI	
2.1. Shoir lirik she‘rlari: asliyat va tabdil qiyosi.....	56-75
2.2. “Mir’oti ibrat” dostonining matniy-qiyosiy tahlili.....	77-92
III BOB. SIDDIQIY-AJZIY IJODINING MAVZU KO‘LAMI VA MATN XUSUSIYATLARI	
3.1. Shoir nazmiy asarlarining mavzuviy tasnifi va tahlili.....	93-111
3.2. Ijodkor she‘riyatida matn va badiiyat uyg‘unligi.....	111-130
Xulosa	131-133
Foydalangan adabiyotlar	134-148

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahon madaniyati va adabiy-estetik tafakkuri rivojida milliy adabiy merosni birlamchi manbalar asosida tadqiq etish, ulardan jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida foydalanish dolzarb vazifalardandir. Mumtoz adabiy manbalarni izlab topish, tavsiflash, tasniflash, muayyan tartibga solish va ilmiy muomalaga kiritish matnshunoslik va adabiy manbashunoslik rivojini ta'minlaydigan muhim omillardandir.

Dunyo matnshunoslik va manbashunoslik ilmida birlamchi manbalar qiyosiy tahlili va talqini masalalarini amalga oshirish matnshunoslikni yangi ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitishi jihatidan dolzarbdir. Jadid ma'rifatparvar shoir-u adiblar ijodini, ularning ijtimoiy hayotdagi faoliyatini o'rganish, ular asarlarini tabdil va talqin qilish tamoyillarini ishlab chiqish, adabiy muhitdagi an'ana va yangilik, adabiy aloqalar, ijodkor asarlari matni tarixi kabi nazariy masalalarni yanada aniqlashtirish bugungi dunyo adabiyotshunosligida dolzarb muammolardandir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin ilgari o'rganish taqiqlangan manbalarni tadqiq etish uchun keng imkoniyat paydo bo'ldi. Ularni ilmiy tadqiqot doirasiga kiritib, olingan natijalarni keng jamoatchilikka taqdim etish adabiyot ilmining, xususan, manbashunoslik va matnshunoslikning ustuvor vazifalaridan biridir. "Matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, tilshunoslik, falsafa, madaniyat tarixi sohalarida milliy madaniy merosimizning hali o'rganilmagan ko'pgina qatlamlarini ochib berishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilayotgan"¹ ayni paytda Siddiqiy-Ajziy biografiyasi va ijodi manbalarini qiyosiy-matniy tadqiq etish, shoir badiiy asarlari qimmatini ilmiy asoslash adabiyotshunoslik va matnshunoslikning dolzarb vazifalaridandir. Shoir asarlarining toshbosma nusxalari qiyosiy jihatdan maxsus tadqiq qilinmagani, asarlarining o'zbek va fors-tojik tillarida yozilgani ikkala xalq adabiy muhiti hamda Markaziy Osiyo xalqlari madaniy va ma'naviy hayotidan ma'lumot beruvchi manba ekanligi jihatidan qimmatlidir. Bu esa ijodkor adabiy merosi

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сон "Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора тадбирлари тўғрисида"ги Қарори // Халқ сўзи. 2017 йил 25 май.

manbalarini matnshunoslik va adabiy manbashunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish zaruratini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2018-yil 5-apreldagi PQ-3652-son "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgustdagi O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi, 2020-yil 20-mayda Toshkent shahridagi Adiblar xiyoboniga tashrifi chog'ida adabiyotning ta'sir kuchini oshirish bo'yicha topshiriqlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Matnshunoslikning nazariy va amaliy masalalari dunyo va o'zbek matnshunosligida ma'lum darajada tadqiq etilgan.

Ushbu ilmiy muammo masalalari rus matnshunoslari D.S.Lixachev², B.V.Tomashevskiy³ ilmiy ishlarida, shuningdek, o‘zbek olimlari Porso Shamsiyev, Hamid Sulaymonov, G‘ulom Karimov, Shuhrat Sirojiddinov, Boqijon To‘xliyev, Nurboy Jabborov, Nusratullo Jumaxo‘jayev, Nasimxon Rahmonov, Hamidulla Boltaboyev, Aftondil Erkinov, Nafas Shodmonov, Nodirxon Hasanov, Rashid Zohidov, Otabek Jo‘raboyev, Qo‘ldosh Pardayev tadqiqotlarida yoritilgan⁴. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod etgan Sayidahmadxo‘ja Siddiqiy-Ajziy ijodi milliy uyg‘onish davri adabiyotida muhim o‘rin tutadi. Bu esa uning adabiy merosi ko‘pgina tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilishga sabab bo‘lgan. Vadud Mahmud⁵, Sadridin Ayniy⁶, Rahim Hoshim (Tursunqul)⁷, Xoliq Mirzozoda⁸, Mirzo Tursunzoda⁹, Ibrohim Mo‘minov¹⁰, Zarif Rajabov¹¹, Alouddin

² Лихачев Д.С. При участие А.А. Алексеева и А.Г. Боброва. Текстология на материале русской литературы X – XVII веков. – Санкт-Петербург, Изд-во «Алетейя», 2001, стр. 34-35.

³ Томашевский Б.В. Писатель и книга. Очерк текстологии. Изд. 2-е, – М., 1959, стр. 148.

⁴ Шамсиев П. Алишер Навоий “Сабъаи сайёр” достонининг илмий-критик тексти ва уни тузиш принциплари ҳақида: Фил. фан. номз... дисс. – Т., 1952; Шамсиев П. Навоий асарлари матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари: Фил. фан. докт... дисс. – Т., 1970; Сулаймон Ҳ. “Хазойин ул-маоний” текстларини ўрганиш ва нашрга тайёрлашнинг асосий масалалари /Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. – Т.: Ўзбекистон ФА нашриёти, 1959. – Б.5-28; Каримов Ғ. Ўзбек классик адабиётининг баъзи назарий масалалари /Ғулом Каримов – маърифат фидойиси. – Т.: Мумтоз сўз, 2009. – Б.56-63; Сирожиддинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги қирралари. – Т.: Akademnashr, 2015.- Б. 7-9; Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Т.: Navoiy universiteti, 2019. – Б.18; Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожиб ва туркий халқлар фольклори. – Т.: Баёз, 2014; Жабборов Н. Бадиий матн таҳрирининг хос хусусиятлари /“Ўзбек адабиётшунослигида талқин ва таҳлил муаммолари” мавзудаги илмий-назарий анжуман материаллари. – Т.: Мумтоз сўз, 2014.–Б.28-32; Ўзбек матншунослигининг долзарб муаммолари /“Замонавий ўзбек адабиётшунослигининг янгиланиш тамойиллари” мавзудаги Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Т.: Adabiyot uchqunlari, 2016.- Б.99-105; Матншуносликнинг айрим назарий масалалари / “Ўзбек матншунослигининг назарий ва амалий муаммолари” мавзудаги Республика илмий анжумани материаллари. – Қарши, Насаф, 2019. - Б.3.7; Жумахўжаев Н. То тузди Навоий ояти ишқ // Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси. – Т., 1990, 9 ноябрь; Жумахўжаев Н. Дебоча матни мукамалми? // Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси. – Т., 2011, 18 март; Жумахўжаев Н. Янги илмий-танқидий матн // Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси. – Т., 2011, 28 октябрь; Олтин ёруғ. 1-китоб / Сўзбоши, изоҳлар ва қадимги туркийдан ўзбекчага табдил муаллифи Н.Раҳмонов. – Т.: Фан, 2009; 2-китоб. – Т.: Мумтоз сўз, 2013; Болтабоев Ҳ. Матн ва унинг филологик фанлар тизимидаги ўрни /Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари. – Т.: Мумтоз сўз, 2019; Эркинов А. Матншуносликка кириш. – Т., 1997; Алишер Навоий “Хамса”си талқини (XV – XX аср боши). – Т.: Tamaddun, 2018; Матншунослик ва манбашунослик асослари. –Т., 2019; Шодмонов Н. “Шоҳиду-л-иқбол” – адабий манба. – Т.: Muharrir, 2009. – Б. 22-26; Хасанов Н. Ясавийликка доир манбалар ва “Девони ҳикмат”. – Т.: Akatemnashr, 2012. – Б.17; Зоҳидов Р. “Саботул ожизин”. (Манбалар, шарҳлар, илмий-танқидий матн). – Т.: Turon zamin ziyo, 2015. – Б. 184-185; Жўрабоев О. Матннинг матности сирлари. – Т.: Tamaddun, 2017. – 200 б; Пардаев Қ. Муқимий шеърятининг матн тарихи, таҳрири ва талқини: Фил. фан. докт... (DSc) дисс. – Т., 2020. 310 б.

⁵ Махмуд В. Турк шоири Ажзий // Инқилоб. 1926. №12.

⁶ Айний С. Намунаи адабиёти тожик. – Москва: Чопхонаи нашриёти марказии халқи Иттиҳоди жамоҳири шўравии сўсиёлисти, 1926, – С. 534-545.

⁷ Ҳошим Р (Турсунқул). Сиддикий тўғрисида мулоҳазалар // Маориф ва ўқитғувчи. 1928. №3.

⁸ Мирзозода Х. “Миръоти ибрат” ва эжодиёти Ажзий // Барон адабиёти социалистик. 1936. №2-3.

⁹ Турсунзода М. Адабиёти советии ва вазифаҳои он // Шарқи сурх. 1947. №12.

Bahouddinov¹², Iosif Samuilovich Braginskiy¹³, Muhammadjon Shakuriy¹⁴, Hamid Olimjon¹⁵, Rustam Aslonov¹⁶, Begali Qosimov¹⁷, Ulug‘bek Dolimov¹⁸, Shuhrat Rizayev¹⁹, Bahodir Karimovlarning²⁰ shoir hayoti va ijodining turli qirralariga oid tadqiqotlari shular jumlasidandir.

Mazkur ilmiy ishlarda Siddiqiy-Ajziy hayoti va ijodiga oid quyidagi masalalar tadqiq qilingan:

- 1) Siddiqiy-Ajziy biografiyasining qisman yoritilishi;
- 2) shoir ayrim she‘rlarining “Aynu-l-adab” asaridan va gazeta, jurnallardan tanlab olib nashr qilinishi;
- 3) Siddiqiy-Ajziyning 1973-, 1999-yillarda “Tanlangan asarlar”ining nashr etilishi;
- 4) forscha asarlaridan ba’zilarining tarjima qilinishi.

Shoir adabiy merosiga doir quyidagi ilmiy muammolar hanuzgacha hal etilmagan:

- 1) Siddiqiy-Ajziy biografiyasi to‘liq tiklanishi;
- 2) shoir asarlari toshbosma manbalarining ilmiy-monografik tavsifi amalga oshirilishi;
- 3) ijodkor asarlarining asliyat va nashr variantlari qiyosi natijasida tushirib qoldirilgan hamda tahrir qilingan misralar asl nusxalar asosida tiklanishi;

¹⁰ Муминов И. Из истории общественной и политической мысли Узбекистана конца XIX и начало XX века. – Самарканд: УзГУ, 1949, стр. 347.

¹¹ Ражабов З. Шоир Аҷзӣ дар бораи маданияти рус // Шарқи сурх. 1950. №9; Ражабов З. Аҷзий ва Асирий. – Душанбе, 1951, стр. 93.

¹² Багоутдинов А. Из истории общественной и философской мысли Таджикского народа второй половины XIX и начало XX вв. – Москва, 1951, стр. 324.

¹³ Брагинский И. Очерки из истории таджикской литературы. – Душанбе, 1959, стр. 406-409.

¹⁴ Шакурый М. Нигоҳе ба адабиёти тоҷики садаи бист. – Душанбе: Пайванд, 2006, стр. 456.

¹⁵ Олимжон Ҳ. Фитратнинг адабий ижоди / Танланган асарлар. 3 томлик, 3-том. – Т.: Бадиий адабиёт нашриёти, 1960. – Б.222-223.

¹⁶ Аслонов. Р. Мироззрение Саид Ахмеда Сиддики: Дисс... канд. фил. наук. – Душанбе, 1962. – стр.254.

¹⁷ Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: Маънавият, 2002.–270 б.; Ибрат. Сиддиқий-Аҷзий. Сўфизода. Танланган асарлар / Тўпловчи, нашрга тайёрловчи, сўзбоши, луғат муаллифлари: Б. Қосимов, С. Ахмедов, У. Долимов. – Т.: Маънавият, 1999. – Б. 110 – 208.

¹⁸ Долимов У. Жадид мактаблари: уларда она тили ва адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий ҳамда амалий асослари: Пед. фан. докт... дисс. автореф. – Т., 2008. – 42 б.; Долимов У. Миллий уйғониш педагогикаси. – Т.: Ношир, 2012. – 174 б.

¹⁹ Ризаев Ш. Халқдин ёрлиқ истармен... // Гулистон. 1990. №8.

²⁰ Каримов Б. Вадуд Маҳмуднинг 20-йиллар адабий танқидчилигидаги ўрни: Фил. фан. номз... дисс. – Т., 1995. – 162 б.; Маҳмуд В. Танланган асарлар / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, луғат ва изоҳлар муаллифи: Б.Каримов. – Т.: Маънавият, 2007. – 160 б.

- 4) shoir asarlarining matn tarixi masalalarining o'rganilishi;
- 5) "Aynu-l-adab" va "Mir'oti ibrat" asarlari toshbosma nusxalari bilan joriy nashrlarining qiyosan tahlil etilishi.

Bu esa, o'z navbatida, Siddiqiy-Ajziy adabiy merosiga oid tadqiqotlarni izchil davom ettirish, mavjud ilmiy muammolarni hal etish zaruratini kun tartibiga qo'yadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №PZ-20170920167 raqamli "Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida saqlanayotgan toshbosma asarlarning elektron katalogini yaratish va nashrga tayyorlash" (2018-2020 yy.) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Siddiqiy-Ajziy biografiyasi va nazmiy asarlari manbalarini aniqlash, shoir asarlarining qiyosiy-matniy tadqiqini amalga oshirish, shoir biografiyasi va asarlarini birlamchi manbalar asosida tiklash hamda shoirning adabiy-estetik tafakkur olamini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Siddiqiy-Ajziy biografiyasiga oid manbalarni to'plash va shoirning ilmiy tarjimai holini tiklash, shoir mansub bo'lgan adabiy davraga oid yangi ma'lumotlarni ilmiy muomalaga olib kirish;

shoir asarlarining aslyat va nashr variantlarining qiyosiy-matniy tadqiqini amalga oshirish va "Mir'oti ibrat"ning toshbosma nusxalarini qiyosiy tahlil etish;

shoirning ijtimoiy-siyosiy mavzudagi she'rlarini davriy matbuot misolida aniqlash va tahlilini amalga oshirish, ilm ahliga ma'lum bo'lmagan nazmiy asarlarini ilmiy istifodaga olib kirish;

ijodkor adabiy merosi manbalarini ilmiy tasnif etish va shoir nazmiy merosining umumiy ko'lamini aniqlash va mavzu jihatidan guruhlash.

Tadqiqotning obyektini O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondidagi 254-inventar raqamli

“Aynu-l-adab” va 252-inventar raqamli “Mir’oti ibrat” hamda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondidagi 609-,9436-,9574-inventar raqamlarida saqlanayotgan “Aynu-l-adab”, 3215-, 9414-inventar raqamlaridagi “Ganjinayi hikmat”, 3166-,699-,1553-inventar raqamlaridagi “Mir’oti ibrat” va 3019-,3167-inventar raqamlaridagi “Anjumani arvoh” toshbosma asarlar, XX asr boshlaridagi matbuot materiallari hamda Siddiqiy-Ajziyning 1973-,1999-yillarda chop etilgan “Tanlangan asarlar”i tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini Sayidahmadxo‘ja Siddiqiy-Ajziy hayoti va ijodi manbalari tasnifi va tahlili, matn xususiyatlari, nazmiy asarlar talqini masalasi tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda biografik, qiyosiy-tarixiy va germeneytik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Siddiqiy-Ajziy biografiyasi va ijodiga oid manbalar tekshirilib, shoir avlodlari qo‘lida saqlanib kelayotgan shajarasi, oilaviy muhitiga oid mavjud ma’lumotlarga aniqlik kiritilgan, ijodkor asarlarining asliyat va nashr variantlari qiyosi natijasida tushirib qoldirilgan 26 misra she’r, xato o‘qilgan 200 dan ortiq so‘zlar hamda o‘zgartirilgan misralar toshbosma nusxalar asosida tiklangan;

shoirning “Oyna”, “Mashrab”, “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnallari va “Hurriyat”, “Sadoyi Turkiston” gazetalarida nashr etilgan avval ilmiy jamoatchilikka ma’lum bo‘lmagan 500 misraga yaqin turli janrdagi she’rlari, 5 ta publitsistik maqolasi aniqlangan hamda Siddiqiy-Ajziy tomonidan tarjima qilingan Gogolning “Shinel” qissasining to‘liq tabdili ilk bor amalga oshirilgan va ilmiy istifodaga olib kirilgan;

Siddiqiy-Ajziyning Sadriddin Ayniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy bilan adabiy aloqalari yangi manbalar asosida ilmiy muomalaga olib kirilgan;

shoirning gʻazal, muxammas, ruboiy, masnaviy, munojot, taʼrix, marsiya singari janrlardagi sheʼrlari va “Aynu-l-adab” asarining matn tarixi va tahriri masalasi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Siddiqiy-Ajziy biografiyasiga oid manbalar qiyosiy tadqiqi natijasida shoir ilmiy biografiyasi tiklangan, shoir mansub boʻlgan adabiy davraga oid yangi maʼlumotlar ilmiy muomalaga olib kirilgan;

ijodkor adabiy merosi manbalarining ilmiy tasnifi amalga oshirilgan va shoir nazmiy merosining umumiy koʻlami aniqlanib, mavzu jihatdan tasnif qilingan;

Siddiqiy-Ajziy asarlarining toshbosma matni joriy nashr nusxalari bilan qiyosiy tadqiq qilinib, ijodkor lirik asarlarining asliyatga muvofiq va muallif variantiga yaqin matnlari tiklangan;

Siddiqiy-Ajziyning yangi aniqlangan lirik asarlari talqini natijasida shoirning adabiy-estetik dunyosi, ijtimoiy voqelikka munosabati masalalari yoritilgan;

Siddiqiy-Ajziy “Tanlangan asarlar”i nashr etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi yurtimiz va xorijiy mamlakatlar olimlarining XX asr boshlari adabiy manbalari boʻyicha olib borgan ilmiy izlanishlariga oid fundamental ilmiy-nazariy qarashlari oʻrganilgani, Siddiqiy-Ajziy lirik merosi Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondida saqlanayotgan 254-inventar raqamli “Aynu-l-adab” va 252-inventar raqamli “Mir’oti ibrat” asarlarining toshbosma nusxasi, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida saqlanayotgan 3161-,609-, 9436-, 9574-, 3215-, 9414-, 3166-, 699-, 1553-, 3019-, 3167-, 3215-, 9414-, 3019-, 3167-inventar raqamlari ostida saqlanayotgan “Aynu-l-adab”, “Mir’oti ibrat”, “Ganjinayi hikmat” va “Anjumani arvoh” asarlari matnshunoslik va adabiy manbashunoslik nuqtayi nazaridan matniy tadqiq qilingani, keltirilgan tahlil, xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Siddiqiy-Ajziy asarlarining qiyosiy-matniy aspektda o'rganilganligi, olingan natijalar siddiqiyshunoslikda mavjud erishilgan ilmiy yutuqlar va nazariy ma'lumotlarni to'ldirishi, matnshunoslik va adabiy manbashunoslikka oid nazariy qarashlarni boyitishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati Siddiqiy-Ajziy ijodining adabiy-estetik tafakkur rivojidagi o'rni, shoirning matni qayta tiklangan va yangi aniqlangan she'rlaridan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun "Matnshunoslik", "Matnshunoslik nazariyasi", "Adabiy manbashunoslik tarixi", "O'zbek adabiyot tarixi" fanlari bo'yicha darslik va o'quv qo'lanmalarining yangi avlodini yaratish, ilmiy ma'ruzalar, maxsus kurs, seminarlarda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Siddiqiy-Ajziy asarlari manbalarining qiyosiy-matniy tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Siddiqiy-Ajziy biografiyasi va ijodiga oid manbalar tekshirilib, shoir avlodlari qo'lida saqlanib kelayotgan shajarasi, oilaviy muhiti, ijodkor asarlarining asliyat va nashr variantlarining qiyosi natijasida tushirib qoldirilgan 26 misra she'r, xato o'qilgan 200 dan ortiq so'zlar hamda o'zgartirilgan misralar toshbosma nusxalar asosida qayta tiklangani, shoirning g'azal, muxammas, ruboiy, masnaviy, munojot, ta'rix, marsiya singari janrlardagi she'rlari va "Aynu-l-adab" asarining matn tarixi va tahririga oid ilmiy xulosalar, shoirning ijtimoiy-siyosiy mavzudagi she'rlarini o'zida mujassamlashtirgan davriy matbuot sahifalaridagi ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan turli janrga tegishli 500 misraga yaqin she'rlar matni, ijodkorning "Oyna", "Mashrab", "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnallari va "Hurriyat", "Sadoyi Turkiston" gazetalarida nashr etilgan avval ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan 5 ta publitsistik maqolasi, Gogolning "Shinel" qissasining to'liq tabdili, Siddiqiy-Ajziyning Sadridin Ayniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy bilan aloqalari yangi manbalar asosida aniqlanganiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F1-

030 raqamli “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyani (7-jild) chop etish” mavzusidagi fundamental loyihaning nazariy qismida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 19-maydagi 01/10-989-son ma’lumotnomasi). Natijada, Siddiqiy-Ajziyning manbalardan yangi aniqlangan she’riy asarlari yurtimiz milliy-ma’naviy va adabiy merosining ajralmas qismi ekani hamda ushbu asarlarning ma’naviyatimiz va adabiyotimiz tarixida tutgan o‘rniga doir ilmiy-nazariy xulosalar bilan boyitilgan;

O‘zbekiston fondlarida Siddiqiy-Ajziy asarlarining toshbosma nusxalarining mavjudligi, “Aynu-l-adab” va “Mir’oti ibrat” asarlari Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondida 252-,254-raqamlari ostida saqlanayotgani, shoirning g‘azal, muxammas, ruboiy, masnaviy, munojot, ta’rix, marsiya singari she’rlari matn tarixi va tahririga oid shu paytgacha ilmiy jamoatchilikka ma’lum bo‘lmagan she’riy asarlar va Gogolning “Shinel” qissasi tarjimasi, Siddiqiy-Ajziy asarlarining ilmiy-monografik tavsifiga oid ilmiy ma’lumotlar va nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida 2018-2020 yillarda bajarilgan “Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida saqlanayotgan toshbosma asarlarning elektron katalogini yaratish va nashrga tayyorlash” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Fanlar akademiyasining 2023-yil 10-martdagi 03/1255-480-son ma’lumotnomasi). Natijada, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondidagi Siddiqiy-Ajziy asarlari toshbosma nusxalarining monografik tavsifi amalga oshirilgan va muzey toshbosma kitoblar katalogini nashrga tayyorlashga xizmat qilgan.

Siddiqiy-Ajziy XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari ilg‘or ma’rifatparvar shoiri, publitsisti va tarjimoni bo‘lganligi, barcha qoloqliklarning bosh omili ilmsizlik deb bilgani va maktab ochib, bolalarga ma’rifat ulashganligi, shoir hayoti va ijodini o‘rganish yoshlar dunyoqarashini oshirishga xizmat qilishiga oid yangi ma’lumotlar va ilmiy xulosalardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Taqdimot” nomli ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 13-maydagi 02-31-624-son ma’lumotnomasi). Natijada, teleko‘rsatuvning sifati oshib, milliy

uygʻonish davri adabiyoti ijodkorlari yaratgan asarlarning xalqimiz adabiy-estetik tafakkurini oʻstirishdagi oʻrnini koʻrsatishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 2 respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʻlon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi boʻyicha 13 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, 1 tasi “Tanlangan asarlar”, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyasining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 maqola, shundan, 5 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlardan iborat. Tadqiqotning hajmi 133 sahifani tashkil etadi.

I BOB. SIDDIQIY-AJZIY HAYOTI VA IJODI MANBALARI HAMDA ULARNING O'RGANILISH TARIXI

1.1. Siddiqiy-Ajziy hayoti va ijodining o'rganilishi

Siddiqiy-Ajziy milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan. Ma'rifatparvarlik ruhidagi she'rlari, zamon muammolari yoritilgan publitsistikasi hamda tarjima asarlari uning serqirra iste'dod egasi va mahsuldor ijodkor ekani isbotidir. Ijodkor hayoti sarguzashtlar ichida kechgan. Shoir adabiy merosini o'rganish o'sha davr muhiti haqidagi mavjud tasavvurlarni boyitadi. Lekin shoir ijodiyoti shu paytga qadar maxsus tadqiq qilinmagan. O'sha davrdagi tazkiralarda, ayrim turkiy va forsiy tildagi she'rlarini istisno qilganda, u haqda to'laqonli ma'lumotlar berilmagan²¹. U bilan bir muhitda ijod qilgan Rahim Hoshim ("Tursunqul") "Siddiqiy to'g'risida mulohazalar" sarlavhali maqolasida shoirmi: "Ismi Sayidahmad, unvoni Siddiqiy, laqabi Ajziydir"²², – deya tanishtiradi.

"Ajz" arab tilidan olingan bo'lib, "biror ishga qurbi yetmaslik", "ojizlik", "zaiflik"²³ ma'nolarini anglatadi. "Ajziy" taxallusi ana shu "ajz", "ojiz" so'zidan olingan. Begali Qosimovning ma'lumot berishicha, shoir yoshligida kasallanib, ojizlanib, jussasi kichkina bo'lib qoladi. Shu sababdan shoir o'ziga "Ajziy" taxallusini qo'llaydi²⁴. Bizning fikrimizcha, shoir "Ajziy" taxallusini faqat jussasining kichkinaligi, jismning ojizligi tufayligina ishlatmagan, balki jamiyatdagi nohaqliklarga, adolatsizliklarga qarshi kurashishda ojiz qolayotganidan, millatning ojizligidan shu taxallusni qo'llagan bo'lishi mumkin. Shoirning chevarasi Sultonxon Burxonov, "Otam, katta bobolaringiz Sayidahmadxo'ja ilg'or fikrli kishi bo'lganlar, shuning uchun xalq u kishini "Ajziy" deb ataganlar, "Ajziy" "Ajzchi" so'zidan olingan", – deydi. Temuriylar tarixiga oid yozma obidalarda, xususan, "Boburnoma"da qayd etilishicha, Amir Temur va temuriylar davrida harbiy safarga otlangan qo'shinni mashaqqatli

²¹ Мухтарам Н. Тазкирату-ш-шуара. Поэтическая антология / Критический текст и введение: Джанфида А. – Душанбе: Дониш, 1976, стр. 252. Қайюмов П. Тазкираи Қайюмий. III жилдлик, II жилд. – Т., 1998. – Б.440-441.

²² Ҳошим Р (Турсунқул). Сиддиқий тўғрисида мулоҳазалар // Маориф ва ўқитғувчи. 1928. №3.

²³ Навоий асарлари луғати / Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Ибрлҳимов. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.32.

²⁴ Ибрат, Сиддиқий-Ажзий, Сўфизода. Танланган асарлар / Тўпловчи, нашрга тайёрловчи, сўзбоши, луғат муаллифлари: Б. Қосимов, С. Ахмедов, У. Долимов. – Т.: Маънавият, 1999. – Б.123.

joylardan olib o‘tish maqsadida mahalliy aholi ichidan tanlab olingan yo‘l ko‘rsatuvchilarni “Ajzchi” deb atashgan. Ehtimol, “Ajziy” taxallusi turkcha “ajzchi” so‘zidan olingan bo‘lib, “yo‘l boshlovchi”, “yo‘l ko‘rsatuvchi” ma’nolarini anglatadi²⁵. Uning taxalluslari ko‘p bo‘lgan. Jumladan, ijodkor satirik va yumoristik asarlarida Mayna, Gina-Gina, Shashpar, Nayza, Tir, Gumnom, Olmos taxalluslarini qo‘llagani ma’lum.

O‘zbek jadid shoir-u adiblarida ko‘p taxallus qo‘llash an’anasi mavjud. Chor Rossiyasi senzurasida ijodkorlar o‘zlarini himoya qilish ma’nosida ham shunday yo‘l tutgan bo‘lishi tabiiy. Milliy adabiyotimiz namoyandalari taxalluslari yuzasidan ilmiy izlanish olib borgan Bois Qoriyev (Oltoy) Siddiqiy-Ajziyning o‘sha davr matbuotidagi chiqishlarida “Muqallid” taxallusini ham qo‘llagani haqida yozadi²⁶. Xususan, “Mashrab” jurnalining 35-sonida ijodkorning “Muqallid” taxallusi bilan “Donoga ishorat, nodonga kaltak” nomli maqolasining chop etilishi ham buni isbotlaydi.

Professor Begali Qosimov Sayidahmadxo‘ja Siddiqiy-Ajziy haqida dastlab 1962-yilda eshitganini aytadi: “O‘zimizda²⁷ ham ayrim maqolalar paydo bo‘la boshladi. Nomi goho Hamza atrofidagi qalamkashlar ro‘yxatiga qo‘shiladigan bo‘ldi. 1973-yilda G‘afur G‘ulom nashriyotida ixchamgina to‘plami ham chiqdi. Matbuotda ikki xil baho o‘rtaga tushdi. Birinchisi, jadid – millatchi. Ikkinchisi, taraqqiyparvar – ma’rifatchi. Jamiyatimiz iqtisodiy-ma’naviy turg‘unlik botqog‘iga cho‘kkan sayin Siddiqiy haqidagi gap-so‘zlar ham so‘nib bordi va so‘ng deyarli esdan chiqdi”²⁸.

Sayidahmadxo‘ja Siddiqiy-Ajziy 1864-yil Samarqand yaqinidagi Halvoyi qishlog‘ida tug‘ilgan. Otasi Hasanxo‘ja to‘quvchilik bilan shug‘ullangan bo‘lib, bir o‘g‘il, bir qiz farzandlarini o‘qimishli qilib tarbiyalashga harakat qilgan. Biroq bu oila qashshoqlikda qiyinchilik bilan kun kechirgan. Shunday og‘ir sharoitda

²⁵ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: “ЎзМЭ” Давлат илмий нашриёти, 2000. – Б.141.

²⁶ Қориев Б (Олтй). Адабий тахаллуслар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1967. №1. – Б.51-58.

²⁷ Mustabid davrida sovet tuzumining kompartiyasi tomonidan har 5 yilda o‘tkaziladigan sezid nazarda tutilyapti.

²⁸ Ибрат. Сиддиқий-Ажзий. Сўфизода. Танланган асарлар / Тўпловчи, нашрга тайёрловчи, сўзбоши, луғат муаллифлари: Б. Қосимов, С. Ахмедов, У. Долимов. – Т.: Маънавият, 1999. – Б.110-111.

Sayidahmadxo‘ja 1868-yil 5 yoshligida otasidan ayrildi. Natijada bobosi Alixo‘ja qo‘lida tarbiya topdi. Boshlang‘ich ta‘limni tog‘asining xotinidan oldi.

Moddiy qashshoqlik bois onasi Sayidahmadxo‘jani mahalladagi soatsoz Mirzo Abdulqayumga shogirdlikka topshiradi. Tabiatan qobiliyatli bola soatsozlik hunarini egallashga chin dildan kirishadi. Biroq tabiatan xasis va qattiqqo‘l usta uning o‘z hunari sirlarini egallashiga yo‘l bermay, ko‘proq uy ishlariga band qilib qo‘yadi.

O‘g‘li A‘zamxonning xotirlashicha, Sayidahmadxo‘ja qahraton qishni yupun kiyim bilan yalang oyoq o‘tkazadi. Ustaning xonadoni tomidagi qorni kurayotgan kezda, bolaning oyoqlari muzlab, bamisoli kuyib qolgandagi kabi og‘riq bergan. Boshiga tushgan bunday qiyinchiliklarga qaramay, u soatsozlik sirlarini mukammal o‘rganadi. Lekin shunga qaramay, usta bilan birga ishlab ketishining imkoni bo‘lmagani bois otameros kasb hisoblangan to‘quvchilikka o‘tishga majbur bo‘ladi. Zamon nobopligi, Turkiston bozorlarini rus sanoat mahsulotlari egallay boshlagani sababli mahalliy hunarmandlarning iqtisodiy ahvoli qiyinlasha bordi. Oqibatda u boshqa kasb bilan mashg‘ul bo‘lishdan o‘zga chora topmadi. Nechog‘liq og‘ir bo‘lmasin, ilm olishga, ma‘rifat kasb etishga harakat qildi. Jadid tanqidchiligining atoqli vakili Vadud Mahmud shoir haqida mana bunday yozadi: “Buyuk bir iste‘dodga ega bo‘lg‘onidan ko‘b san‘atlarning ustosidir. Boshlab Siddiqiy yaxshi texnikdir. Soat va turli moshinalarni tuzatmoq ishiga mohirdir. Yaxshi to‘quvchi va tikuvchidir, ko‘b yillar bu san‘at bilan yashag‘ondir. Yaxshi ovchidir. Musiqa bilan ham ancha shug‘ullangandir. O‘z tilidan boshqa arab, fors, rus tillarini biladir. Forscha she‘rlari fors adabiyoti bilan yaxshi tanish ekaniga shohiddir. Arab va rus adabiyotlari bilan ham ancha oshnodir”²⁹.

Sayidahmadxo‘ja davr taqozosi bo‘lgan ilmlarni, Chor Rossiyasi orqali kirib kelgan zamonaviy texnikani egallash, ulardan xalq manfaati yo‘lida foydalanish zaruratini chuqur his etdi. Shu maqsadda o‘sha kezlari Samarqandda yashagan rus o‘qituvchilaridan bu tilni puxta o‘rgandi. Bundan tashqari, u Vatan va millat

²⁹Маҳмуд В. Турк шоири Ажзий // Инқилоб. 1924, №12. – Б.16.

taraqqiysi uchun ilm-ma'rifat eng muhim vosita ekanini tushunib yetib, geometriya, astronomiya, geografiya va fizika singari fanlarni o'zlashtirishga jiddu jahd qildi. Rossiya, Yevropa va, umuman, G'arb mamlakatlari tarixi o'rganish ustida astoydil shug'ullandi. O'sha vaqtda jahon estetik tafakkurini o'rganish vositasi bo'lgan rus adabiyotini chuqur egallashga harakat qildi va bunga muvaffaq bo'ldi.

Yashash sharoiti qanchalik og'ir bo'lmasin, u madrasa ta'limini olish zaruratini his etdi. Natijada 1881-1882-yillarda madrasaga qabul qilindi. Lekin turmush mashaqqatlari bemalol o'qish imkonini bermadi. Qolaversa, bu paytga kelib, Turkiston madrasalari avvalgi mavqeyini boy bergan, o'qitish tizimi zamondan orqada qolgan edi. XIX asr boshlaridagi eski maktab-madrasa tizimidan noroziliklar, xususan, A.Qursaviy, Sh.Marjoniylarning taraqqiyotga to'siq bo'la boshlagan Buxoro maktab-madrasa tizimini keskin tanqid qiluvchi "Al-Lavoyih" ("Ravshanliklar") va "Faviyyatul aslof va tahiyyatul axlof" ("Salaflar vafoti va avlodlar duosi") kitoblarida ham bayon qilingan edi. Madrasada u Abdurahmon Jomiyning "Sharhi mullo Jomiy" deya shuhrat topgan "Favoyid uz-Ziyoiya" asarigacha o'qib o'rgandi. Arab tili grammatikasi, turkiy va forsiy adabiyot bo'yicha bilimni oshirdi. Ikki yilcha o'qigach, qashshoqlik bois tirikchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'ldi. Xatirchida qozilik idorasida mirzo bo'lib ishladi. Biroq bu yerda ko'p ishlay olmay, Samarqandga qaytishiga to'g'ri keldi. Shundan so'ng bunday idoralarda ishlagan emas.

Siddiqiy-Ajziy muayyan vaqt 1887 – 1889-yillarda Buxoroda yashab, zargarlik qilgani ma'lum. Bu shaharda u zamondosh shoir-u adiblar bilan tanishib, ular ta'sirida ishqiy mavzuda nazmiy asarlar yoza boshlagan. Jadidchilik va jadid adabiyoti namoyandalari ta'sirida fikri yangilangach, ishqiy mavzudagi she'rlarini yoqib yuborgani ma'lum³⁰. U davrning millat ziyolilari oldiga qo'ygan vazifani teran anglaydi. Taraqqiyotdan ortda qolgan Turkistonning, jaholat girdobida qolgan Vatan ahvolidan bexabar millatning ayanchli qismati uni iztirobga soladi.

³⁰ Bu haqda qarang: Xoшим Р (Турсунқул). Сиддиқий тўғрисида мулоҳазалар // Маориф ва ўқитғувчи. 1928. №3. – Б.39-42.

Vatan va millat istibdod iskanjasida qolgan og‘ir bir vaziyatda ishqiy mavzuda yozish haqiqiy farzandning ishi emas, adabiyot millatning orzu-armonlari, uning boshiga tushgan kulfatning nechog‘liq og‘ir ekani, ozodlik ruhi haqida yozishi kerak, deb hisoblagani uchun ishqiy mavzudan voz kechdi. Jadidshunos olim Begali Qosimovning yozishicha: “Bunday hol faqat bizning adabiyotimizda emas, balki boshqa xalqlar adabiyotida ham uchraydi”³¹. Olim Panamada istiqlol uchun kurash kuchaygan XIX asrning 60-yillarida Modesto Moxiko bitgan otashin misralarni bunga misol qilib keltiradi:

Ortiq kuylamasman ishq-muhabbatni,
Ilohiy she‘rlarga bormaydi qo‘lim.
Vatanda erk va baxt bo‘lmagunicha,
Ashulamiz bitta: Ozodlik yo o‘lim!

Buxoroda ham turmush sharoiti o‘nglanmagan shoir Samarqandga qaytishga majbur bo‘ladi. Muazzamxon ismli hamqishlog‘iga uylanib, ikki o‘g‘il ko‘rishadi. Ularga Hakimxon va Qosimxon deb ism qo‘yadi. Chor Rossiyasi hukumati Turkiston aholisini ham 1-jahon urushiga jalb etgani ma‘lum. Hakimxon urushda ishtirok etib, bedarak ketgan. Kenja o‘g‘li Qosimxon bolaligida suvchechakka chalinib, vafot etadi. Shoir keyinchalik samarqandlik yana bir qizga uylanadi. Shoirning avlodlaridan Bahodir Bahronov shunday xotirlaydi: “Men Sayidahmadxo‘ja Siddiqiy-Ajziyning chevarasiman. Katta bobomiz Sayidahmadxo‘ja Siddiqiyning xotini vafot etgach, shaharga (Samarqandga – T.Sh.) kelib bizning momomizga uylangan va momomizdan A‘zamxon ismli farzandlari dunyoga kelgan. U Tojikiston Fanlar akademiyasida ishlagan, surat chizishda usta bo‘lgan. U kishini ko‘pchilik rassom sifatida tanigan. A‘zamxon bobomizning Anvar, Mahbuba, Manzura, Feruza va yana bitta qizi (bu qizlarining ismini bilmayman, Tojikistonga turmushga chiqib ketgan – aloqamiz uzilib ketgan) bo‘lgan. Men Manzura opaning o‘g‘liman. Bugungi kunda katta bobomiz Siddiqiy-Ajziyning qiz nevaralaridan avlodlari davom etib kelmoqda. Menda katta

³¹ Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: Маънавият, 2002. –270 б.

bobomizning muhrlangan shajaralari bor. Asl kelib chiqishlari turkistonlik xo‘jalardan bo‘lgan”. Yana bir qarindoshi – samarqandlik Isoxonxo‘janing chevarasi Sul-tonxon Burxonov eslashicha, katta bobosi Isoxonxo‘ja Siddiqiy-Ajziy, Sadrid-din Ayniy va Nabixon qori bilan boja bo‘lgan. Unda Siddiqiy-Ajziyning qozi muhri bilan tasdiqlangan shajarasi bo‘lgan. Keyinchalik shajarani Bahodir Bahronovga bergan. Bu to‘rt ma’rifatparvar o‘rtasidagi yaqinlik faqatgina qarishdonlik rishtalari bilangina bog‘liq bo‘lmay, ular ijodiy hamkor va maslakdosh ham edilar.

“Shajara”da Sayidahmadxo‘janing ajdodlari otasi Hasanxo‘jadan boshlab to Odam alayhissalomgacha borib taqalgan. Sayidahmadxo‘janing o‘g‘li A‘zamxon bo‘lganligi va A‘zamxondan bir o‘g‘il va to‘rt qiz dunyoga kelganligi, o‘g‘lining jangdan (*II Jahon urushidan* – T.Sh) qaytmaganligi aytiladi. Sulola o‘g‘il farzandlardan davom etganligi uchun shajara shu yerda uziladi va shajara Sayidahmadxo‘janing katta akalari avlodi bilan davom ettiriladi. Hozircha shajara “Sultonxo‘ja bir o‘g‘il ko‘rdi. Oti Dilshodxo‘ja bin Temurxo‘ja”, deb tugatilgan (Hijriy 1427 yil).

Siddiqiy-Ajziy dolzarb mavzularda publitsistik maqolalar ham yozgan. “Orzu yoki xayol” maqolasidagi (1914) mana bu fikrlar uning qalbidagi pok orzularni, ularni amalga oshirish imkonsizligidan tug‘ilgan armonlarni ifodalagan: “Agar man boy bo‘lsa edim, ...muallim yetishduraturgon bir rushdiy maktab solur edim, lekin afsuski, pulim yo‘q”³². Shoirning bu orzusi oradan qariyb bir asr o‘tgach, avlodlari sa’y-harakatlari bilan ushaldi. Shoirning chevarasi – Mahbuba opaning o‘g‘li Ulug‘bek Ahmadjonov homiylik faoliyati orqali ilm-ma’rifatga munosib xizmat qilib kelmoqda. Bobosi Siddiqiy 1903-yilda ochgan maktabni o‘z hisobidan zamon talablari darajasida ta’mir-lab, bugungi avlodlar ta’lim olishi uchun zarur sharoitlarni yaratgani ushbu fikrni tasdiqlaydi.

Siddiqiy-Ajziy 25 – 26 yoshigacha hayot qiyinchiliklari va azobini ko‘rdi. Buxoro va Samarqand atrofidagi sinfiy tabaqalar ahvolini tekshirib ko‘rdi. Albatta, u teran fikrli shaxs sifatida mamlakat va xalqning ahvoli haqida fikrladi hamda uni

³² Гумном. Орзу ёки хаёл // Ойна. 1914. №34. – Б.819.

isloh qilishga sidqidildan xizmat qildi. Tadrijan uning ijtimoiy aqidalari shakllanar edi. Turli o'lkalardan keladigan ko'p sonli turkiy va forsiy gazeta va jurnallar uning aqidalari shakllanishiga ko'maklashar edi. Vadud Mahmudning guvohlik berishicha, XX asrning boshlarida Samarqandga "Misr, Kalkutta, Istanbul, Tehron, Boku, Tiblisi, Qozon, Orenburg, Bog'chasaroydan gazeta yetib kelar edi. Uning stoli ustida "Suri Isrofil", "Chehranoma", "Tekin", "Eroni nav", "Iqbol", "Vaqt", "Yulduz", "Tarjimon" gazetalarini ko'rar edik. Journallardan "Sirotul Mustaqiyim", "Sho'ro", "Ad-dinu va-l-adab", "Tilimiz", "Fuyuzot", "Mulla Nasriddin" bor edi"³³. Ushbu dunyo matbuoti O'rta Osiyoda ro'y beradigan ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy voqealarning mohiyatini anglab yetishga ko'maklashar edi.

Siddiqiy-Ajziy zamonasining ijtimoiy-siyosiy tafakkuri yetuk, Vatan va millat g'amini har narsadan ustun bilgan ziyolilaridan. U xalqimiz boshiga kelgan kulfatlar jaholat va g'aflat natijasi ekanini, faqat ilm-ma'rifat orqaligina taraqqiyga erishmoq mumkinligini chuqur angladi va bu muqaddas ishga butun bilimi va salohiyatini safarbar etdi. Asarlari ham, asosan, ana shu mavzuda ekani uning ijodkor sifatida ham ushbu e'tiqodida sobit turganini ko'rsatadi.

Shoir 1901-yilda otasidan meros bo'lib qolgan bog'ni sotib, muqaddas haj safariga o'tlanadi. Ka'batullohni, payg'ambarimizning muborak ravzalarini ziyorat etadi. Bir muddat Turkiya va Yunonistonda bo'lib, keyin Jidda shahridagi Rossiya konsulligida tarjimon sifatida faoliyat olib boradi. Bu hol uning arab va rus tillarini mukammal bilganidan dalolat beradi. Safardan qaytar ekan, bir muddat Tiflis va Bokuda yashab, ozarbayjon shoir-u adiblari bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Ayniqsa, hajvnavis shoir Aliakbar Toyirzoda hamda mashhur "O'liklar" dramasi muallifi Jalil Mamadqulizoda ijodi bilan tanishib, undan ijodiy ta'sirlanadi.

1901-yil so'ngida sayohatdan ona shahriga qaytib kelgan shoir Samarqand aholisi o'rtasida Yevropaning ilm-fan va texnika-texnologiya sohasida erishgan yutuqlarini, o'zi borgan mamlakatlar adabiyoti va madaniyatini keng targ'ib etdi. Ilm-u ma'rifatsiz taraqqiyotga erishib bo'lmasligini anglagan shoir usuli savtiya maktabi ochdi. Najotni avlodlar tarbiyasida deb bilgani uchun Halvoyi qishlog'ida

³³Маҳмуд В. Муаллим Абдуқодир Шакурӣ. Ҳужжатли қисса // Садоӣ Шарқ. 1990. №8. – Б.33.

tashkil etilgan bu maktabda yoshlarga saboq berishni yo'lga qo'ydi. Ulug'bek Dolimovning yozishicha: "Bu jadid pedagoglari tomonidan ochilgan maktab uchun birinchi ovrupocha bino edi. Unda ikkita katta xona bo'lib, taxta polli, shiftli, har ikki xonada golland pechkasi bor edi. Xonalari keng, yorug', havosi toza, derazalari ko'chaga qaragan. Maktab ochilgan yiliyoq butunlay yangi jihozlar: parta, doska, o'qituvchi uchun stol-stul; ko'rgazmali vositalar: kurayi arz (globus), turli xaritalar, rasmlar, kitoblar bilan ta'minlangan"³⁴. Sig'imi qirq nafar o'quvchiga mo'ljallangan bu maktab faoliyati 1903-yildan boshlangan. Siddiqiy usuli savtiyaga mos dasturlar tuzadi, jadid maktablari uchun yozilgan o'quv qo'llanmalari va darsliklardan foydalanadi. O'quvchilar davomati va ular bilimini baholash uchun maxsus jurnal yuritadi. Nafaqat Samarqandda, butun Turkistonda mashhur bu maktab ta'lim islohi borasidagi dadil va yangi qadam bo'ldi. Siddiqiy millat yoshlarini olam ahvolidan xabardor, yetuk insonlar etib tarbiyalash ishiga katta hissa qo'shdi.

"Dar ta'rifi maktab" ("Maktab ta'rifida") sarlavhali forsiy g'azal Siddiqiyning maktab vasfiga bag'ishlangan va o'sha davrda katta aks sado bergan asaridir. 1914-yilda bosilgan "Ganjinayi hikmat" ("Hikmat xazinasini") to'plamidan o'rin olgan bu g'azal shoirning ilm-u irfon haqidagi konseptual qarashlarini aks ettirgani bilan qimmatlidir. Maktabni ta'riflar ekan, shoir "nigori jannati rizvon", "quti jon", "quvvati dil", "ravnaqi iymon" singari tashbeh-u sifatlashlardan foydalanadi. Millat hayotini maktabdan ayri tasavvur etish imkonsiz ekanini, aks holda insoniyat jaholat va nodonlik girdobida halok bo'lishini ta'kidlaydi. Shoir fikricha, maktab bamisoli Nuh kemasi kabi gunoh to'fonining halokatidan omonlikka olib chiquvchidir. Yomon xulqlarni tuzatuvchi ham, inson qalbini oy singari pok va munavvar etguvchi ham maktabdir. She'r nihoyasida shoir maktabni "...inson olamining tarbiyachisi"³⁵, deya vasf etadi.

Siddiqiy-Ajziy 1905-yilgi inqilobdan so'ng o'z ma'rifatparvarlik harakatini rivojlantirdi. U endi faqatgina mahalliy rus maktabining o'qituvchiligi bilan

³⁴ Долимов У. Миллий уйғониш педагогикаси. – Т.: Ношир, 2012. – Б.174.

³⁵ Сиддиқий Ажзий. Ганжинаи ҳикмат / Ношир: Мулла Абдуқодир Шақурий. – Т.: Б.А.Гозоров литографияси, 1914. – Б.34. ЎЗР ФА ШИ асосий фонди. Инв. №3215.

qanoatlanmay qishloqning katta yoshlilari uchun kechki maktab ochdi. Ko'pgina forscha, ruscha, o'zbekcha, ozarcha va turkcha gazeta va jurnallarga obuna bo'ladi. Ularni dehqonlarga o'qib beradi, dehqonlarni dunyo vaziyatidan xabardor etishni istaydi. Shoir shaharning dehqonlari va kambag'allari bilan ko'p suhbatlar o'tkazadi. Ularga jahonning ahvoli va haj xotiralaridan hikoyalar qilib beradi. Shoir shu yillarda "Yangi usul" maktabining tarafdori va tashviqotchisi sifatida eski maktablardagi ta'lim-tarbiyaning shakli va mazmuniga qarshi chiqib, ta'lim va tarbiyaning shakli hamda mundarijasini o'zgartirish zaruratini isbotlashga harakat qiladi.

Siddiqiy-Ajziy ma'rifatparvarlik faoliyatida maktab va maorif asosiy o'rinni egallaydi. Uning maktabi zamon talablariga har jihatdan mos ekani bilan alohida ajralib turgan. Bu maktabda millati, dini, kelib chiqishi, jamiyatda tutgan o'rnidan qat'i nazar, barcha bolalar ta'lim olishi mumkin edi. Rus olimi, tibbiyot sohasining professori G.N. Aleksandrov Siddiqiyning shogirdlaridan edi. U Ajziy ochgan maktabda tahsil olib, ilmda katta marralarga erishgan. G.N. Aleksandrov mazkur maktab va uning asoschisi bo'lgan Siddiqiy haqida mana bunday yozgan edi: "U yerda barcha fanlar – arifmetikadan tortib astronomiyagacha, arab tilidan rus tiligacha o'qitilardi. Ayniqsa, shoir rus adabiyotini o'rgatishga katta e'tibor berardi. Siddiqiy 1914-yilda "Zarafshon" nomli maktab kutubxonasi tashkil qilib, ma'rifatparvarlik ruhidagi matbuot va adabiyotni yoyishda jonbozlik ko'rsatdi. Uning kutubxonasida "Sho'ro" jurnalidan "Hablul matiyn" gacha, Tavfiq Fikrat asarlaridan I.A.Krilov masallarigacha, Ibn Sinoning "Al-Qonun"idan Bedilning "Chor unsur"igacha bor edi. Shu yillari u "Mulla Nasriddin" jurnali bilan juda yaqin munosabatda bo'ldi. Uning ko'magi bilan chor senzurasini O'rta Osiyoda bosishga ruxsat etmagan bir qancha asarlarini Tiflisda nashr ettirdi. Shuningdek, Peterburg, Moskva, Orenburg, Boku, Qozon, Toshkentda chiqadigan gazeta va jurnallarning ko'pchiligiga yozilgan bo'lib, shu matbuot sahifalarida o'zbek, tojik, ozarbayjon tillarida yozilgan she'rlarini chop ettirib turardi"³⁶.

³⁶Аслонов. Р. Мировоззрение Саид Ахмеда Сиддики: Дисс... канд. филос. наук. – Душанбе, 1962. – стр.67-68.

Siddiqiy-Ajziy rus shoir-u adiblaridan Gogol, Turgenev, Lermontov va Tolstoy ijodiga katta qiziqish bilan qaragan. Gogolning “Shinel”, Turgenevning “Ov” asarlarini tarjima qilib, Halvoyi maktabi darsliklariga kiritgan. Shu bilan birga, Turgenevning “Ov” asariga taqlid qilib, O’rta Osiyoda mashhur bo’lgan “Ov” nomli qissa yozadi. Shoir bu asarlarni nashr etishning uddasidan chiqqa olmagan, shu sababli ular bugun bizda yo‘q. Siddiqiy-Ajziyning “Mukolamayi fujo’iya” asari ham bizgacha yetib kelmagan. “Serb xalqining muborizasi” dostonining 48 misrasigina yetib kelgan, xolos³⁷.

Siddiqiy-Ajziy she’riyatining asosiy mavzusi o’rta asrlar ta’lim uslublarini isloh qilish, soxta shayxlar va riyokor so‘filarning yomon xulqlarini ochib berish, dunyoviy bilimlarni targ‘ib qilish, rus tili va rus madaniyatini o‘rganish va o‘rgatishdir.

1909-yilda shoir “Mir’oti ibrat” dostoni ustida ish olib borayotgan bir paytda Sadridin Ayniy Samarqandga keladi. U suhbat chog‘ida Buxoro xalqining vaziyati, amir va uning amaldorlari hamda ruhoniylarning kirdikorlari borasidagi Ajziyning ma’lumotlarini to‘ldirib shoirga bu mavzuda bir asar yozishni maslahat beradi. Sadridin Ayniy, hattoki, asarning taxminiy rejasini Ajziyga ishora qiladi. Shu tariqa “Mir’oti ibrat”dan keyin “Anjumani arvoh” vujudga keladi. Shu yillarda mamlakatda matbuot va ilg‘or adabiyotga qattiq senzura qo‘yilgan edi. Garchi shoir bir necha bor ularni chop etishga harakat qilsa-da, Turkiston senzurasidan qat’iy ravishda rad javobini oladi. Shunga binoan “Mir’oti ibrat” va “Anjumani arvoh” 1912 – 1913-yillarda Tiflisda chop etildi. Bu masnaviylarni ozarbayjonlik do‘stlari, jumladan, Jalil Mamadqulizoda “Mulla Nasriddin” jurnali chop etiladigan joyda nashr qildi. Muallifning o‘zi “Mir’oti ibrat”ni o‘zbek tiliga tarjima qilgan va 1914-yilda Samarqandda chop ettirgan³⁸.

Ajziy “Mir’oti ibrat” va “Anjumani arvoh” dostonlarini nashr ettirgach, shoirga ta’qiblar kuchayadi. Bu ikki asar Turkiston va Buxoro bo‘ylab katta ta’sir ko‘rsatdi va tezda keng tarqaldi. Buxoro va Samarqandda “Anjumani arvoh”ni

³⁷ Шакурый М. Нигоҳе ба адабиёти тоджики садаи бист. – Душанбе: Пайванд, 2006, С.99-102.

³⁸ Ko‘rsatilgan manba. – B.73-76.

o‘qish rasman va qat’iyan man etilgan bo‘lsa-da, bu ish tobora ko‘proq qo‘llab-quvvatlanayotgan edi. Shoirning bu ikki dostoni Samarqandni zabt etdi. O‘sha paytda Shakuriyning maktabida o‘qigan Vadud Mahmud aytadi: “Mir’oti ibrat” va “Anjumani arvoh” o‘sha kunlarda qo‘lma-qo‘l bo‘lar edi. Hujralarda Bedil, Soyib va Nozimxonliklarning o‘rnini egalladi”³⁹.

“Mir’oti ibrat” va “Anjumani arvoh” asarlarining nashr etilishi Ajziyga shuhrat keltirdi va uni yangicha fikrli shoir sifatida tanitdi.

1914-1915-yillarda Samarqandda nashr etilgan Ajziyning ikki kitobi – “Aynu-l-adab” va “Ganjinayi hikmat” ham vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaviy asarlar sifatida mashhur bo‘ldi. Vadud Mahmudning ma’lumot berishicha, Shakuriy domlaning buyrug‘i bilan shoir Ajziy maxsus to‘plamlar tuzgan va bu to‘plamlar maktabda darslik sifatida o‘qitilgan⁴⁰.

Ruhoniylarning nafrat va zug‘umlari podshohlik mustamlakachilari va mahalliy hukmdorlarning dushmanligidan kam bo‘lmagan. Bu dushmanlardan shoir ba’zan zarbalar ko‘rgan. Vadud Mahmud ana shunday dahshatli zarbalardan birini shunday hikoya qiladi: “Ajziyning onasi vafot etganda uning janozasini mahalla imomi o‘qimagan, o‘tkinchilar tobutini olishmagan. Shakuriy domla shogird va tanishlarini yig‘ib, jasadni Xoja Abdo‘h qabristoniga olib ketdi”⁴¹.

Halvoyidagi Siddiqiy-Ajziy maktabi va Rajabamindagi Abduqodir Shakuriy maktablari haqida 1914-yil 3-yanvar kuni Jum’a namozi o‘qib bo‘lingach, Ulug‘bek madrasasi ichidagi jome‘da 5-6 ming musulmonning huzurida Abbosxon ismli muazzin jadidlarning va ruscha o‘qishni targ‘ib qiladiganlarning kofirligini va har kim bolasini usuli jadid maktabiga bersa, o‘zi kofir, xotini taloq bo‘lishini forsiy til bilan uzun va baland bir nutqda xaloyiqqa bildiradi⁴².

Siddiqiy-Ajziy va Abduqodir Shakuriydek adab va andisha sohibi bo‘lgan faqih va olim ustozlarni, iste’dodli shoirlarni kofir deb ayblashlari mutlaqo asossiz,


³⁹ Маҳмуд В. Муаллим Абдуқодир Шакурий. Хужжатли қисса // Садои Шарқ. 1990. №8. – С.28.

⁴⁰ Ko‘rsatilgan manba. – B.28.

⁴¹ Ko‘rsatilgan manba. – B.21.

⁴² Аслонов. Р. Мироззрение Саид Ахмеда Сиддики: Дисс... канд. филос. наук. – Душанбе, 1962. – стр.62.

yanada aniqrog‘i, tuhmat edi. Shuning uchun ham Siddiqiy-Ajziy “Oyna” jurnalida⁴³ o‘zini kofir deguvchilarga qarata quyidagi baytini e‘lon qiladi:



(Haqg‘oylikdan tilni tiymoq kufr bo‘lsa, to jonim bor ekan, haq so‘zni deyman) degan satrlar bor edi.

Ana shundan so‘ng Siddiqiy-Ajziyning har bir harakati qattiq nazoratga olinadi. Mutaassib ulamolar Rossiyaga sayohat qilgani, bolalarga rus tilini o‘rgatgani uchun shoirga iymonsiz, shubhali shaxs sifatida qaraydilar. Boshqa tomondan Halvoyi maktabiga har ikki haftada bir inspektor kelib turgan. Shoirning viloyat inspeksiyasida tarjimon tanishi bo‘lib, u inspektorlar kelishidan yashirincha xabardor qilib borgan. Shoir bir qancha qo‘lyozmalarni, bir qancha o‘quvchilarning daftarlarini yashirgan. Inspektorlar tomonidan maktabni tekshirish politsiyaning tintuviga o‘xshagan. Ular hamma shkaflarni, stollarni, barcha joylarni ko‘rib chiqishgan, kitoblarni tekshirishgan, bolalarning daftarlarini o‘qishgan va keyin ularni olib ketishgan. Qolaversa, Ajziyning o‘zi ham viloyat inspeksiyasiga taklif etilib, undan dars uslubi, har bir mavzu bo‘yicha qo‘llagan asosiy va qo‘shimcha materiallari haqida batafsil ma’lumotlar olingan.

Ta’qiblar shu darajaga yetadiki, natijada shoir maktabda faoliyatini davom ettira olmay qoladi va u muallimlikdan voz kechadi. Uning o‘qituvchilikni qachon tark etgani ma’lum emas. Lekin uning maktab mudirligidan iste’fo berganidan keyin o‘qituvchilikdan ham bo‘shagani aniq.

Halvoyi maktabining mudiri 1910-yil 18-yanvar kuni ishdan ketadi va uning o‘rniga Ajziy maktab mudirligi vazifasiga vaqtinchalik tayinlanadi⁴⁴. Siddiqiy-Ajziy 1911-yil 15-iyulda o‘zini bu vazifadan ozod etishi to‘g‘risida ariza beradi. Bu ariza rus tilida o‘z qo‘li bilan yozilgan. O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanadi. Biz bu arizani o‘sha vaqtdagi rusiy tahriri namunasi sifatida aynan (kitobot va imlo alomatlari islohisiz) keltiramiz:

⁴³Ажзий. Дар жавоб такфир кунандагон // Ойна. 1914. №16. – Б.276.

⁴⁴ Ўзбекистон Миллий архиви. 181-фонд, 134-ҳужжатлар. – Б.1.

Его высокородие
Господину Инспектору народных училищ
Самаркандской области

Рапорт

Ввиду семейных обстоятельств я службу и.д.зав. Хальваинским р.т.уч больше не могу, а потому прошу Ваше Высокородие отчислить меня от занимаемой должности от первого числа августа указов мне кому я должен здать уч.

Вр.и.д.завуч (имзо) Сиддикий⁴⁵.

Siddiqiy-Ajziy tomonidan maktabning topshirilishi to'g'risidagi ariza nusxasi 1911-yil 8-avgustda rasmiylashtiriladi va undan so'ng Halvoyi maktabi arxivi hujjatlarida (o'qituvchilar ro'yxati, oylik vedemostlarida) shoirning ismi boshqa ko'rinmaydi. Shunga ko'ra quyidagi xulosaga kelish mumkinki, u o'sha vaqtda o'qituvchilikni ham tark qilgan.

Maktabning topshirilishi aktiga kitoblar ro'yxati va Halvoyi maktabining boshqa ashyolarini mazkur maktab o'qituvchisi P.Grigoriyev Sayidahmad Siddiqiy-Ajziydan qabul qilib olgan. Bu ro'yxat maktab ta'limining qanday bo'lganini bilish jihatidan diqqatga sazovordir: Pushkin "Baliqchi va baliq afsonasi" ("Musulmon" tilidagi tarjima), "Tabiiy jo'g'rofiya hikoyalari" ("Musulmon" tilida); "Qadimgi Rossiya tarixi", "Rus – Yapon urushi tarixi", Zoologiya uchun suratlar, Turkiston o'lkasi xaritasi, Rossiya Osiyosi xaritasi, Yarim sharlar xaritasi, Yer kurrasi, Rus hayoti va tabiati rasmlari (10 dona) va boshqalar⁴⁶. Albatta, bularning barchasi rasmiy hujjatlar bo'lib, shubhasiz tarix kitoblari podsholik hukumati siyosati ruhida yozilgan edi, lekin ularning barini Siddiqiy-Ajziy va uning izdoshlari o'zlarining ilg'or aqidalari nigohi bilan tushuntirganlarida ko'plab ijobiy natijalarga erishish mumkin edi.

1914-yil may oyida Siddiqiy-Ajziyning sa'y-harakati bilan Samarqandning Polvonariq qishlog'ida 24 o'quvchi ta'lim oladigan yangi usuldagi maktab ochiladi

⁴⁵ Ko'rsatilgan manba. – B.39.

⁴⁶ Ko'rsatilgan manba. – B.63.

va bu Samarqand atrofidagi birinchi yangi usuldagi maktab edi⁴⁷. Taxminlarga ko'ra, u may oyida Samarqandda "Zarafshon" nomli kitob do'koni ochgani uchun Polvonariq maktabini ochishga yordam bergan, biroq o'zi dars bermagan⁴⁸. Do'konda eski va yangi kitoblar, o'quv qurollari sotilgan. Shuningdek, gazeta-jurnallar ham sotilgan va ularga obuna qilingan.

Siddiqiy-Ajziy 1917-yil fevral inqilobidan keyin ijtimoiy harakatlarda qatnashgan. Ishchi bolsheviklar tashkiloti "Ittifoq"ning faol a'zosi bo'lgan. 1918-yil 8-mayda "Ittifoq" Samarqand musulmon ishchi va dehqonlari Kengashiga aylantiriladi va Ajziy shu Kengash Ijroiya qo'mitasi a'zosi va Adliya komissari etib saylanadi⁴⁹.

U Oktyabr inqilobi arafasida va undan keyin "Hurriyat" va "Mehnatkashlar ovozi" gazetalarida ko'plab publitsistik maqolalar yozgan. Siddiqiy-Ajziy keyinchalik ijod usulini o'zgartirib, ma'rifatparvarlik to'g'risidagi she'r va dostonlar yozishdan publitsistik maqolalar yozishga o'tgan. 1917-yilning oktyabr va fevral oylari davomida "Hurriyat" gazetasida ketma-ket 10 ta publitsistik maqola nashr ettirdi. Ammo bu muddat davomida hech bir she'r nashr ettirmadi. Uning barcha maqolalari ochlik va ocharchilik mavzusiga bag'ishlangan edi.

1920-yillarning boshlarida Siddiqiy-Ajziyda kasallik paydo bo'ladi va shu yilning oxirlariga kelib shoirning kasalligi og'irlashib, davlat xizmatidan ketishga majbur bo'ladi. U taxminan 1920-yil noyabrda Adliya vazirligidan ishdan bo'shagan.

Siddiqiy-Ajziy XX asrning 20-yillarida Samarqandda nashr etila boshlagan o'zbekcha va tojikcha hajviy jurnallar "Mashrab", "Mulla Mushfiqiy" hamda "Zarafshon" gazetasini tashkil qilishda faol ishtirok etgan.

Siddiqiy-Ajziy 1921-1924-yillarda senzuraning kuchliligi va davomiy betobligi tufayli she'rlar yaratmagan yoki bori ham qoramalarda qolib ketgan.

⁴⁷ Идорадан. Ойна. 1914. №31. – Б.609.

⁴⁸ Идорадан. Ойна. 1914. №30. – Б.591.

⁴⁹ Qarang: "Hurriyat" gazetasi 1917-yil 34 – 39-sonlaridagi xabar va maqolalar: "Saylov munosabati bilan", "Saylov ro'yxatining №2 sig'a qo'shilmag'on odam o'zig'a jabr qilg'on bo'lur", "Samarqand ishchilar Ittifoqining bayonnomasi", "Vakillarni saylamodan har kishi qo'shulmay qolsa, ul o'z avlodi oldida xiyonatkoridir", "Sho'royi Islomning xatosi", "Sho'royi Islomiya va saylov".

Sogʻayganidan soʻng, 1925-yildan boshlab “Mashrab,” “Mulla Mushfiqiy” jurnallarida oʻzbekcha va tojikcha sheʼrlarini chop ettirgan.

Mahmudxoʻja Behbudiy vasiyatnomasida yozadi: “Ey, Turkiston maorif ishlarida boʻlgʻon oʻrtoq va oʻgʻlonlarim! Man oʻzim garchand bandi boʻlsam-da, sizlarni esimdan chiqarmayman va sizlarga bir oz vasiyat qilib oʻtaman. Manim soʻzlarimni quloqlaringizgʻa olingizlar! Biz ikki oydan beri Buxoro shaharlarida bandi boʻlib yurub, axir oʻn kundan beri bir yerda (Qarshi shahrida) bu zolimlarning qoʻligʻa tushib bandi boʻldik. Jadid, kofirlik otini koʻtardik. Bu yerdan qutulmogʻimiz gumon boʻldi. Oʻrtoqlarim Siddiqiy, Ayniy, Fitrat, Qori va Akobir Mahmud va oʻgʻlonlarim Vadud Mahmud, Abdulqodir Shakuriy!

Sizlarga vasiyat qilaman. Maorif yoʻlida ishlaydurgʻon muallimlarning boshini silangizlar! Maorifgʻa yordam etingiz. Oʻrtadan nifoqni koʻtaringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qoʻymangizlar! Har ish qilsangiz jamiyat ila qilingizlar!”⁵⁰

Siddiqiy-Ajziy maslakdosh doʻsti Mahmudxoʻja Behbudiyning qatl etilishidan iztirobga tushadi va uning vasiyatini eshitganda qattiq taʼsirlanadi. Shuning uchun ham doʻsti vasiyatining bajarilishini oʻzi uchun muqaddas burch deb bilgan va ancha yillik uzilishdan keyin, yaʼni 1922-yilda yana sevimli kasbi muallimlikka qaytgan. Turkiston bolalarini ilm-maʼrifatli qilish yoʻlidagi saʼy-harakatlarini davom ettirgan. Bu fidoyi ustozning taʼlim sohasidagi mehnatlari munosib baholandi. 1925-yilda Oʻzbekiston hukumati oʻqituvchilik va maʼrifiy faoliyatining 25 yilligi munosabati bilan Siddiqiy-Ajziyga “Respublikada xizmat koʻrsatgan oʻqituvchi” faxriy unvonini beradi va bir umrlik nafaqa bilan taʼminlaydi.

Adabiyotshunos Shuhrat Rizayevning fikricha, Siddiqiy-Ajziyning oʻqituvchilik kasbiga qaytishiga quyidagi omil sabab boʻlgan: “1919 – 1920-yillarda Turkistondan markazga yuborilgan “Turkkomissiya” va “Turkbyuro” faoliyatining boshlanishi bilan mahalliy kadrlarga, xususan, rahbar kadrlarga

⁵⁰ Бехбудий М. Танланган асарлар / Тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи: Б. Қосимов. – Т.: Маънавият, 2006. – Б.254.

munosabatning yomonlashuvi ishonchsizlik ko‘pgina milliy ziyolilarning sa’y-harakatlari susayib so‘nishiga, ularni ijtimoiy faoliyatdan chekinishga majbur etdi”⁵¹.

Bizning fikrimizcha, Siddiqiy-Ajziyning o‘qituvchilik faoliyatiga qaytishiga har ikki omil ham sabab bo‘lgan.

1925-yil iyul oyida Halvoyi maktabini butunlay tashlab, Jalolobod dam olish oromgohiga davolanish uchun ketadi. Tabibning tavsiyasiga ko‘ra, shoir bu yerda bir oy qolib, har kuni cho‘milishi kerak edi, lekin shoir ikki kun ketma-ket suvda o‘tirib cho‘miladi va 15 kundan so‘ng Samarqandga qaytadi. Tabiblarning ko‘rsatmalariga bo‘ysunmaslik Siddiqiy-Ajziyning kasalligini yanada kuchaytiradi va uzoq xastalikdan so‘ng 1927-yil 15-iyunda Halvoyi qishlog‘ida vafot etadi.

Sharif Husaynzoda o‘ttizinchi yillarning boshlarida Siddiqiy-Ajziy ijodi bilan shug‘ullangan, xususan, shoirning nashr etilmagan she‘rlarini to‘plashga harakat qilgan. U Hoji Muin Mehriydan bir necha tarqoq misralarni va serblar kurashi haqidagi hikoyasini olishga muvaffaq bo‘lgan. Biroq keyinchalik Sharif Husaynzoda Siddiqiy-Ajziy asarlarini o‘rganishni davom ettirmagan.

Umuman olganda, Siddiqiy-Ajziy XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning birinchi choragi o‘zbek xalqi adabiy va ma‘naviy hayoti rivojida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan fidoyi va jonkuyar ma‘rifatparvar ijodkorlardan biri edi. U siyosiy jihatdan nihoyatda murakkab bo‘lgan bir davrda faoliyat olib bordi. Siddiqiy-Ajziy ijodida, ta‘lim sohasida olib borgan faoliyatida niyat xolisligi, millat taraqqiyoti uchun sidqidildan xizmat qilish yetakchilik qildi. U millat va Vatan taraqqiyotini ma‘rifatda, ta‘limda, ilm-fanda deb bildi va shu yo‘lda butun umrini sarfladi. Shoir hayoti va ijodini sinchiklab o‘rganish, uning o‘sha davr ijtimoiy, adabiy va madaniy hayotidagi o‘rnini belgilash bugungi adabiyotshunosligimiz oldida turgan muhim vazifalardandir.

1.2. Shoir adabiy merosi manbalari

Samarqandlik Sayidahmadxo‘ja Siddiqiy-Ajziyning o‘z qo‘li bilan ko‘chirilgan asarlari bizgacha yetib kelmagan, biroq shoir zamondoshlarining

⁵¹ Ризаев Ш. Халқдин ёрлиқ истармен... // Гулистон. 1990. №8. – Б.10.

tazkiralarda, Sayidahmadxo‘ja Siddiqiy-Ajziyning o‘zi nashr ettirgan toshbosma kitoblarda, XX asr boshlaridagi darslik va majmualarda hamda vaqtli matbuot sahifalarida saqlanib qolgan. Sayidahmadxo‘ja, avvalo, “Siddiqiy”, “Ajziy”, “Mayna”, “Olmos”, “Nayza”, “Tir”, “Gumnom”, “Shashpar”, “Gina-Gina”, “Muqallid” kabi o‘ndan ortiq taxalluslar bilan o‘zbek, tojik, ozarbayjon va arab tillarida ijod qilgan shoir, shuningdek, publitsist va tarjimon. Uning ijodiy merosi manbalarini quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Siddiqiy-Ajziyning zamondoshlari tomonidan tuzilgan tazkiralalar.
2. Shoirning o‘zi nashr ettirgan toshbosma kitoblar.
3. XX asr boshlaridagi darslik va majmualar.
4. XX asr boshlaridagi matbuot nashrlari.
5. XX asrning ikkinchi yarmidan keyingi vaqtli matbuot nashrlari.

1. Siddiqiy-Ajziyning zamondoshlari tomonidan tuzilgan tazkiralalar.


Tazkiralarda shoirlar hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar, asarlaridan namunalar beriladi va mumtoz shoirlarimizning hayoti va ijodini o‘rganishda asosiy manbalardan hisoblanadi. Sharq adabiyotshunosligida tazkiraning ilk namunasini Abu Mansur as-Solibiy “Yatimatu-d-dahr” asari bilan boshlab berdi. Fors adabiyotida bu janrda Muhammad Avfiy XIII asrda “Lubobu-l-albob” tazkirasini yaratgan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotida Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasi bilan bu an’anani davom ettirgani ma’lum.

XVI – XIX asrlarda O‘rta Osiyo va unga qo‘shni bo‘lgan o‘lkalarda 30 dan ortiq tazkiralalar tuzilgan⁵². Bu tazkiralarning ko‘pchiligi biri-birini to‘ldirib, tadrijiy davom ettiradi va bugungi adabiyotshunos tadqiqotchilarimiz ularga birlamchi manba sifatida murojaat qilishadi. Tazkirachilik an’anasi o‘zbek adabiyotshunosligida XIX – XX asrlarda ham davom etgan. Bunga Qori Rahmatulloh Vozehning “Tuhfatu-l-ahbob fi tazkira-til-as’hab” (“Suhbatdoshlar zikrida do‘stlar tuhfası”), Ahmad Tabibiyning “Majmuatu-sh-shuaro” (“Shoirlar to‘plami”), Afzal maxdum Pirmastiyning “Afzalut-tazkor fi zikrish-shuaro val-ash’or” (“Shoirlar va she’rlar haqida Afzal tazkirasi”), Ne’matulla Muhtaramning

⁵² Ҳақимов М. Шарқ адабиётшунослиги луғати. – Т.: “Davr press” НМУ, 2013. – Б.299.


“Tazkiratu-sh-shuaro” (“Shoirlar to‘plami”) va Po‘latjon Domulla Qayyumovning “Tazkirayi Qayyumiy”larini misol keltirish mumkin.

Ne‘matulla Muhtaramning “Tazkiratu-sh-shuaro”sida⁵³ Sayidahmadxo‘ja Siddiqiy-Ajziy haqida shunday ma‘lumot keltiriladi:



Tarjimasi: Zakovatli, aqlli, eng bilimli tarjimon va fikrli inson Sayidahmadxo‘ja Samarqandiyning laqabi Ajziy deb nomlangan. Uning she‘riy tabiati Samarqanda kamol topgan. Xalq esa mazkur olim she‘rlarining iforidan muattar bo‘lganlar. Aynan o‘sha davrning aksariyat san’atkorlari uchun bu kabi insonlar faxrga sazovor bo‘lgan. Chunki u doimo o‘ziga ishonib, haqiqatlarga tayangan kishi bo‘lgan hamda soatsozlik va tikuvchilikda beqiyos, tasavvufiy atamalarni yaxshi tushungan, san’atlarni chuqur o‘rgangan, xati juda chiroyli va yuqori uslubga ega bo‘lgan. Ajziy Samarqandning faxrli mintaqasining olimlari va fozillari orasida so‘zlaguvchi nafis suhbatli inson bo‘lgan. Tabiati yuksak shoirning bu she‘rlari, asosan, fozillar va olimlar tadbirlarida qo‘l kelgan. Tazkirada shoirning ishqiy mavzudagi ikkita forsiy she‘ri keltirilgan.

Birining matla’si:



Tarjimasi: *Yuzing uzra cho‘k tushgan soching mardi maydon talab qiladi va har lahza oshiqlar ko‘ksiga yuz bora xanjar uradi.*

⁵³ Muhtaram N. Tazkiratu-sh-shuara. Poeticheskaya antologiya / Kriticheskiy tekst i vvedeniye: Djanfida A. – Dushanbe: Donish, 1976, str.252.

Ikkinchi g‘azalining matla’si:




Tarjimasi:

Ravo ko ‘rmagil, soching ko ‘rmayin o ‘lmog ‘im,


Yopma yuzing, shartdir ikki o ‘pich olmog ‘im.

O‘zbekcha ishqiy she’rlari saqlanmagan.

Po‘latjon Qayyumiy “Tazkirayi Qayyumiy” asarida XIX–XX asrlarda yashab ijod etgan ijodkorlar haqida qimmatli ma’lumotlarni yozib qoldirgan. Samarqand adabiy muhiti vakillaridan Fikriy, Hilmiy, Qurbiy, Hoji II, Siddiqiy va Vasliy Samarqandiylarga fiqralar ajratilgan. Xususan, Siddiqiy-Ajziyning Samarqand atrofidagi o‘zbek qishlog‘idan ekanligi, Samarqandda yashagani, taraqqiyparvar jadid shoir bo‘lgani, “Ajziy” taxallusi bilan ijod etgani, “Mir’oti ibrat” nomli asar yozgani hamda kasbi zargar, soatsoz va naqqoshlik bo‘lganini ta’kidlaydi. Shoirning quyidagi ikkita she’rini keltiradi⁵⁴. Yozg‘an ash’oridan biri:



Ikkinchisi:



⁵⁴ Қайюмиё П. Тазкираи Қайюмиё. Қўлёзма. 397^а-397^б-саҳифалар. ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи фонди. №734.

2. Shoirning o‘zi nashr ettirgan toshbosma kitoblar.

Siddiqiy-Ajziy fors-tojik tilida 1909-yil “Mir’oti ibrat” (“Ibrat oynasi”) dostonini yozib tugatgach, bu asarni senzura yo‘l bermagani sababli Samarqandda nashr ettirishning iloji bo‘lmaydi. Oradan bir yil o‘tib yozilgan “Anjumani arvoḥ yoxud manzumayi ilohomi ar-ruh” asarining ham qismati shunday bo‘lgan. Shoir bu ikki dostonni 1912 – 1913-yillarda ozarbayjonlik do‘stlari Aliakbar Toyirzoda va Jalil Mamadqulizodalarning ko‘magi bilan Tiflisda nashr ettirdi.

Siddiqiy-Ajziyning “Mir’oti ibrat” (“Ibrat oynasi”)⁵⁵, “Anjumani arvoḥ” (“Ruhlar yig‘ini”)⁵⁶, “Aynu-l-adab” (“Odoblar bulog‘i”)⁵⁷, “Tajvid al-Qur’onu-l-Majid” (“Qur’on o‘qitish qoidalari”)⁵⁸, “Ganjinayi hikmat” (“Hikmatlar xazinasini”)⁵⁹ kabi asarlari yetib kelgan. Bu asarlar O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondlarida saqlanadi.

Ma’lumki, XIX asrning 2-yarmidan Turkiston shaharlariga kirib kela boshlagan matbaa nashrlari XX asr boshlariga kelib ancha keng tarqaldi. Bu davrda matbaachilik o‘lka madaniy hayotidagi muhim yangiliklardan bo‘lgan. Ko‘plab nodir qo‘lyozmalar toshbosma (tipo-litografik) usulda keng tarqala boshlagan.

Mir’oti ibrat. Doston. Toshbosma. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondida 252-inventar raqami va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti toshbosma asarlar fondida 699-1553-, 3166-inventar raqamlari ostida saqlanadi. Ta’kidlash joizki, asarni Siddiqiy-Ajziy

⁵⁵ Сиддиқий Ажзий. Миръоти ибрат. – Самарқанд; Б.А.Гозоров литографияси. 1914. – 36 б. Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи фонди. Инв. №252.

⁵⁶ Сиддиқий Ажзий. Анжумани арвоҳ / Ношир: Мулла Абдуқодир Шақурий. – Тифлис: “Шарқ” матбааси, 1912. – 22 б. ЎЗР ФА ШИ асосий фонди. Инв. №3019.

⁵⁷ Сиддиқий Ажзий. Айну-л-адаб. – Самарқанд; Б.А.Гозоров литографияси. 1914. – 36 б. Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи фонди. Инв. №254.

⁵⁸ Сиддиқий Ажзий. Тажвид ал-Қуръону-л-Мажид. – Самарқанд; Б.А.Гозоров литографияси. – 26 б. ЎЗР ФА ШИ асосий фонди. Инв. №3161.

⁵⁹ Сиддиқий Ажзий. Ганжинаи ҳикмат / Ношир: Мулла Абдуқодир Шақурий. – Т.: Б.А.Гозоров литографияси, 1914. – Б.34. ЎЗР ФА ШИ асосий фонди. Инв. №3215.

o‘zbek tiliga tarjima qilib, 1914-yilda (hijriy 1333) Samarqandda chop ettirgan. Noshiri “Kutubxonayi Zarafshon”.

Boshlanishi:



So‘ngi:



Toshbosmada doston matni 393 baytdan iborat (2-28-sahifalar). Asar matni ikki ustunda har bir sahifaga 15 qatordan joylashtirilgan. Asarning asosiy matnidan keyin berilgan xotima qismi 19 baytdan iborat. Doston jami 412 bayt, ya’ni 824 misrani tashkil etadi. Bundan tashqari, nashr so‘ngida “Shikoyat az gardun va faryod ba millat” sarlavhali she’r ham berilgan. Ushbu she’r 14 banddan iborat bo‘lib, toq bandlar forsiy, juft bandlar turkiy tilda bitilgan. Har bir band 6 baytdan iborat. Bandlarning qofiyalanishi beshinchi baytgacha g‘azal shaklida, so‘nggi bayt o‘zaro (*a-a-b-a-v-a-g-a-d-a-e-e* tarzida) qofiyalangan. Bu kitobga jami 454 bayt o‘zbekcha va 42 bayt tojikcha she’r kiritilgan. Kitob jami 496 baytdan iborat. O‘lchami 14,5x23, matn o‘lchami 9,5x16. Muqovasi yumshoq kartondan.

“Mir’oti ibrat” dostoni ramziy asar hisoblanib, uning markaziy qahramonlari yevropolik zakiy qariya va so‘zamol to‘tidir. Shoir ularning tilidan o‘zining ideallarini bayon etgan. Bu dostonda shoir adabiyotning “Tushda ko‘rish” usulidan foydalanib, o‘zini obod va madaniy Yevropa shaharlarida ko‘radi hamda u yerda buyuk donishmand hisoblanmish dono qariya bilan uchrashadi. Qariya Samarqandning ahvoli haqida so‘raydi. Shoir bunga javoban Samarqand va uning aholisini dunyodan bexabar holda yashayotganlar sifatida tasvirlab beradi. Uning aqidaviy va dunyoviy qarashlaridagi kamchiliklarni dono qariya va uning qafasdagi to‘tisi ko‘rsatib beradi. Daraxtga ilingan qafas ichidagi to‘ti majlis davomida shoirning so‘zlariga istehzoli kulib qo‘yadi. Dastlab qariya va to‘ti Samarqandning ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy kamchiliklarini ochiqchasiga ko‘rsatib beradi va so‘zida davom etib, agar vaziyat shu tarzda davom etsa, oqibati halokatdan boshqa yerga olib bormasligini ta’kidlaydi. Bu dostonda garchi qariya

va dono to‘ti Samarqand aholisining eskicha turmush tarzi, ularning aqidasi, maktab, eskicha ilm va butun O‘rta Osiyoning zamondan orqada qolgan turmush tarzi haqida Samarqand misolida so‘z yuritib, sanoat, dehqonchilikni rivojlantirish uchun zamonaviy ilmni rivojlantirish, yangi maktablarni ochish, yangi usul va texnikalardan foydalanish, zamonaviy ilmni o‘rganish, rus-tuzem maktablarida o‘qish, rus tilini o‘rganish kerakligini aytib, besamar o‘tgan yoshlik, zamonasining manfaatparast rahbarlari haqida so‘z olib boriladi.

Ismoil Gasprinskiyning “Dorur rohat musulmonlari” romani bilan Ajziyning “Mir’oti ibrat” dostonidagi voqealar o‘xshash. Garchi bu ikki ijodkorning biri nasrda, ikkinchisi she’riy yo‘lda o‘z ijtimoiy ideallarini bayon qilgan bo‘lsalar ham. Masalan, Ismoil Gasprinskiy “...ikki tarafdagi tosh yo‘laklar, ular chetidagi temir panjaralar va ularning ortidagi gulbog‘chalar, chiroyli-chiroyli uylar aholining zavq va rohatini aytib turadi”⁶⁰ deb yozsa, Ajziy:

Doshdin hama yer imorat o‘lmish,
Bir yangicha shakl-u hay’at o‘lmish.

Yoki:

Evlar orasinda bo‘stonlar,
Gulbog‘chalar ila gulistonlar –

deb go‘yo Ismoil Gasprinskiyning fikrlarini nazmda ifodalaydi⁶¹. Rohat uyi aholisini adib mehr bilan tasvirlaganki, o‘quvchida ular bamisoli farishtalardek taassurot qoldiradi. Ajziy esa saodatli turmushning asosini ilm-ma’rifat tashkil qilishini quyidagi satrlarda ko‘rsatib bergan:

Joriy o‘la erdi nahri irfon,
Inson malak o‘lmak erdi imkon.

Muhammadjon Shakuriyning “Nigohe ba adabiyoti tojiki sadai bist” kitobidan ma’lum bo‘lishicha, “Mir’oti ibrat” Sayidahmadxo‘ja Siddiqiy-Ajziyning birinchi asaridir. Bu doston tojik tilida bo‘lib, hazaji musaddasi maqsur bahrida yozilgan. Hijriy 1331-yil, ya’ni milodiy 1913-yilda “Sharq” matbaasida ustoz

⁶⁰ Ismoilбей Г. Дорур Рохат муслмонлари / Ҳаёт ва мамот масаласи. – Т.: Маънавият, 2006. – Б.255.


⁶¹ Ибрат, Сиддиқий Ажзий, Сўфизода. Танланган асарлар / Тўпловчи, нашрга тайёрловчи, сўзбоши, луғат муаллифлари: Б. Қосимов, С. Ахмедов, У. Долимов. – Т.: Маънавият, 1999. – Б.188.

Abduqodir Shakuriyning tashabbusi va Jalil Muhammadqulizodaga yuborishi bilan Tiflis shahrida chop etilgan edi⁶². Bu kitobni muallifning o‘zi o‘zbek tiliga tarjima qilgan va 1914-yilda Samarqanda chop ettirgan.


Anjumani arvoḥ yoxud manzumayi ilhom ar-ruh. Doston. Fors tilida masnaviy janrida yaratilgan. Toshbosma. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida 3019-, 3167-inventar raqamlari ostida saqlanadi. Asar milodiy 1912-yilda (hijriy 1331) Tiflisdagi “Sharq” matbaasida chop etilgan. Noshiri Muallim Mulla Abduqodir Shakuriy.

Doston matni 332 baytdan, ya’ni 664 misradan iborat (2-22-sahifalar).

Boshlanishi:



So‘ngi:



Asar matni ikki ustunda har bir sahifaga 17 qatordan joylashtirilgan. O‘lchami 14,5x23, matn o‘lchami 9,5x16. Muqovasi yumshoq kartondan.

Mumtoz adabiyotimizdagi dastlabki hajv va she’riy sayohatnomalar yozish XVIII asrda udumga kirgan edi. Bunday hajvlar hukmdorlar haqida bo‘lgan. Amir Haydarning daftardori (moliya vaziri) jondorlik Mirzo Sodiq Munshiy (1753-1819)ning “Dahmayi shohon” (“Shohlarning qabrlari”) masnaviysi keyinchalik shu yo‘nalishdagi bir qator asarlarning yaratilishiga sabab bo‘ldi. Bu asarning qisqacha mazmuni quyidagicha: shoir Buxoroning sobiq hukmdorlari ashtarxoniylar dahmasi yonidan o‘tayotsa, bir qabrdan sado chiqibdi. Yaqin borib qarasa, Subhonqulixon qabri ekan. Xon o‘zi qilgan nohaqlik va adolatsizliklari haqida so‘zalayotir, avlodlarga nasihat berayapti, qilmishlaridan pushaymon. Shoir Ubaydullaxon, Abulfayzxon dahmalari tomon o‘tsa, bu hukmdorlar ham o‘z tarixlaridan, fojialaridan so‘zlab, afsuslanadilar. O‘z so‘zlari bilan idoralarining

⁶² Шакурий М. Нигоҳе ба адабиёти тоджикӣ садаи бист. – Душанбе: Пайванд, 2006, С.60.

tartibsiz va nizomsizliklarini aytib, o‘zlarini fosh etadilar. Oradan yuz yilcha o‘tgach, Mirzo Abdulazim Somiy ham xuddi shu nomda masnaviy yozdi va amirlar ro‘yxatini qolgan joyidan – mang‘itlar sulolasini boshlab bergan Rahimbiydan Muzaffarxongacha olib keldi. Abdurahmon Tamkin ushbu mavzuda “Dahmayi shoh Dabbus” va “Dahmayi Amir Temur”ni yozadi. Sayidahmadxo‘ja Siddiqiy-Ajziy ham yuqoridagi asarlar bilan bir qatorda Ismoil Gasprinskiyning “Mukolamayi salotin”ini esga tushiruvchi “Anjumani arvoh” (“Ruhlar yig‘ini”) masnaviysini yozdi.

Shoir bu asarda Misrga sayohatlari davomida to‘plagan materiallar asosida u yerdagi teatrlarni tasvirlaydi. Shoirning tavsificha, uning o‘ziga xosligi shundaki, go‘yoki marhumlar ruhlarini hozir qilib, tomoshabinlar o‘zlari tanigan arvohlari bilan bir-birini ko‘rmasdan suhbat qurishadi. Shoir nazarida haj ziyoratini ado etib Misrga tashrif buyuradi. U yerda esa g‘ayrioddiy ruhlar majlisiga duch keladi. U yerda Buxoroning marhum amirlari hisoblanmish Amir Muzaffar va Abdulahadning ruhlarini chaqirtirib ular bilan suhbat quradi. Amir Muzaffar va Amir Abdulahad hayotida oddiy xalq boshiga turli xil zulmlarni yog‘dirib, o‘limlaridan so‘ng qilgan ishlaridan pushaymon bo‘ladilar.

Shoir bu orqali Olimxon va din peshvolariga islohotlarga undovchi maslahatlar berib, ularning xatolari, saroy ahlining fasod qilmishlari va ulamolarning chirkin ishlarini fosh etadi.

Aynu-l-adab. Toshbosma. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondida 254-inventar raqami va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida 609-, 9436-, 9574-inventar raqamlari ostida saqlanadi. 1916-yilda (hijriy 1334) Samarqandda B.A.Gozorov litografiyasida bosilgan. Noshiri “Kutubxonayi Zarafshon”. Titulda “Haq tab’ sohibina oiddur” jumlasini noshirning mualliflik huquqini belgilaydi. 36 sahifa. Asardan Ajziyning 34 ta turkiy g‘azali (2-24-,26-27-sahifalar), “Mutafarriqa” (24-sahifa), “Nazira” sarlavhali muxammas (25-sahifa), ruboiy (26-sahifa), marsiya (27-28-sahifalar),


ta'rix (28-sahifa), turkiy nazira (28-29-sahifalar), 5 ta forsiy g'azali (29-36-sahifalar) o'rin olgan.

“Aynu-l-adab”ga 630 misra o'zbekcha she'ri va 68 misra fors-tojikcha she'ri jamlangan. Kitob jami 349 bayt (698 misra) she'rdan tashkil topgan.

Boshlanishi:



So'ngi:



Kolofonda asarning nashr yili va ko'chiruvchisi haqida quyidagicha ma'lumot berilgan: “*Dar sanayi 1334 hijriy tammam shud. Kataba Qori Muhammad Yusuf Samarqandiy*”. She'rlar matni ikki ustunda har bir sahifaga 14-15 qatordan joylashtirilgan. Matn hoshiyaga olingan. Nashrning har bir sahifasi raqamlanganidan tashqari toq raqamli sahifalar pastki qismida poygirlar ham berilgan. Kitobning so'nggi sahifasida nashrga oid ayrim tuzatishlar jadval shaklida berilgan. O'lchami 14,5x23, matn o'lchami 9,5x16. Muqovasi yumshoq kartondan. Asardagi g'azallar baytlarining soni quyidagicha:

- 1) 5 baytli 3 ta;
- 2) 7 baytli 15 ta;
- 3) 8 baytli 2 ta;
- 4) 9 baytli 11 ta;
- 5) 11 baytli 1 ta;
- 6) 5 baytli 2 ta.

Ko'rinib turibdiki, shoirning aksar o'zbekcha g'azallari 7 va 9 baytlidir. Mumtoz adabiyotda Navoiy va boshqa shoirlar g'azallarining ko'p qismi 7 va 9 baytdan iborat bo'lgani qayd qilingan⁶³.

Siddiqiy-Ajziyning “Aynu-l-adab” she'riy majmuasiga kiritilgan, biroq ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan she'rlari ham bo'lib, ular quyidagilar:

⁶³ Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан, 1983. – Б.52-53.


1. ⁶⁴ “بنگا” (“Bango”) radifli g‘azali. 7 baytli bu g‘azalning matla’si quyidagicha:



2. ⁶⁵ “ای کریمیک...” (“Ey karaming...”) deb boshlanuvchi 9 baytli g‘azalning matla’si quyidagicha:



3. ⁶⁶ “فرح” (“Farah”) radifli 7 baytli bu g‘azalning matla’si quyidagicha:




4. ⁶⁷ “مفقود” (“Mafqud”) radifli 9 baytli bu g‘azalning matla’si quyidagicha:



5. ⁶⁸ “ایده مز” (“Edamaz”) radifli g‘azali. 11 baytli bu g‘azalning matla’si quyidagicha:



6. ⁶⁹ “درس” (“Dars”) radifli g‘azali 8 bayt. Bu g‘azalning matla’si quyidagicha:



7. ⁷⁰ “خاص” (“Xos”) radifli g‘azali 9 bayt. Bu g‘azalning matla’si quyidagicha:

⁶⁴ Сиддиқий Ажзий. Айну-л-адаб. – Самарқанд: Б.А.Гозоров литографияси. 1914. – Б.3. Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи фонди. Инв. №254.


⁶⁵ Ko’rsatilgan manba. – B.5-6.

⁶⁶ Ko’rsatilgan manba. – B.7-8.

⁶⁷ Ko’rsatilgan manba. – B.8-9.

⁶⁸ Ko’rsatilgan manba. – B.10-11.

⁶⁹ Ko’rsatilgan manba. – B.11.



8. ⁷¹ “عرض” (“Arz”) radifli g‘azali 7 bayt. Bu g‘azalning matla’si quyidagicha:



9. ⁷² “طمع” (“Tama”) radifli g‘azali 5 bayt. Bu g‘azalning matla’si quyidagicha:



10⁷³ “طمع” (“Tama”) radifli g‘azali 7 bayt. Bu g‘azalning matla’si quyidagicha:



11. ⁷⁴ “صدف” (“Sadaf”) radifli g‘azali 7 bayt. Bu g‘azalning matla’si quyidagicha:



12. ⁷⁵ “ید بیداد یغماند...” (“Yadi bedodi yag‘modin...”) deb boshlanuvchi 8 baytli g‘azalning matla’si quyidagicha:



13. Shoirning bitta fard⁷⁶ janridagi she’ri bo‘lib, u ham bo‘lsa quyidagidir:

⁷⁰ Ko‘rsatilgan manba. – B.12-13.

⁷¹ Ko‘rsatilgan manba. – B.13.

⁷² Ko‘rsatilgan manba. – B.15.

⁷³ Ko‘rsatilgan manba. – B.15-16.


⁷⁴ Ko‘rsatilgan manba. – B.17.

⁷⁵ Ko‘rsatilgan manba. – B.19.

⁷⁶ Ko‘rsatilgan manba. – B.24.



14. Shoirning o‘zbek tilida bitta ruboiy⁷⁷ janridagi she’ri bo‘lib, u ham bo‘lsa quyidagidir:




15. ⁷⁸“اول” (“O‘l”) radifli g‘azali. 15 baytli bu g‘azalning matla’si quyidagicha:



16. 11 baytdan iborat bo‘lgan ⁷⁹“ایسماعیلیک غصیرینسکی مرثیه سی” (“Ismoilbek G‘aspirinskiy marsiyasi”)ning dastlabki bayti quyidagicha:



17. ⁸⁰“تاریخ وفات اسماعیلیک” (“Ta’rix vafoti Ismoilbek”) nomli ta’rix qiyidagidir:



Ganjinayi hikmat yoxud adabiyoti jadida. Toshbosma. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida 3215-, 9414-inventar raqamlari ostida saqlanadi. Asar 1914-yilda (hijriy 1333) Samarqandda chop etilgan. Noshiri Mulla Abduqodir Shakuriy. Asardan Ajziyning 37 ta g‘azali (2-25-sahifalar), 19 ta ruboiysi (25-29-sahifalar) va “Mutafarriqa” (29-33-sahifalar), “Dar ta’rifi maktab” (33-34-sahifalar), “Dar madhi voliyi Samarqand” (34-35-sahifalar), “Dar madhi mehmoni voliyiki az tarafi Peterburg‘ omada bud” (35-sahifa), “Dar ta’rifi imperotur” (36-

⁷⁷ Ko‘rsatilgan manba. – B.26.

⁷⁸ Ko‘rsatilgan manba. – B.26-27.

⁷⁹ Ko‘rsatilgan manba. – B.27-28.

⁸⁰ Ko‘rsatilgan manba. – B.28.

sahifa) sarlavhali she'rlari o'rin olgan. To'plamdan Ajziyning, asosan, fors-tojik tilidagi she'rlari o'rin olgan. Bular orasida faqatgina "Mutafarriqa" turkiy tilda bo'lib, 13 banddan iborat. Har bir band sakkiz misradan iborat. Bandlardagi dastlabki olti misra o'zaro, so'nggi ikki misra esa masnaviy shaklida (*a-a-a-a-a-a-b-b*) qofiyalangan.

"Ganjinayi hikmat yoxud adabiyoti jadida" she'riy majmuasiga shoirning 341 bayt fors-tojikcha va 52 bayt o'zbekcha she'ri kiritilgan. Majmua jami 393 bayt, ya'ni 786 misra she'rdan iborat.

She'rlar matni ikki ustunda har bir sahifaga 14-15 qatordan joylashtirilgan. Matnlar hoshiyaga olingan bo'lib, varaqlarning yuqori qismida sahifalarni ko'rsatuvchi raqamlar qo'yilgan. O'lchami 14,5x23, matn o'lchami 9,5x16. Muqovasi yumshoq kartondan.

So'nggi sahifada nashr to'g'risida ma'lumot beruvchi quyidagi kolofon mavjud: "*Kataba Mulla Sayfiddin as-Samarqandiy.*"

Bayt

Buvad mahfuz tab'i nashri in "Ganjinayi hikmat",

Magar onro ki bo o' nazmi va-y medihad ruxsat.

Adres: Samarqand. Muallim Shakuriy"

Nashr so'ngida "Nashriyoti Shakuriy" tomonidan chop etilgan Siddiqiy, Shakuriy, Munavvarqori, Fitrat, Mulla Ismatullo kabi ijodkorlarning asarlari ro'yxati berilgan. E'tiborlisi, ushbu ro'yxatda Siddiqiy-Ajziyning "Mukolamayi fujo'iya" asari ham tilga olingan bo'lib, mazkur asar ayni paytda saqlanib qolgani to'g'risida ma'lumot mavjud emas.

Siddiqiy-Ajziyning "Ganjinayi hikmat" asaridagi g'azallar baytlarining soni quyidagicha:

- 1) 4 baytli 1 ta;
- 2) 5 baytli 5 ta;
- 3) 6 baytli 11 ta;
- 4) 7 baytli 6 ta;
- 5) 8 baytli 6 ta;

- 6) 9 baytli 4 ta;
- 7) 10 baytli 2 ta;
- 8) 11 baytli 1 ta;
- 9) 12 baytli 1 ta.

Tasnifdan ma'lumki, Siddiqiy-Ajziyning fors-tojikcha g'azallarining aksari 6, 7 va 8 bayt bo'lib, bittadan 11 va 12 baytli g'azali uchraydi.

Shoir "Ganjinayi hikmat"da ittifoqchilikning insonlar hayotidagi muhim o'rinlardan ekanligini ta'kidlab, xalq ichra birlik yo'qligidan noroziligini namoyon etadi. Shuningdek, Ajziy xalqning o'zaro birdam bo'lib, o'z qo'l ostidagi yutuqlar bilan kifoyalaniq qolmay, mamlakatni rivojlantirish va taraqqiy ettirish kerakligini istaydi. Ajziy asarda savodsizlikni mamlakat va jamiyatning nuqsonlaridan biri sifatida bilib, bundan qutilish va uni tag-tomiri bilan sug'irib tashlash uchun xalqdan yangi maktablarda o'qish orqali dadil qadamlar tashlash kerakligini so'raydi. Shoir shu bilan bir qatorda erinchoqlikni ham insoniy ofatlardan biri sifatida ta'kidlab, harakatdagi karvondan biror kishi ortda qolsa, undan uzoqlashib, ortiq karvon ovozlari eshitmasligi hamda, ehtimol, uni topa olmasligi va unga yeta olmasligi ham mumkinligini misol sifatida keltiradi.

Tajvid al-Qur'onu-l-Majid. Toshbosma. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida 3161-inventar raqami ostida saqlanadi. 1915-yilda (hijriy 1334) Samarqandda B.A.Gozorov litografiyasida bosilgan. Noshiri "Kutubxonayi Zarafshon". Murattib Sayid Ahmadxo'ja Siddiqiy. Asar 26 sahifa. Yaxshi saqlangan.

Sayidahmadxo'ja Siddiqiy-Ajziy o'zi ochgan maktabda bu kitobdan darslik sifatida foydalangan. Zamondoshlarining ma'lumot berishicha, "Tajvid al-Qur'onu-l-Majid" o'z davrining ilm-u irfon ahli orasida shuhrat qozongan darslik bo'lgan.

3. XX asr boshlaridagi darslik va majmualar.

Sadriddin Ayniy o'zbek va tojik adabiyoti tarixi yuzasidan tadqiqotlar olib borgan ma'lum. U 1926-yilda "Namunai adabiyoti tojik" kitobida Saidrizo

Alizoda, Siddiqiy-Ajziy, Mirzo Akrom Fikriy, Mirzo Abdulloh Fayyoziy, Shakuriy va boshqa samarqandlik ma'rifatparvarlarning hayoti va ijodidan namunalar keltirgan. "Osori muhimman Ajziy manzumu ast. "Mukolamayi fujo'iya" nom yak asari mansur navishta boshad ham, tab' nayoftanu mutodilash muyassar nashudaast" ("Ajziyning muhim asari manzumadir. Mansur "Mukolamayi fujo'iya" nomli asar yozgan bo'lsa-da, nashr etilmagan"). Bizga ma'lumki, Siddiqiy-Ajziy "Mir'oti ibrat" dostonini avval fors tilida yozib, keyin shoirning o'zi turkiy tilga tarjima qilib, 1914-yilda Samarqandda nashr ettirgan edi. Sadriddin Ayniy shoirning "Mir'oti ibrat" dostoni muqaddimasidan keyingi 24 misrani va xotimasidan 16 misrani namuna qilib keltirgan. Bu misralar "Mir'oti ibrat"ning dastlabki nashri, ya'ni fors tilidagi nusxasidan olingan. "Mir'oti ibrat" dar 20 sahifa ba soli 1331-hijriy dar Tiflis tarafi muallim Shakuriy Samarqandiy tab'u nashr shudaast"⁸¹ ("Mir'oti ibrat" asari hijriy 1331-yilda Tiflisda ustoz Shakuriy Samarqandiy tomonidan 20 sahifada nashr etilgan).

Sadriddin Ayniy bu kitobda 3 ta forsiy g'azalini ham keltirib o'tgan. Birinchisi 10 baytdan iborat bo'lib, uning matla'si quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Bahori toza bo gul mekunad ulfatguziniho,
Jahonro sabza berun karda az rangi zaminiho.

7 baytli ikkinchi g'azal matla'si quyidagicha:

Bog'ye, ki dar o' nest zi irfon samar, in jo,
Xalqi, ki nadorad sui ibrat nazar, in jo.

Yuqoridagi manbada keltirilgan uchinchi g'azali ham 7 baytdan iborat bo'lib, g'azal quyidagicha boshlangan:

Noumedi dar tamoshogohi ibrat motam ast,
Har qadar besh ast sa'yi matlabi irfon, kam ast.

Bundan tashqari "Namunayi adabiyoti tojik" kitobida shoir Siddiqiy-Ajziy qalamiga tegishli fors tilidagi 3 ta ruboiy ham keltirilgan. Bu ruboiylar shoirni

⁸¹ Айний С. Намунаи адабиёти тожик. – Москва: Чопхонаи нашриёти марказии халқи Иттиҳоди жамоҳири шўравии сўсиёлисти, 1926, С.545.

“Anjumani arvoh” asari tufayli kofirga chiqarganlar uchun javob tariqasida yozilgan. Biz ruboiylardan birini keltiramiz:

Kufram ba dahoni xalq zohir nashavd,
Kofirkuni man ajab, ki kofir nashavad.
Man hamchu mukaffiron musulmon nashavam,
To hamchu man on jamo‘a kofir nashavad.
*(Kofir deb atalдим, lekin xalq meni kofir deb bilmadi,
Meni kofir deyishdi, lekin men kofir bo‘lib qolmadim.
Meni kofir deb atagan jamoa men singari kofir emas ekan,
Men ham kofirligiga tavon to‘lovchi musulmon emas).*

Shuningdek, kitobda shoirning “Anjumani arvoh” asaridan ham 16 misra keltiriladi va bu manzuma haqida shunday ma’lumot beradi: “Anjumani arvoh” dar 22 sahifa ba soli 1331 hijriy dar Tiflis az tarafi Shakuriy Samarqandiy nashr shudaast”⁸² (“Anjumani arvoh” hijriy 1331 yilda Tiflisda Shakuriy Samarqandiy tomonidan 22 sahifada nashr etilgan).

Sadriiddan Ayniyning “Namunayi adabiyoti tojik” kitobi XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Buxoro va Samarqanddan yetishib chiqqan ma’rifatparvarlarning ijodi haqida ma’lumot beruvchi muhim manba bo‘lishi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, shoir Siddiqiy-Ajziy asarlari uchun ham asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida saqlanayotgan 555/III raqamli toshbosmada ham Siddiqiy-Ajziy ijodidan namunalarni ko‘rish mumkin. Bu toshbosma manba Ibrat, Siddiqiy, Xislat, Tavallo, Abdulla Avloniy she’laridan tuzilgan majmuadir.

Siddiqiy-Ajziy “Sadoyi Turkiston” gazetasining bir yilligi munosabati bilan “Tabrik” she’rini yozadi. Bu she’r g‘azal shaklida yozilgan bo‘lib, 12 baytdan iborat. G‘azalning matla’si quyidagicha:

Mujda, ey toleyi mas’ud o‘lan ahli zamon,
Chekmish ovozi tamaddun-la “Sadoyi Turkiston”.

⁸² Ko‘rsatilgan manba. – B.545.

Bu gʻazal dastlab 1914-yil 25-aprelda “Sadoyi Turkiston” gazetasida bosilgan. Keyinchalik yuqorida qayd etilgan majmuaga ham kiritilgan.

4. XX asr boshlaridagi matbuot nashrlari.

Siddiqiy-Ajziyning “Aynu-l-adab” (“Odoblar bulogʻi”) va “Ganjinayi hikmat” (“Hikmatlar xazinasi”) toʻplamiga kiritilmagan sheʼrlarini XX asr boshlarida Turkiston, Gruziya, Ozarbayjon va Turkiyada nashr etilgan matbuot sahifalarida uchratish mumkinligi haqida maʼlumotlar mavjud. Biroq biz shoirning Turkiston matbuotida nashr etilgan asarlarini topib oʻrganishga harakat qildik.

Siddiqiy-Ajziy “Oyna” jurnalida “Dar javob takfir kunandagon” sarlavhasi bilan 4 ta ruboiy, 20 misradan iborat “Yo Rab” sarlavhali muxammasini, “Nadur yo Rab...”, “Navla rahm etsa...” va “Diydayi gʻaflat uyondi...” deb boshlanuvchi hamda “Bu” radifli gʻazallarini, shuningdek, 35 misrali “Faxriya” va 8 misrali “Ismoilbek hazratlari yodigʻa” sarlavhali sheʼrlarini nashr ettirgan. Bu sheʼrlarning dastlabki baytlari “Oyna” jurnalida quyidagicha keltiriladi:

1. “در جواب تکفیر کننده کان” (“Dar javob takfir kunandagon”) sarlavhasi bilan bosilgan 4 ta ruboiydan birinchisining boshlanish bayti:

کفرم بدحانی خلق ظاھر نشود
کافر کن من عجیبی کافر نشود⁸³

Bu ruboiylar shoirning “Aynu-l-adab” kitobida (32 – 33-betlar) ham berilgan.

2. 20 misradan iborat “یا رب” (“Yo Rab”) sarlavhali muxammasining boshlanish bayti:

یا رب ایشیت بو خسته دلیمنی نواسینی
کیم سندن اوزکا چاره ایدر مدعاسینی⁸⁴

Bu muxammas “Aynu-l-adab” kitobida (25-bet) ham “نظیره” (“Nazira”) sarlavhasi bilan berilgan.

3. “ندور یا رب...” (“Nadur yo Rab...”) deb boshlanuvchi 7 baytli gʻazalining matlaʼsi quyidagicha:

⁸³ Ажзий. Дар жавоб такфир кунандагон // Ойна. 1914. №16. – Б.276.

⁸⁴ Ажзий. Ё Раб // Ойна. 1914. №33. – Б.792.

ندور يا رب بو كريان چشمه خونباريم تمناسي

بنی غرق بلا طوفانی ایتمیشدور بو دریاسی⁸⁵

Bu g‘azal “Aynu-l-adab” kitobida ham (24-bet) berilgan.

4. “نوله رحم ایتسا...” (“Navla rahm etsa...”) deb boshlanuvchi 9 baytli g‘azalining matla’si quyidagicha:

نوله رحم ایتسا فلک بن کبی بیمارلره

دشت حرمانیله غم داغیده افکارلره⁸⁶

Bu g‘azal “Aynu-l-adab” kitobida (23 – 24-betlar) ham berilgan.

5. “دیده غفلت اویندی...” (“Diydayi g‘aflat uyondi...”) deb boshlanuvchi 15 baytli g‘azalining matla’si quyidagicha:

دیده غفلت اویندی محو اولوب بیدارلیق

سینه عمانینی ویران ایتدی بدکردارلیق⁸⁷

Bu g‘azal “Aynu-l-adab” kitobida ham (18 – 19-betlar) berilgan.

6. “بو” “Bu” radifli 7 baytli g‘azalining matla’si quyidagicha:

کورنده لاله یفراغین کمان ایتماک چمندور بو

لیسان حال حرفی درسی عبرت انجمندور بو⁸⁸

Bu g‘azal “Aynu-l-adab” kitobida (22 – 23-betlar) ham berilgan.

7. “فخریه” (“Faxriya”) nomli 7 bandli 35 misrali muxammasining dastlabki bayti quyidagicha:

یزده بنگ دورلو حنر انواع حکمت واردور

بنگ چشید تدبیرو یوز بنگ رنگ صنعت واردور⁸⁹

Bu muxammas “Aynu-l-adab” kitobida (25-bet) ham berilgan.

8. “اسماعیلیک حضرتلری یادیغه” “Ismoilbek hazratlari yodig‘a” nomli 8 misrali she’rining dastlabki bayti quyidagicha:

اجرا ایدن وظیفه سین الله لسان ایله

نشر ایتی خلقه مو عظه سین ترجمان ایله⁹⁰

⁸⁵ Ажзий. Надур ё Раб... // Ойна. 1914. №37. – Б.886.

⁸⁶ Ажзий. Навла раҳм этса... // Ойна. 1914. №38. – Б.905.

⁸⁷ Ажзий. Дийдайи ғафлат уёнди... // Ойна. 1914. №40. – Б.955.

⁸⁸ Ажзий. Бу // Ойна. 1914. №39. – Б.932.

⁸⁹ Сиддиқий. Фахрия // 1914. №41. – Б.978-979.

⁹⁰ Сиддиқий. Исмоилбек ҳазратлари ёдиға // Ойна. 1914. №51. – Б.1228.

Bu she'r aslida shoirning "Ganjinayi hikmat" nomli forsha she'rlar majmuasida (29 – 33-betlar) 13 bandli 104 misrali tarje'band shaklida yozilgan bo'lib, jurnalda tarje'bandning ikkinchi bandi "Ismoilbek hazratlari yodig'a" sarlavhasi bilan berilgan (*Tarje'bandning tushirib qoldirilgan bandlari va matniy tafovutlari haqida ishimizning II bob 1-faslida ma'lumotlar beramiz – T.Sh*).

"Orzu yoki xayol"⁹¹, "Juvonbozlik taraqqiyda yoxud juvonbozlikni kim man etar"⁹² va "Turkistonda maktab, jarida va ulamo"⁹³ maqolalari ham "Oyna" jurnalidan o'rin olgan.

"Turkistonda maktab, jarida va ulamo" maqolasini "Orzu yoki xayol" maqolasining mantiqiy davomi deyish mumkin. Har ikkala maqolada Siddiqiy-Ajziyning yuksak orzulari aks etgan: johillik qoralanib, ilm-ma'rifat ulug'lanadi.

"Juvonbozlik taraqqiyda yoxud juvonbozlikni kim man etar" maqolasida juvonfurosh samovarchilar, qartaboz qimorchilar, nos va tamakifuroshlar, bedonafuroshlar, bekor g'iybatchilar tanqid qilinadi va hukumatga murojaat etib, "janobi qozi va amaldorlarg'a buyurub qat'iy sur'atda juvonbozlikni man' qildirishni" so'raydi. Jamiyatdagi bunday illatlarni keyinchalik "Mashrab" jurnalida "Akam bo'lasiz!" maqolasida ham tanqid qilib chiqadi⁹⁴.

Siddiqiy-Ajziyning "Oyna" jurnalida 133 misra she'ri nashr etilgan bo'lib, bu she'rlariga Ajziy taxallusi qo'llangan. Bu jurnalda chop etilgan maqolalariga "Gumnom", "Siddiqiy" taxalluslarini qo'llagan⁹⁵.

Shoirning 1925-yilda "Mashrab" jurnalida "Ekin yerlaring dard-u hasrati", "Boshimdan o'tganlar", "Chervon", "Nima lozim", "Mashrab haqida", "Tabrik", "Munojot", "Yashilcha", "Barakallo", "Tilak", "Ligo nosi"ga tavsiya" va 1926-yilda esa "Dehqon maqomida nag'ma", "Keldik", "Chin va yolg'on ziyolilar", "O'zi anglovchiga", "Inchunin boyad", "Ulamolar" she'rlari bosilgan. Bu she'rlarning dastlabki juft misralari "Mashrab" jurnalida quyidagicha keltirilgan:

⁹¹ Гумном. Орзу ёки хаёл // Ойна. 1914. №34. – Б.819.

⁹² Гумном. Жувонбозлик тараққийда ёхуд жувонбозликни ким ман этар // Ойна. 1914. №38. – Б.916-917.

⁹³ Сиддиқий. Туркистонда мактаб, жариди ва уламо // Ойна. 1914. №44. – Б.155-158.

⁹⁴ Майна. Акам бўласиз // Машраб. 1926. №24-25. – Б.11.

⁹⁵ Qarang: "Oyna" jurnali 1914 yil 16-,33-34-,37-41-,44-,51-sonlar.

1. “Ekin yerlaring dard-u hasrati”) nomli she’rining dastlabki juft misrasi:

حوت آیی کیرب یه نگی هه والار یه نه چقدی
دیھقان دیگه ن اول ایسکی به لالار یه نه چقدی⁹⁶

2. “Boshimdan o’tganlar”) nomli she’rining dastlabki bayti:

یا دوستلار بوراده رله ر قولاق سالگ!
کوپ قاتاری بو دونیاغا کیلدم مه نا⁹⁷

3. “Chervon”) nomli she’rining dastlabki bayti:

چیروانسه ن، چیروانسه ن ایشگدر نه یره گ
آخر بزنی عاشق ایته رسه ن چیروان⁹⁸

4. “Nima lozim”) nomli she’rining dastlabki bayti:

ای مه ردومی چه یره ت زه ده، چه یران نیمه لازم
دوشوار بر نش بار ئیسه، آسان نیمه لازم⁹⁹

5. “Mashrab haqida”) nomli she’rining dastlabki bayti:

"مه شره ب" دیگه ن ئه فسانه چیده ن ایندی سورنگ گه ب
آنگ آتی مه شره ب
دیوانه بی هوشیار، سوزی گه ه ئوگو - گه ه چه ب
که وله ب سوره که وله ب¹⁰⁰

6. “Tabrik”) nomli she’rining dastlabki bayti:

"مه شره ب" بابا چه بیته ر، بولسون سه نگا موبار هک
بو یه نگی راماندا، یه نگی عه سا موبار هک¹⁰¹

7. “Munojot”) nomli she’rining dastlabki bayti:

قاییسی بر نیعمه تلهرگنگ شوکرینی به رجا قیلای
ره حمه تگ شوکر انهسین چاغر ایچب هه رجا قیلای¹⁰²

⁹⁶ Шашпар. Экин ерларинг дарду ҳасрати // Машраб. 1925. №18.

⁹⁷ Шашпар. Бошимдан ўтганлар // Машраб. 1925. №19. – Б.3.

⁹⁸ Шашпар. Червон // Машраб. 1925. №21. – Б.6.

⁹⁹ Олмос. Нима лозим? // Машраб. 1925. №22. – Б.6.

¹⁰⁰ Олмос. “Машраб” ҳақида // 1925. №24-25. – Б.4.

¹⁰¹ Шашпар. Табрик // Машраб. 1925. №24-25 (“Машраб ҳақида”, “Табрик” шеърлари “Машраб” журналининг бир йиллик юбилейи муносабати билан ёзилган).

¹⁰² Майна. Мунужот // Машраб. 1925. №26. – Б.6.

8. “Yashilcha”) nomli she’rining dastlabki bayti:

موناچات ئه يله دى مسكين زور ئه حمه ت
ديدى ياراب كتاب ئه يتشنى توقتات¹⁰³

9. “Barakallo”) nomli she’rining dastlabki bayti:

"مه شره ب" سزنگ ئوز كزگه به ره كه للا
جورندا يازغان سوزكزگه به ره كه للا¹⁰⁴

10. “Tilak”) nomli she’rining dastlabki bayti:

أى خودا، تاغلارنى آلب بيريگه تاشلاچى
كويدي ياندى "لارد" وه "بارون" بر قيايمه ت باشلاچى¹⁰⁵

11. “Ligo nosi”) nomli she’rining dastlabki bayti:

جيم اوتورمه جالادگه منده د بير
كته سن، مقصدينگى انگلات، بير¹⁰⁶

12. “Dehqon maqomida nag‘ma”) nomli she’rining dastlabki bayti:

ئورتاقلارم بارمى نه زه ر بزنى تامانغا
كوندييك كوزگز، برديك ايمه س ياخشى – يامانغا¹⁰⁷

13. “Keldik”) nomli she’rining dastlabki bandi:

بو دونياغا كيلشده گول بولب غونچا آتب كيلدك
آچلمسدان يوموق حالدا خور افاتگه باتب كيلدك¹⁰⁸
بوكون سزده ن آچارمه ن داستانستان زيباليه ر
ايورور مومتاز مهدحمده ن هه مه يالغان زيباليه ر¹⁰⁹

15. “O‘zi anglovchiga”) nomli she’rining dastlabki bayti:

بو كون اى جوره لر من بير تتريق ايشلاشنى اورگنديم
بيراو اوييگه بير كيرگنده بير قيشلاشنى اورگنديم¹¹⁰

¹⁰³ Майна. Яшилча // Машраб. 1925. №27. – Б.4.

¹⁰⁴ Гина-Гина. Баракалло // Машраб. 1925. №28. – Б.4.

¹⁰⁵ Майна. Тилак // Машраб. 1925. №30. – Б.6.

¹⁰⁶ Майна. “Лиго носи”га тавсия // Машраб. 1925. №32. – Б.6.

¹⁰⁷ Шашпар. Деҳқон мақомида нағма // Машраб. 1926. №17. – Б.3.

¹⁰⁸ Майна. Келдик // Машраб. 1926. №35. – Б.4.

¹⁰⁹ Гина-Гина. Чин ва ёлғон зиёлилар // Машраб. 1926. №35. – Б.4.

¹¹⁰ Олмос. Ўзи англовичига // Машраб. 1926. №36. – Б.4.

16. “اینچنین باید” (“Inchunin boyad”) nomli she’rining dastlabki bayti:

كوزومگه اوجره دى ناكاه بىر اشعار اینچنین باید

من ایتدیم اونگه تحسین یله تکرار اینچنین باید¹¹¹

17. “علمالر” (“Ulamolar”) nomli she’rining dastlabki bayti:

شكر ایندی چیقپ فالدی مسلمان علمالر

اولده ایدی برچه سی نادان علمالر¹¹²

“Mashrab” jurnalida shoirning 269 misra she’ri “Shashpar” taxallusi bilan, 116 misra she’ri “Mayna” taxallusi bilan, 110 misra she’ri “Gina-Gina” taxallusi bilan, 104 misra she’ri “Olmos” taxallusi bilan bosilgan. Shuningdek, bu jurnalda 1924-yil Sayidahmadxo‘ja Siddiqiy-Ajziyning “Shohizinda shayxining karomati” hikoyasi “Nayza” taxallusi bilan nashr etilgan¹¹³.

“Mulla Mushfiqiy” jurnalida Siddiqiy-Ajziyning 15 ta chistoni “Gumnom” taxallusi bilan bosilgan. Bu chistonlar fors-tojik tilida yozilgan bo‘lib, 52 misrani tashkil etadi.

Sayidahmadxo‘ja Siddiqiy-Ajziy publitsist sifatida “Hurriyat” gazetasida 1917- yilning fevral va oktyabr oylari davomida ketma-ket 10 ta publitsistik maqola nashr ettirdi. Uning barcha maqolalari ochlik va ocharchilik mavzusiga bag‘ishlangan edi. Jumladan, mazkur nashrda Siddiqiy-Ajziyning “Dehqonchilik ekinlari jon ekanmi, yo‘qmi?”¹¹⁴ “Taajjub so‘z”¹¹⁵, “Yo‘l bo‘lsin, qayerga boryapsiz?”¹¹⁶ “Samarqandda musulmon komissar”¹¹⁷, “Sholi ekishning ahamiyati”¹¹⁸ kabilar.

Sayidahmadxo‘ja Siddiqiy-Ajziy tarjimonlik faoliyati bilan ham shug‘ullangan va u N.V.Gogol qalamiga mansub “Shinel” qissasini birinchi bo‘lib o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Bu tarjima “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalining 1926 yil 1 – 3-sonlarida bosilgan.

¹¹¹ Шашпар. Инчунин бояд // Машраб. 1926. №37. – Б.3.

¹¹² Гина-Гина. Уламолар // Машраб. 1926. №38. – Б.4.

¹¹³ Найза. Шоҳизинда шайхнинг каромати // Машраб. 1924. №12. – Б.6.

¹¹⁴ Сиддиқий. Деҳқончилик экинлари жон эканми, йўқми? // Ҳуррият. 1917 йил 11 май.

¹¹⁵ Сиддиқий. Таажжуб сўз // Ҳуррият. 1917 йил 15 июль.

¹¹⁶ Сиддиқий. Йўл бўлсин, қаерга боряпсиз? // Ҳуррият. 1917 йил 15 июль.

¹¹⁷ Сиддиқий. Самарқандда мусулмон комиссар. // Ҳуррият. 1917 йил 18 июль.

¹¹⁸ Сиддиқий. Шоли экишнинг аҳамияти // Ҳуррият. 1917 йил 23 август.

Mazkur qissa 1908-1910-yillarda tarjima qilingan bo'lishiga qaramay, Siddiqiy-Ajziy chor senzurası ruxsat bermaganligi sababli matbuotda e'lon qila olmagan. Tarjimada asarning ko'pgina o'rinlari tushib qolgan bo'lsa-da, asarning mazmuni to'la saqlangan. Akakiy Akakiyevich obrazi va u kabi oddiy, mayda chinovnikning qotili bo'lgan mavjud tuzumning ayanchli manzarasi o'quvchiga yetkazib berilgan.

Qahramon portretini jonli aks ettirish asar qahramonini haqqoniy tasvirlashning asosiy shartlaridan biri ekanligini his etgan tarjimon tarjimada bunga to'la erishgan. Akakiy Akakiyevichning xatti-harakatlarini va boshqa obrazlarning unga munosabatini to'g'ri aks ettirish asar qahramonining xarakter xususiyatlarini to'liq ochib berishga yordam bergan. Tarjimon bu borada tarjimani muvaffaqiyatli amalga oshirgan:

“Yosh chinovniklar unga kinoya va nuktalar bilan tamasxur qilib idora ruhining bardoshtig'a ko'ra unga mutoyibalar qilar edilar. O'z oldiga uning tarjumoyi ahvolidan va 70 yashar xotunidan hikoyalar boshlar va unga: “Sizning xotuningiz urar ekan”, “Siz qachon to'y bo'lasiz?”, – deb boshidan qog'oz parchalarini sochib, “qor yog'di boshingizga...” kabi so'zlar aytar edilar. Ul esa bunga qarshi biror og'iz so'z so'ylamasdan, oldida biror kishi bo'lmog'ondek o'lturar”.

Shuningdek, tarjimada ikki xil qarama-qarshi qarashga ega bo'lgan, ikki xil qahramonning xarakter xususiyatlari general va Akakiy Akakiyevichning uchrashuvi jarayonida juda yorqin va ta'sirli tasvirlanadi:

“Jasorat qildim taqdir, zero kotiblar yana ul... mu'tamad kishilar emaslar...” dedi. Bunga general “Nima, nima, siz qayerdan bu so'zni o'rgandingiz? Qayerdan bu jasoratni oldingiz? Hokimlarga yosh kimsalarning ishlari nima?” deb qizidi. Faqat Akakiyni yosh atadig'i holda uning 50 yoshi borlig'ini esiga keltirmagan, o'ylamagan edi. Voqe'an Akakiy 70 yoshar bir qarining nazarida yosh sanalsa ham ajab emas edi. General yana Akakiyning ustiga qichqira boshladi. Hatto tovushi shu qadar ko'tarildiki, boshqalar ham xavflandilar. Bu holda Akakiy tik turolmay yiqilish darajasiga yetgan edi”.

Asarda Akakiy Akakiyevich zamonaviy voqelik, shafqatsiz sharoitning fojiali qurboniga aylangan. Baxtsiz Bashmakchinning kamtarligidan va “katta odamlar”ning qo‘polligidan nafaqat insonning xo‘rlanishi, balki bunday xo‘rlash mumkin bo‘lgan adolatsiz jamiyatga qarshi muallifning norozilik namoyishi edi.

“Shinel” asari tarjimasining tili Siddiqiy-Ajziy lirikasining tiliga qaraganda ancha sodda va ravon. Tarjimada arabcha-forscha so‘zlar ham kam qo‘llangan.

Gogolning Sayidahmadxo‘ja Siddiqiy-Ajziy tarjimasidagi “Shinel” qissasi mutolaasi o‘quvchilarda qo‘pol va mehirsiz kishilarga nisbatan nafrat tuyg‘usini uyg‘otadi. O‘quvchilarga xushmuomala, g‘amxo‘r va mehribon bo‘lishni uqtiradi. Shuningdek, yordamga muhtoj kishilarga ko‘maklashish lozimligini ta’kidlaydi.

5. XX asrning ikkinchi yarmidan keyingi vaqtli matbuot nashrlari.

XX asrning 30-yillaridan to 60-yillarga qadar Sayidahmadxo‘ja Siddiqiy-Ajziy nomi O‘zbekistonda tilga olinmadi. Biroq Tojikistonda Z.Sh.Rajabov, I.S.Braginskiy, A.M.Bahouddinov kabi olimlarning tadqiqotlarida shoirning hayoti va ijodiga doir talay ma’lumotlar, fikr-mulohazalar uchraydi. 1962-yilda Toshkentda dushanbelik Rustam Aslonov “Мировоззрение Саид Ахмеда Сиддики” mavzusida falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya yoqladi. Ana shundan keyin O‘zbekistonda ham ayrim maqolalar paydo bo‘la boshladi. Dastlab 1962-yil professor Begali Qosimovning “Siddiqiyning adabiy merosi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishidan so‘ng o‘zbek adabiyotshunosligida Sayidahmadxo‘ja Siddiqiy-Ajziy hayoti va ijodini o‘rganish boshlandi. Begali Qosimov 1973-yilda Siddiqiy-Ajziy “Tanlangan asarlar”ini ixchamgina bir to‘plam holda nashr ettirdi¹¹⁹. Bu to‘plamga shoirning turli janrlardagi 715 misra she’ri va qisqartirilgan (526 misra) holda (aslida doston 824 misrani tashkil etadi) “Mir’oti ibrat” dostoni kiritilgan.

Begali Qosimovning 1987-yil aprel oyi oxirlarida Siddiqiy-Ajziyning tug‘ilib o‘sgan qishlog‘i Holvoyiga qilgan safari Siddiqiy-Ajziy haqidagi ma’lumotlarning kengayishiga sabab bo‘ldi. Olim shoir hayoti haqida “Shoir

¹¹⁹ Сиддиқий-Ажзий. Танланган асарлар / Сўзбоши ва наширга тайёрловчи: Б. Қосимов. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. – 77 б.

xotirasini izlab” maqolasida batafsil to‘xtalغان. 1999-yilda “Istiqlol qahramonlari” rukni ostida Ibrat, Siddiqiy-Ajziy, So‘fizoda “Tanlangan asarlar”i “Ma’naviyat” nashriyotida bosilib chiqdi¹²⁰. “Ushbu nashrga shoirning 1973-yilda bosilib chiqqan “Tanlangan asarlar”i asos qilib olindi. Ayni paytda “Aynu-l-adab”, “Ganjinayi hikmat” she’riy to‘plamlari, “Mir’oti ibrat” dostoni hamda mahalliy matbuotda e’lon qilingan asarlaridan olingan namunalar bilan to’ldirildi”¹²¹.

Mazkur to‘plamga shoirning turli janrlardagi 926 misra o‘zbekcha she’ri, 84 misra tojikcha she’ri tarjimai bilan berilgan. Shuningdek, to‘plamdan shoirning “Mir’oti ibrat” dostoni, “Shohizinda shayxining karomati” voqeyiy hikoyasi, “Turkistonda maktab, jarida va ulamo”, “Orzu yoki xayol”, “Juvonbozlik taraqqiyda” maqolalari, Siddiqiy-Ajziy tarjima qilgan N.V.Gogolning “Shinel” qissasidan parcha o‘rin olgan (*To‘plamga kiritilgan asarlarning matniy tafovutlari haqida dissertatsiyamizning 2-bobida ma’lumotlar beriladi – T.Sh*).

Yetuk san’atshunos va jadidshunos olim Sirojiddin Ahmad Sayidahmadxo’ja Siddiqiy-Ajziyning “Tashakkur va rijo” nomli har bir bandi 8 misradan iborat 13 bandli she’rini “Sho’ro” jurnalining 1913-yil 1-iyul 13-sonidan olib tabdil qilib izohlar bilan nashrga tayyorlagan. Biroq she’r misralaridagi ba’zi so‘zlar tushirib qoldirilgan va nuqtalar qo‘yib ketilgan. Ushbu she’r quyidagi bandlar bilan boshlangan:

Ey millati jalilayi islom otalari,
Irfon ko‘ginda har biri bir mehr xovari.
Anvori ittifoq, taraqqiy ziyolilari,
Dini matin muravvaji shar’i oshnolari.
Islom ko‘zgusini jilo-u safolari,
Yo‘ldan kanor o‘lanlari, bir rahnamolari.
Al haqqi Nabiy varosatidin bahramandlar,
Dunyoda, oxiratda o‘lan arjumandlar.

¹²⁰ Ибрат, Сиддиқий-Ажзий, Сўфизода. Танланган асарлар / Тўпловчи, нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифлари: Б.Қосимов, С.Ахмедов, У.Долимов. – Т.: Маънавият, 1999. – 232 б.

¹²¹ Ko‘rsatilgan manba. – B.131.

(She'rdagi matniy tafovutlar haqida dissertatsiyamizning 2-bobida ma'lumotlar beriladi – T.Sh).

Siddiqiy-Ajziy ijodida xalqni rivojlangan jahon mamlakatlari madaniyatini o'rganishga ochiqchasiga da'vat etgan o'zbek ma'rifatparvaridir. U yangi Yevropa madaniyati, ilmi va yutuqlarining tarafdori bo'lib, yangi maktablar va matbuotni rivojlantirishni muhim deb hisoblardi. Uning barcha asarlarida xalqni ilm-u irfon o'rganishga chorlash asosiy o'rin tutadi.

Xullas, Sayiahmadxo'ja Siddiqiy-Ajziy asarlari manbalarini ilmiy tekshirish, shoir asarlarining qiyosiy-matniy tadqiqini matnshunoslik va adabiy manbashunoslikning so'nggi yutuqlari asosida amalga oshirish adabiyot tarixidagi bo'shliqni to'ldirishi bilan dolzarbdir.

I bob bo'yicha xulosalar:

1. Siddiqiy-Ajziy biografiasiga oid ilk ma'lumotlar shoir zamondoshlari tomonidan yaratilgan asarlarda uchraydi. Jumladan, Vadud Mahmudning "Turk shoiri Ajziy", Rahim Hoshim (Tursunqul)ning "Siddiqiy to'g'risida mulohazalar" maqolalarida hamda Sadridin Ayniyning "Namunayi adabiyoti tojik" va Muhammadjon Shakuriyning "Nigohe ba adabiyoti tojikii sadai bist" kitoblarida keltirilgan aniq dalillar shoirning zamondoshlari xotirasi sifatida qimmatlidir.

2. Shoir biografiasini tiklashda fanga ma'lum bo'lmagan manba – oila shajarasi, oilaviy muhiti, taxallusi (Muqallid), Siddiqiy-Ajziyning davr ijodkorlari bilan adabiy aloqalari (Mahmudxo'ja Behbudiy, Sadridin Ayniy, Abduqodir Shakuriy, Toshxo'ja Asiriy) ishda ilk marta yoritildi.

3. Siddiqiy-Ajziyning pedagogik faoliyati bilan bog'liq masalalarga O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan manbalar asosida aniqlik kiritildi. Jumladan, Siddiqiy-Ajziyning 1911-yil 15-iyulda o'qituvchilik lavozimidan ozod etish to'g'risidagi yozgan arizasi buning isbotidir.

4. Ijodkor adabiy merosi manbalari Siddiqiy-Ajziyning zamondoshlari tomonidan tuzilgan tazkiralari; shoirning o'zi nashr ettirgan toshbosma kitoblari; XX asr boshlaridagi darslik va majmualar; XX asr boshlaridagi matbuot nashrlari; XX asrning ikkinchi yarmidan keyingi vaqtli matbuot nashrlari tarzda tasnif

qilindi. Mazkur manbalarning qiyosiy-matniy tadqiqi natijasida tushirib qoldirilgan 26 misra, shuningdek, yangi aniqlangan 500 misraga yaqin turli janrlardagi she'rlar hamda 5 ta publitsistik maqola va Gogolning "Shinel" qissasi tarjimasi ilk manbalar asosida tiklangan.

5. Siddiqiy-Ajziy ijodi manbalarining tavsifi ilk marta amalga oshirildi. Ijodkor asarlarining janri va mavzu ko'lami, nazmiy asarlarining umumiy hajmi 3890 misra, shundan fors-tojikcha she'rlari 1550 misrani tashkil etishi aniqlangan.

II BOB. SHOIR ASARLARINING QIYOSIY-MATNIY TADQIQI

2.1. Shoir lirik she'rlari: asliyat va tabdil qiyosi

Siddiqiy-Ajziyning hayoti va ijodi bo'yicha bizda bir muncha tadqiqotlar amalga oshirilgan¹²². Bu ishlar shoirning ijodkor va shaxs sifatidagi qiyofasini anchagina yoritib beradi. Uning ijod namunalari ham to'liq bo'lmasa-da, nashr etilib, xalqqa to'plam holda taqdim etilgan. To'plamda Siddiqiy-Ajziyning turli janrlarda har xil mavzularda yozilgan asarlaridan namunalari – g'azal, muxammas, tarkibbandlari, hajviy she'rlari, chistonlari, “Mir'oti ibrat” (“Ibrat oynasi”) dostoni, ijtimoiy mavzudagi publitsistik maqolalari va rus yozuvchisi N.V.Gogolning “Shinel” asari tarjimasidan parcha berilgan. Asarlarning mavzu doirasidan Siddiqiy-Ajziyning tafakkur qamrovi qanchalik kengligini va ijtimoiy faolligi yuqori bo'lganini payqash mumkin. Biz mazkur to'plamdagi she'rlarning matniy tadqiqiga diqqatni jalb etmoqchimiz. Dissertatsiyada Siddiqiy-Ajziy asarlarini qiyosiy-matniy o'rganishda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyoti muzeyi fondidagi 254-inventar raqamli “Aynu-l-adab” asarining toshbosma nusxasini (Siddiqiy-Ajziy asarlarining qo'lyozmalari saqlanib qolmaganligi uchun shoir asarlarining toshbosma nusxalarini birlamchi manba sifatida olindi) shartli ravishda “A” manba, Siddiqiy-Ajziy “Tanlangan asarlar”ining 1999-yil nashrini “B” manba va 1973-yil nashrini “D” manba sifatida belgiladik.

Siddiqiy-Ajziyning o'zbek tilidagi “Aynu-l-adab” she'riy majmuasini, fors-tojik tilidagi “Ganjinayi hikmat” she'riy to'plamidagi o'zbek she'rlarini va XX asr boshlarida matbuot nashrlarida bosilgan she'rlarini joriy nashr nusxalari bilan matniy-qiyosiy tahlil qilganimizda shoir she'rlaridagi ko'plab matniy tafovutlarning mavjudligi va 500 misraga yaqin turli janrlardagi yangi she'rlari aniqlandi. Biz bu tadqiqotimizni quyidagicha tasnifladik:

1. Xato o'qilgan so'zlar.

¹²² Маҳмуд В. Турк шоири Ажзий // Инқилоб. 1924. №12; Сиддиқий А. Танланган асарлар / Нашрга тайёрловчи: Б.Қосимов. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. – 77 б.; Ибрат, Сиддиқий-Ажзий, Сўфизода. Танланган асарлар / Тўпловчи, нашрга тайёрловчи, сўзбоши, луғат муаллифлари: Б.Қосимов, С.Ахмедов, У.Долимов. – Т.: Маънавият, 1999. – 232 б.

2. Aralash-qorishiq nuqsonlar (xato o‘qilgan so‘zlar va o‘rni almashgan misralar, tushirib qoldirilgan so‘zlar va misralar).

3. Yangi topilgan she‘rlar.

1. Xato o‘qilgan so‘zlar. Siddiqiy-Ajziy she‘rlarining xato o‘qilishi, avvalo, shoirning “Aynu-l-adab” asarining toshbosma nusxasini tayyorlagan kotib Muhammad Yusuf Samarqandiy ba‘zi so‘zlarni xato yozgan va keyin kitob oxirida ba‘zi xato yozilgan so‘zlarning to‘g‘rilangan jadvalini bergan.


خط	صواب	صحیح	خط	صحیح
اسرار	اصرار	۱	۵	۳
رطرف	رطرف	۱	۱۱	۶
کلمه گزینش	کلمه گزینش	۲	۶	۵
امروز و جدان	امروز و جدان	۱	۵	۱۰
اویماچ	اویماچ	۱	۶	۱۱
صغینک	صغینک	۱	۱	۱۲
بیک زنجیره	بیک زنجیره	۲	۶	۱۸
دورنده	دورنده	۲	۱۵	۱۸
انصافدن	انصافدن	۱	۶	۲۵
طیبدم	طیبدم	۱	۸	۳۶

Ikkinchidan, Siddiqiy-Ajziy asarlarining tabdilini amalga oshirgan professor Begali Qosimovning dastlabki izlanishlari natijasi bo‘lib, olimning yetuklik paytida bu nashr amalga oshirilmaganidan darak beradi. Siddiqiy-Ajziy “Tanlangan asarlar”ida¹²³ xato o‘qilgan so‘zlarga e‘tibor qaratamiz. Jumladan, “Etmish” radifli g‘azalining matla’si joriy nashrda quyidagicha berilgan:

G‘amingdin osmon *behad zamirin* to hilol etmish,

Sango ta’zim edub zotingo isbot kamol etmish¹²⁴.

Toshbosmada esa quyidagicha yozilgan:



¹²³ Ибрат, Сиддиқий-Ажзий, Сўфизода. Танланган асарлар / Тўпловчи, нашрга тайёрловчи, сўзбоши, луғат муаллифлари: Б. Қосимов, С. Ахмедов, У. Долимов. – Т.: Маънавият, 1999. – 232 б.; Сиддиқий А. Танланган асарлар. / Нашрга тайёрловчи: Б.Қосимов. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1973. – 77 б.

¹²⁴ “В” manba. – В.132.

Nashrdagi variantda birinchi misradan to‘g‘ri ma‘no chiqarishning iloji yo‘q. Toshbosmaga (bu o‘rinda asliyatga) murojaat qilinmasa, mazmuni anglash uchun turli asosli va asossiz ehtimollarni ilgari surishga to‘g‘ri keladi. Toshbosmaga qaralganda, “*behad zamirin*” birikmasining aslida “*badri munirin*” ekani ma‘lum bo‘lgach, bayt mazmuni aniq-tiniq holda ochiladi: “G‘amingdin osmon o‘zining to‘lin oyi (badri muniri)ni hilolga aylantirdi. (Shu hilol) Senga (ya‘ni Ollohga) ta‘zim etib, zotingning kamolotini tasdiqladi”.

Toshbosmadagi bayt aslida quyidagicha tabdil qilinmog‘i kerak edi:

G‘amingdin osmon *badri munirin* to hilol etmish,

Sango ta‘zim edub, zotingo isbot kamol etmish.

Ma‘lumki, “*badr*” deb oyning eng to‘lin, “*hilol*” deb esa uning eng ingichka (dastlabki uch kunlik) yangi holatiga aytiladi. Mana shu ikki holatni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yib, shoir Xudoga sano aytishda undan ustalik bilan foydalangan. G‘amdan ozib ketish insonga xos xususiyat. Mana shu xususiyatni shoir oyga nisbat beryapti va “Sening g‘amingdan to‘lin oy ozib, hilolga aylandi” deyapti. Oyning hilollik holati esa to‘linlik holatidan ko‘ra go‘zalroqdir. Bu go‘zallikka u Ollohning g‘amini chekkanidan so‘ng erishdi. Bu g‘am uning chiroyiga chiroy qo‘shdi. Sulaymon Boqirg‘oniyning “Sening darding bango darmondan ortuq...”¹²⁵ deb aytganidek, g‘am insonning qalbini g‘aflatdan uyg‘otadi va vujudini poklaydi. Mana shunday xususiyatni shoir oyga nisbat berib, jonlantiryapti va Yaratuvchining g‘amidan uning hilolga – eng mukammal go‘zallik holiga yetishganini tasvirlayapti. Shoirning noyob badiiy topilmasi matn tabdilidagi xatolik bois mavhum qolgan edi. Matn o‘z holiga tushgach, uning ma‘nosi hilolday go‘zal va tiniq bo‘lib chiqyapti va bu bayt shohbayt maqomidagi bayt ekani ma‘lum bo‘lyapti.

Keyingi baytning nashr varianti:


Vujudung partavidin o‘da yonmish mash‘ali *xodar*,

Ango sayyoradin parvonai oshufta hol etmish.

¹²⁵ Боқирғоний С. Боқирғон китоби / Нашрга тайёрловчилар, сўзбоши ва изоҳ муаллифлари: И.Ҳаққул, С. Рафъиддин. – Т.: Ёзувчи, 1991. – Б.7.

Bu baytda ham birinchi misradagi **“xodar”** so‘zi noto‘g‘ri o‘qilgan. Toshbosmada ushbu so‘z **“xovar”** shaklida yozilgan bo‘lib, **“xovar”** so‘zi forscha **“Sharq”** ma‘nosini anglatadi. She‘r matnidan **“Sening vujudung nuridan Sharq mash‘ali (quyosh) o‘tda yonmish”** mazmunini ifodalaydi.

G‘azalning bu bayti toshbosmada quyidagicha:



Toshbosmadagi bayt aslida quyidagicha tabdil qilinmog‘i kerak edi:

Vujudung partavidin o‘da yonmish mash‘ali **xovar**,

Ango sayyoradin parvonayi oshufta hol etmish.

Bizningcha, bu o‘rinda **“vov”** (و) va **“dol”** (د) harflarining shakliy o‘xshashligi va ularning toshbosmadagi holati tabdil qiluvchini adashtirgan ko‘rinadi.

G‘azalning beshinchi bayti nashrda quyidagicha berilgan:

Mubarrosin xayoli fikru avhomu **tasavvurin**,

Xato qildi ukim sha‘ningda tahdid ehtimol etmish.

Bu holatda bayt ma‘nosini to‘g‘ri chiqarish bir oz qiyinlashishi mumkin.

Toshbosmada esa bayt quyidagicha:



Ko‘rib turganingizdek, nashrdagi **“mubarrosin”** so‘zi **“mubarrosen”** tarzida, **“tasavvurin”** so‘zi **“tasavvurdin”** shaklida asl matnga muvofiq o‘qilishi lozim:

Mubarrosen xayol-u fikr-u avhom-u **tasavvurdin**,

Xato qildi ukim sha‘ningda tahdid ehtimol etmish.


G‘azal, yuqorida aytganimizdek, Ollohga hamd tarzida yozilgan bo‘lib, ushbu baytda ham Yaratuvchi ulug‘lanyapti. Bayt mazmuni: **“Sen (ya‘ni Olloh) insonlarning xayoli, fikri, o‘ylari (“avhom” so‘zi “vahm” so‘zining ko‘pligi bo‘lib, “o‘ylar, xayollar” degan ma‘nolarni ham bildiradi) va tasavvurlaridan poksan (ya‘ni inson tasavvuri Sening ulug‘ligingni qamrab ololmaydi). Kimki “Sening ulug‘ligingda chegara bor” deb o‘ylasa, u, albatta, xato qilgan bo‘ladi. Baytning**

bunday tiniq mazmuni nashrdagi xatolarni asliyatga qiyoslab, to‘g‘ri o‘qilgandan so‘nggina oydinlashyapti.

Tanim, ruhim, irodam, fe‘lim, *ahvolim* erur sandan,

Dagil sansiz ukim vorliqda yo‘xdin intiqol etmish.

Ushbu bayt ham asliyatda quyidagicha:



Baytdagi *“ahvolim”* so‘zi toshbosmada *“aqvolim”* tarzida berilgan.

Bayt mazmuni: “Tanim, ruhim, irodam, fe‘lim (qiladigan ishlarim) va aytadigan so‘zlarim (“aqvol” – “so‘zlar” degan ma‘noda) Sendandir”.


Shu o‘rinda qayd qilib o‘tish lozimki, Siddiqiy-Ajziy asarlarida ozarbayjon va usmonli turk tilining kuchli ta‘siri seziladi. Yuqoridagi baytning ikkinchi misrasida ham shu holat kuzatilgan. Bu o‘rinda *“vorliqda”* yoki *“yo‘xdin”* kabi so‘zlarni ozarbayjoncha moslashtirib qo‘llashning o‘zinigina nazarda tutayotganimiz yo‘q. Ko‘pgina o‘rinlarda gap qurilishi va fikrning bayonida ham ozarbayjon va usmonli turk tilining qurilishi yaqqol bilinadi. “Dagil” so‘zi o‘zbek tilidagi “emas” so‘zining ma‘nosini beradi. Bu so‘z Fuzuliy asarlarida juda ko‘p qo‘llangan. Misradan chiqadigan mazmun quyidagicha: “Yo‘qdan (yo‘qlik olamidanda) borlik olamiga ko‘chiruvchi, ya‘ni yo‘qdan bor qiluvchi Sendan boshqa hech kim emas”.

Yettinchi bayt ham nashrda:

Adadsiz *ta‘n la‘n* har gunda bir sha‘ning *ko‘rib* Ajziy,

Bu mazmunla *umring* dahri har dam o‘zga hol etmish.

Misralardagi *“ta‘n”*, *“la‘n”*, *“umring”* so‘zlari g‘ayri ilmiydir. Agar Toshbosmaga sinchiklab qaralsa, bu so‘zlarning *“sun‘-lan”*, *“amring”* shaklida yozilganligini ilg‘ash mumkin. Shuningdek, nashrdagi *“ko‘rib”* so‘zi ham *“go‘rur”* tarzida yozilganligini ko‘ramiz. Baytning asl varianti quyidagicha:



Ajziy har kuni behisob yaratuvchanligingni, san'atingni – bir ishingni ko'radi. Ya'ni har kuni cheksiz qudratingning guvohi bo'laman, demoqda.

Baytning to'liq mazmunini anglash uchun bu bayt quyidagicha tabdil qilinishi lozim:

Adadsiz *sun'-lan* har gunda bir sha'ning *go'rur* Ajziy,
Bu mazmun ila *amring* dahri har dam o'zga hol etmish.

Bunday elementlar Siddiqiy-Ajziy “Tanlangan asarlar”ida ko'plab uchraydi. Jumladan, “G'alat” radifli g'azalining birinchi va ikkinchi baytlari nashrda quyidagicha:


Vermak ozurdalaring, qalbina ozor, g'alat,
Kina afgori tanim aylamak afgor g'alat.

Saydi bedodam *hamisha jafoya besim alim*,
Kim edar *besim-la be mol kina* takror, g'alat¹²⁶.

Bu o'rinda “kina” (kiyn, kin, kiyna, kina – كين، كينه) forscha “kek”, “o'ch”, “dushmanlik”, “ko'rolmaslik”, “nafrat”; “jang” ma'nolarini anglatadi¹²⁷. “Gunah” (گناه) so'zi esa forscha “gunoh”, “jinoyat”¹²⁸ mazmunida.

Agar bu g'azalning nashr nusxasi bilan toshbosma nusxasi muqoyasa qilinsa, ikkinchi misra boshidagi “*kina*” so'zining “*gunah*” so'zi ekanligi ma'lum bo'ladi. G'azalning uchinchi misrasidagi “*..hamisha jafoya besim alim*” va to'rtinchi misradagi “*..besim-la be mol kina...*” so'z birikmalaridan bayt mazmunini chiqarishning imkoni yo'q. Bu mavhum mazmunni aniqlash uchun birlamchi manbaga murojaat qilamiz.

Birlamchi manbada:



¹²⁶ “B” manba. – B.133.

¹²⁷ Навоий асарлари луғати / Тузувчилар: Шамсиев П., Иброҳимов С. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1972. –Б.168.

¹²⁸ Ko'rsatilgan manba. – B.331.

Qiyoslangan baytlar nuqsonlardan xoli holda tabdil qilinsa, “Jafo chekkanlarning qalbiga ozor berish xato bo‘lganidek, gunoh bilan afgor bo‘lgan (buzilgan) tanimni yana buzish xatodir. Jafo shamshiri bilan so‘yilgan, zulm ko‘rgan ovman. Kimki so‘yilgan narsani qayta so‘yib takror gunoh qilsa, u xatodir”, degan mantiqan sog‘lomlashgan va mazmunan yorqinlashgan quyidagicha bayt hosil bo‘ladi:

Vermak ozurdalaring, qalbina ozor, g‘alat,

Gunah afgori tanim aylamak afgor, g‘alat.

Saydi bedodam *shamshiri jafo bismilim*,

Kim edar *bismili bismil gunah* takror, g‘alat.

“Dog” radifli besh baytli g‘azal asl matni bilan nashr nusxasi solishtirilganda yozilishi bir-biriga o‘xshash so‘zlar noto‘g‘ri qo‘llangani aniqlandi. G‘azalning nashrda berilgan uchinchi va to‘rtinchi baytlari quyidagicha:

O‘lmadi *mehrim* asrori *haririm* samadi,

Zohiding siynasi savdoyi **sanamdandur** dog‘.

Bulbuli xoknishin etdi guliston shavqi.


Qafasi *dahrda* ra‘noyi eramdandur dog¹²⁹.

Berilgan baytning birinchi misrasidagi “*mehrim*” so‘zini “*mahram*” so‘zi bilan almashtirsak, mazmun oydinlashadi va toshbosmadagi matn ham to‘g‘ri o‘qilgan bo‘ladi. Chunki arab grafikasida “*mehrim*” so‘zi “س” (**hoi havvaz**) bilan, “*mahram*” so‘zi esa “ح” (**hoi huttii**) bilan yoziladi. Matndagi “asror” so‘zi ham “mahram” so‘zini qo‘llashni taqozo qiladi. “*Haririm*” so‘zi ham aslida toshbosmada “*harim*” shaklida yozilgan. Misradagi so‘zlarning ma‘nosiga e‘tibor bersak, “*haririm*” “*harir*” so‘zidan olingan bo‘lib, “yupqa va nozik ipakli to‘qima” ma‘nosini anglatadi. “*Harim*”, “*haram*” so‘zlari bir ma‘noda qo‘llanadi va “xos joy”, “o‘z ahli bo‘lmagan kishilar kiritilmaydigan joy” ma‘nosini bildiradi. Nashrda to‘rtinchi misradagi “*dahrda*” so‘zi asl nusxada “*hajrda*” shaklda yozilgan. Ikkinchi misradagi “*sanamdandur*” so‘zi toshbosmada “*sanamdur*” tarzida xato yozilgan. Begali Qosimov toshbosmada xato yozilgan bu so‘zni

¹²⁹ “B” manba. – B.133.

she'ning vazn talabi va qofiya (*eramdandir, karamdandir*) talablaridan kelib chiqqan holda “*sanamdandur*” shaklida to‘g‘ri tabdil qilgan.

Toshbosmada:



Toshbosmada ko‘rganimizdek quyidagicha tabdil qilish maqsadga muvofiqdir:

O‘lmadi *mahrami* asror *harim* samadi,
Zohiding siynasi savdoyi *sanamdandur* dog‘.
Bulbuli xoknishin etdi guliston shavqi,
Qafasi *hajrda* ra’noyi eramdandur dog‘.

Siddiqiy-Ajziy “Tanlangan asarlar”ining 1973-yildagi nashrida keltirilgan “Iloj” radifli olti baytli g‘azalning uchinchi, to‘rtinchi, beshinchi baytlaridagi xatoliklar shoir “Tanlangan asarlar”ining 1999-yilgi nashrida ham aynan takrorlangan.

Nashrlarda:

Shon qavmiyati *dushvor ko‘kirsam* pomol,
Kimsa bu *holata* dushvorima etmazmi iloj?¹³⁰

Birinchi misradagi “*shon*” so‘zi toshbosmada “*sha’n*” tarzida yozilgan. She’r matnidagi “*ko‘kirsam*” so‘zining kelib chiqishi “*dushvorki*” so‘zining “*-ki*” qo‘shimchasi keyingi “*ko‘rsam*” so‘ziga qo‘shib o‘qilishi natijasida hosil bo‘lib, matnda “*ko‘kirsam*” deb tabdil qilingan. Ikkinchi misradagi “*holata*” so‘zini “*holati*” tarzida o‘qish maqsadga muvofiqdir. Fikrimiz dalili uchun toshbosma matni o‘qiymiz:



Biz arabiy imlodagi bu baytni tubandagicha tabdil qildik:

Sha’n qavmiyati *dushvorki ko‘rsam* pomol,

¹³⁰ “B” manba. – B.136.

Kimsa bu *holati* dushvorima etmazmi iloj?

Gʻazalning toʻrtinchi bayti nashrda tubandagicha berilgan:

Rohatin buzmish afgʻon ila *qoʻsh(n)ularimi*,

Biri **hama** ohi **sharar borima** etmazmi iloj¹³¹.

Bu baytdagi “*qoʻsh(n)ularimi*” soʻzi toshbosmada “**qoʻmshularimi**” tarzida yozilgan. “*Qoʻmshularimi*” soʻzi ham aslida ozarbayjon shevasida “*qoʻshnularimi*” maʼnosini beradi, biroq shoir til uslubining buzilishiga olib kelgan. Ikkinchi misradagi “**hama**” soʻzi “**ham**” tarzida, “*sharar borima*” birikmasi “*shararborima*” shaklda qoʻshib yozilishi lozim.

Toshbosmada:



Biz toshbosma bilan qiyoslab oʻqiganimizda bu matn yuzaga keldi:

Rohatin buzmisham afgʻon ila *qoʻmshularimi*,

Biri **ham** ohi *shararborima* etmazmi iloj.

Nashrda gʻazalning navbatdagi baytini quyidagicha:

Ranj *armoni-la* bemorlara yoʻxmi tabib,

Rahm edub, *zumra bemorima* etmazmi iloj¹³²

Toshbosmadagi “**hirmon ila**” birikmasi “**armoni-la**” tarzida nashrda xato berilgan. Baytdagi “**armoni-la**” soʻzining xatoligini misra boshidagi “ranj” soʻzi ham tasdiqlaydi. “Ranj” soʻzi “mashaqqat”, “qiyinchilik”, “ogʻriq”, “kasallik” kabi maʼnolarni ifodalaydi. “Hirmon” soʻzi esa “mahrumlik, bebahralik, benasiblik, yetisha olmay qolish; umidsizlik” maʼnolarini anglatadi. “**Hirmon ila**” birikmasi baytning mazmunini oydinlashtirib kelgan. Ikkinchi misradagi “*zumra bemorima*” birikmasida **-yi** izofasi tushib qolgan va sheʼr mazmunining toʻgʻri ifodalanishiga xalal bergan.

Toshbosmada:



¹³¹ Koʻrsatilgan manba. – B.136.

¹³² Koʻrsatilgan manba. – B.136.


Toshbosmani so‘zma-so‘z, harfma-harf muqoyasa qilib o‘qilganda quyidagi matn yuzaga keldi:

Ranji *hirmon ila* bemorlarga yo‘xmi tabib,
Rahm edub, *zumrayi bemorima* etmazmi iloj.

Nashrda bu g‘azalning maqta’si quyidagicha tabdil qilingan:

Dahr *afsodi* sarukorimi buzmish Ajziy,
Shimdi gardun bu sarukorima etmazmi iloj?¹³³

Toshbosmada:



Davrning fasodi mening butun ishlarimni buzdi, ey Ajziy, endi gardun (dunyo) mening bu ishlarimni to‘g‘rilmikan?

“*Dahr afsodi*” jumlasidan baytning mazmunini chiqarish mushkul, biroq “*Dahr ifsodi*” jumlasini “dunyoning buzilishi”, “zamonning buzilishi” kabi ma’nolarni anglatib, bayt mazmunini ochib beradi:


Dahr *ifsodi* sarukorimi buzmish, Ajziy,
Shimdi gardun bu sarukorima etmazmi iloj?

Yuqoridagi singari xato va kamchiliklarni “O‘lmasa” radifli yetti baytli g‘azalda ham kuzatish mumkin. Bu g‘azalning ikkinchi bayti nashrda quyidagicha:

Fitnaxo‘lar *kedidan omin degil* ahli tamiz,
Saydi *dom* fitna o‘lg‘ay kimsa hushyor o‘lmasa¹³⁴.

“*Kaydidan emin dagil*” jumlasini “*kedidan omin degil*” tarzida xato tabdil qilingan va bayt mazmunini ochib berishga xalal bergan. Bayt toshbosmaga muvofiq o‘qilsagina shoirning nasihatlarini tushunish mumkin.

Toshbosmada:



Ko‘ringanidek baytni quyidagicha tabdil qilish maqsadga muvofiqdir:

¹³³ Ko‘rsatilgan manba. – B.136.

¹³⁴ “B” manba. – B.137.

Fitnaxo‘lar *kaydidan emin dagil* ahli tamiz,

Saydi *domi* fitna o‘lg‘ay kimsa hushyor o‘lmasa.

Bayt mazmuni: “Agar aqlli kishilar fitna tuzog‘idan hushyor bo‘lmasa, ular fitnachilar kishanidan omon emas”. “Kayd” so‘zi “kishan”, “tuzoq”, ko‘chma ma‘noda “makr”, “hiyla” degan ma‘nolarni anglatadi. Baytdagi “*kaydidan emin*” jumlasining to‘g‘ri tabdili o‘quvchining bayt mazmunini to‘g‘ri tushunishiga olib keladi.

2. Aralash-qorishiq nuqsonlar (xato o‘qilgan so‘zlar va o‘rni almashgan misralar, tushirib qoldirilgan so‘zlar va misralar). Siddiqiy-Ajziy she‘rlarining nashr nusxasida ko‘proq so‘zlarning xato o‘qilishi, ba‘zan qorishiq holdagi, ya‘ni she‘r misralarining o‘rin almashishi va so‘zlarning xato o‘qilishi bilan bog‘liq nuqsonlar uchraydi. “Etmish” radifli g‘azalning quyidagi ikkinchi va to‘rtinchi misralarining o‘rni almashgan. Shuningdek, almashgan misralarda ba‘zi so‘zlar ham xato tabdil qilingan. Misolga e‘tiboringizni qaratamiz:


Edeb bing nav’ *man’ing birya u afroz* insoning,

U kim tahqiqi zoting istamish aylar dubol etmish.

Sani vor o‘ldug‘ing haqqinda avsofing kifoyatdur,

*Kimi taxt uzra sulton, kimsalarni poymol etmish*¹³⁵.

Berilgan misralarning birinchi misrasidagi “*man’ing birya u afroz*” tushunchalari Siddiqiy-Ajziy ijodiga xos emas. Toshbosmada ham “*sun’ing*” so‘zi “*man’ing*” tarzida xato yozilgan, biroq kotib bu xatoni kitob oxiridagi jadvalda to‘g‘rilab, “*sun’ing*” shaklida bergan. “*Man’ing birya u afroz*” jumlasini “*sun’ing bir yuva farzona*” shaklida tabdil qilinsa to‘g‘ri bo‘ladi. Shuningdek, qofiyadagi “*vubol*” so‘zi ham “*dubol*” tarzida xato tabdil qilingan. Bayt misralari asl manbada tubandagicha:



¹³⁵ “B” manba. –B.133-133.

Gʻazal misralarini asl manbaga qiyoslab quyidagicha tabdil qilish maqsadga muvofiq:

*Edub bing nav' sun'ing bir yuva farzona insoning,
Kimi taxt uzra sulton, kimsalarni poymol etmish.
Sani vor o'ldug'ing haqqinda avsofing kifoyatdur,
Ukim tahqiqi zoting istamish aylar vubol etmish.*

“Edub” radifli gʻazal “Tanlangan asarlar”da sakkiz bayt berilgan. Toshbosma manbada bu gʻazal toʻqqiz bayt boʻlib, nashrlarda quyidagi beshinchi bayt tushib qolgan:

Marqad elin Ka'batek ikrom edar ahli avom,
Hojat istar murdadin hayvon kechub qurbon edub.

Shoirning “Ekin yerlaring dard-u hasrati” sarlavhali sheʼri “B” manbada 49 misra, “D” manbada esa 55 misra berilgan. Nisbatan tuzatilgan va toʻldirilgan “B” manbada quyidagi 6 misra sheʼr tushib qolgan:

Qo'shchi soyuzi yordam etar endi ularga,
Yordam qo'muta otu ho'kiz bergay ularga,
Bir yonda postig'qo'mlari – tuxum ularga,
Kim endi jasurona urar ta'na ularga,
Yer xalqiga jannatnamolar yana chiqdi,
Dehqon degan ul ko'zi alolar yana chiqdi.

Ehtimol, noshirga sheʼr bandidagi “Qoʻshchi soyuzi yordam etar...”, “Yordam qoʻmuta otu hoʻkiz bergay...” jumllalarini nashr etishga senzura ruxsat bermagan boʻlishi mumkin. Siddiqiy-Ajziy ijodiga zamon va makon talablaridan kelib chiqib baho berish kerak va bunday satrlarni tushirib qoldirmaslik lozim.

Siddiqiy-Ajziyning “Ey millati jalilayi islom atolari” misrasi bilan boshlanuvchi sheʼri shoirning “Ganjinayi hikmat yoxud adabiyoti jadida” nomli sheʼriy toʻplamiga kiritilgan boʻlib, unda faqat Ismoilbek Gasprinskiyning vafoti munosabati bilan yozilgan marsiya oʻzbek tilida. Qolgan sheʼrlari esa fors-tojikcha. Siddiqiy-Ajziyning sheʼriy kitobi “Ganjinayi hikmat”ning Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik

instituti toshbosma asarlar fondida saqlanadigan 3215-, 9414-inventar raqamli toshbosma asarlarida uchraydigan musamman shaklidagi 13 banddan iborat o‘zbekcha she‘rining ikkinchi bandini professor Begali Qosimov “Oyna” jurnalining 1914-yil 51-sonidan olib “Ismoilbek hazratlari yodig‘a” sarlavhasi bilan nashr qildirgan:

Ajr edan vazifasin *qo‘l ila*, lison ila.

Nashr etti xalqa *mav‘idasin* “Tarjimon” ila.

Xalq *bo‘ldi* oshino bu sababdin jahon ila.

Hal etti mushkiloti fununing bayon ila.


Sa‘y etdi xizmat etmakg‘a sarvat-la, jon ila,

Isloma ravnaq istadi *to‘l* zamon ila.

Ustozi kulli maxozin, *urfon* anaxtari,

Ismoil zabihcha jonboz G‘aspari.

Toshbosmada:



Ikkinchi bandda uchraydigan matniy tafovutlarni nashr va toshbosma nusxalarga solishtirib, nashrdagi xatolarni toshbosmaga muvofiq tuzatishga harakat qildik. Nashrda kelgan **ajr**, **qo‘l ila**, **mavi‘dasin**, **bo‘ldi**, **urfon** so‘zlarini **ijro**, **Olooh**, **mav‘izasin**, **o‘ldi**, **irfon** tarzida o‘qib tabdil qilindi:

Ijro edan vazifasin, **Olooh** lison ila.

Nashr etti xalqa **mavi‘zasin** “Tarjumon” ila.

Xalq **o‘ldi** oshno bu sababdin jahon ila.

Hal etti mushkiloti fununing bayon ila.

Sa‘y etdi xidmat etmak sarvat-la, jon ila,

Isloma ravnaq istadi **tuli** zamon ila.

Ustodi kulli maxozin, **irfon** anahtari,

Ismoil zabihcha jonboz G‘aspari.

“Oyna” jurnali Siddiqiy-Ajziyning 13 bandli musamman shaklidagi katta hajmli she‘rining faqat ikkinchi bandidan sakkiz misrani, ya’ni Ismoilbek Gasprinskiy va “Tarjumon”ga tegishli qismini “Ismoilbek hazratlari yodig‘a” sarlavhasi bilan nashr qildirgan professor Bahodir Karimov ham “*ajr*”, “*qo‘l ila*”, “*mavi‘dasin*”, “*bo‘ldi*” so‘zlarini asliga muvofiq “*ijro*”, “*Oллоh*”, “*mavi‘zasin*”, “*o‘ldi*” tarzida tabdil qilgan¹³⁶.

Shoir bu she‘rning to‘liq variantini Orenburgdagi mashhur “Sho‘ro” jurnalida “Tashakkur va rijo” nomi bilan nashr ettirgan. She‘rda turkiy xalqlarning taniqli jadid ziyolilari va rahnamolari – “Anvori ittifoq, taraqqiy ziyolilari”ning xizmatlari ulug‘langan. Jumladan, Ahmadi Hodiy (“Yulduz” gazetasining muharriri), Abdusalimzoda (jurnalist, muharrir), Abdurashid Ibrohimov (“Irshod” gazetasining muharriri), Ahmad Aqoyif (“Kaspiy” gazetasining muharriri), Alizoda Husayn (Ozarbayjon yozuvchisi) hamda ular muharrirlik qilgan va aloqada bo‘lgan “Tarjumon”, “Ulfat”, “Yulduz”, “Fuyuzot”, “Hayot”, “Irshod”, “Taraqqiy” kabi matbuot nashrlari tilga olingan.

Bu she‘rning to‘liq variantini olim Sirojiddin Ahmedov “Sho‘ro” jurnalining (1913-yil 1-iyul) 13-sonidan olib izohlar bilan nashrga tayyorlagan. Izohlarda o‘rniga nuqtalar qo‘yilgan so‘zlar chor senzurasini tomonidan olib tashlanganligi ta’kidlangan¹³⁷.

Sirojiddin Ahmedovning bu she‘rni tabdil qilishdagi mahorati olimning o‘z ishining ustasi, tajribali matnshunos ekanligini ko‘rsatadi. Biroq matnni “Sho‘ro” jurnalidan olib nashrga tayyorlaganligi sababli beshinchi, oltinchi va sakkizinchi bandlardagi ba’zi misralarda so‘zlar tushirib qoldirilgan.

Jumladan, beshinchi bandda:

Nashri maorif ila verub xalqa toza jon,


Shar‘i sharif xodimi, allomai zamon.

¹³⁶ Qarang: Ismoilbek Gasprinskiyning eslagnida... / Nashrga tayyorlovchilar: B.Karimov, Z.Abdiraшидов, H.Эгамқулова – Т.: Турон zamin ziyo, 2014. – Б.23.

¹³⁷ Ismoilbek Gasprinskiy va Turkiston / Mas’ul muharrir Karimov H. – Т.: Шарқ, 2005. – Б.143.

..... sila verub ravnaqi jahon¹³⁸,
 Qur'on ila hadisa haqiqatda tarjumon.
 Fikri rasou aqli salimingda yo'q gumon,
 Ey manbayi karomatu v-ey maxzani ehson.
 Tobding olamda ishtihor,
 Millat mahalli faxri o'lub o'lding oshkor.


“Ganjinayi hikmat” asariga qiyoslansa, uchinchi misra **“Sho‘ro majallasi-la verub ravnaqi jahon”** va yettinchi misra **“Topding rizoyi din ula olamda ishtihor”** tarzida nuqtalar o‘rnini to‘ldirish mumkin.



Oltinchi bandeda:

Muso tajallivu yadi bayzo-la muftaxir,
 Sen rashhayi qalam-la mubashshir senu nazir.
 Anvoi fanni sarvatina maxzani kabir,
 Olamda nashri ma'rifatu ilmda shahir.
 Millat alini dutmaga bir piri dastgir,
 Islom olaminda o'lub shamsi munir.
 ortuq ila do'kung xidmating ayon,
 Fir'avni jahl ollingda halok o'ldi begumon.


“Ganjinayi hikmat” asariga qiyoslansa, yettinchi misra **“Musodan ortuq ayladugung xidmating ayon”** tarzida nuqtalar o‘rnini to‘ldirish mumkin.



¹³⁸ Nuqtalar o‘rnidagi so‘zlar tushib qolgan

Yo‘q mamlakat faqihlaridin umidimiz,
 Qoldirdi bizlarni ulamomiz umidsiz.
 Bid’atni ijtinobu harom o‘lmadi tamiz,
 Voiz o‘lmadiki o‘yla islohi holimiz.
 Voqif o‘lan jamoalari muttakosi siz,
 siz sharif azizsiz.
 Merosi anbiyo siza o‘ldi bugun nasib,
 Islom suratinda bu olamda siz “G‘arib”.

“Ganjinayi hikmat” asariga qiyoslansa, oltinchi misra **“Uqboda siz musharraf-u dunyoda siz aziz”** tarzida nuqtalar o‘rnini to‘ldirish mumkin.



3. Yangi topilgan she’rlar. Izlanishlar natijasida Siddiqiy-Ajziyning 500 misraga yaqin turli janrlardagi she’rlari aniqlandi. Shoir bu she’rlarni turli munosabatlar bilan yozgan. Quyida ularning ba’zilari haqida to‘xtalib o‘tamiz:

Jadidchilik harakatining asoschisi, “Uchinchi muallim”¹³⁹ deya nom olgan Ismoilbek Gasprinskiy 1914-yil 11-sentyabr kuni vafot etadi.

Ismoilbek Gasprinskiy vafoti butun musulmon olami uchun katta musibat bo‘ldi. Xususan, bu ayriliqdan Turkiston ziyolilari ham qattiq iztirob chekdilar va o‘zlarining ulug‘ ustozlariga bo‘lgan muhabbatlarini, qalb kechinmalarini vaqtli matbuot sahifalarida bayon eta boshladilar.

“Q.SH.S” imzosi bilan karkilik muallifning “Ulug‘ bobom qayg‘usi” maqolasida: “Hey darig‘! Bu kun muhtaram bobomizning vafotlarini eshitdik. Oh! Buyuk sharofatlu bobomizdan ayrilubmiz. Rusiyadagi necha million musulmonlar bu kunlarda yetim qoldi. Xususan, bizlar bobomizning maqola va asarlarini har vaqt ko‘zimizg‘a surtub o‘qub tushunur eduk. “Tarjumon” deganda o‘zingizni

¹³⁹ Гаспринский И. Хаёт ва мамот масаласи / Таржимон, тўпловчи, нашрга тайёрловчилар Б. Қосимов, З.Абдурашидов. – Т.: Маънавият, 2006. – Б.3.

ko'rgandek ko'rgimiz kelur edi. Jon va dilimizdan o'qub suyur eduk, muborak maqolangizdan bahramand bo'lur eduk"¹⁴⁰, - jumllarini o'qiymiz.

Turkistonlik jadidlarning Gasprinskiy shaxsiyati va faoliyatiga qiziqishlari kuchli bo'lgan va uning asarlarini muttasil o'qib borganlar, biroq ularning ko'pchiligi Gasprinskiy bilan bevosita ko'rishmagan. O'zlariga Ismoilbek Gasprinskiyni ustoz deb bilgan turkistonlik ziyolilar uning vafoti tufayli o'z munosabatlarini nashrlarda turli shakllarda izhor etadilar. Adabiyotshunos Bahodir Karimov Ismoilbek Gasprinskiy vafotiga bag'ishlab yozilgan o'zbek matbuotidagi materiallarni katta hajmli she'riy asarlar, publitsistik maqolalar va Boqchasaroyga yo'llangan qisqa satri ta'ziya maktublari shaklida uch guruhga ajratadi¹⁴¹.

Hamidiy (Abdulhamid Cho'lpon)¹⁴², To'lagan Xo'jamiyrov (Tavallo)¹⁴³, Hamza Hakimzoda Niyoziy¹⁴⁴, Husaynho'ja Saodatiy¹⁴⁵, Sadridin Ayniy¹⁴⁶, Karimbek Kamiy,¹⁴⁷ Abdulla Avloniy¹⁴⁸, Miskin Toshkandiy¹⁴⁹, Faxriddin Rojiy¹⁵⁰, Vasliy Samarqandiy¹⁵¹, Xatoiy¹⁵², Mir Sarvar¹⁵³, Shamsiddinqori Xoib¹⁵⁴ va boshqa o'zbek jadidlar qatori Siddiqiy-Ajziy¹⁵⁵ ham Gasprinskiy vafotiga bag'ishlab she'rlar bitgan.

¹⁴⁰ "Садойи Туркистон" газетаси. 1914 йил 17 октябрь.

¹⁴¹ Ismoilbek Gasprinskiyning eslaganda... / Nashrga tayyorlovchilar: B.Karimov, Z.Abdiraшидов, N.Egamqulova. – T.: Turon zamin ziyo, 2014. – 72 б.

¹⁴² Хамидий. Маърифатпарвар бобомиз Ismoil Gasprinskiy хазратлари ҳақиқинда тазияномамиз // Садойи Фарғона. 1914 йил 24 сентябрь.

¹⁴³ Хўжамёров Т. (Тавалло). Адиби замон, ношири "Таржумон" Ismoilbek Gasprinskiy жанобларина таърих // Садойи Фарғона. 1914 йил 26 сентябрь.

¹⁴⁴ Ҳ.Ҳ.Н. Марсия // Садойи Фарғона. 1914 йил 28 сентябрь.

¹⁴⁵ Саодатий Ҳ. Марсия // Садойи Фарғона. 1914 йил 30 сентябрь.

¹⁴⁶ Айний С. Буюк бобомизнинг мусибатила паришон ўлан хотирдан бир неча паришон шеърлар // Садойи Туркистон. 1914 йил 30 сентябрь.

¹⁴⁷ Камий К. Ҳақойиқи огоҳ, маорифи дастгоҳ, утози замон, соҳиби "Таржумон", жаноб Ismoilbek хазратларининг руҳи пурфутуҳларина иттиҳоф // Садойи Туркистон. 1914 йил 1914 йил 7 октябрь.

¹⁴⁸ Авлоний А. Адиби шаҳар Ismoilbek руҳина // Садойи Туркистон. 1914 йил 7 октябрь.

¹⁴⁹ Мискин. Фалаки кажрафтордин шикоят // Садойи Туркистон. 1914 йил 5 ноябрь.

¹⁵⁰ Рожий Ф. Ismoilbek хазратлариға // Ойна. 1914. №49.

¹⁵¹ Самарқандий В. Таърихи риҳлати жаноби Мирзо Ismoilbek соҳиби жаридан "Таржумон" раҳматуллоҳи роҳматан васиъатан ва адхалаҳу фи-л-жинан // Ойна. 1914. №52.

¹⁵² Хатойи. Ismoilbek хазратлари ёдиға // Ойна. 1914. №55.

¹⁵³ Сарвар М. Таърихи иртиҳоли Мирзо Ismoilbek Gasprinskiy // Ойна. 1914. №58.

¹⁵⁴ Хоиб Ш. Марҳум фозил-и нуқтадон ва фарду-з-замон ношири Таржумони аҳволи замон Ismoilbek Gasprinskiy жанобларининг таърих соли фавтлари // Туркистон вилоятининг газети. 1914 йил 12 октябрь.

¹⁵⁵ Сиддиқий Ажзий. Миръоти ибрат. – Самарқанд: Б.А.Гозоров литографияси. 1914. – Б.27-28. Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи фонди. Инв. №252.

Ta'rixi vafoti Ismoilbek

Ohkim, ustoz kirom G'aspiri etmish vafot,

Olami islomi bag'rin qoni ko'z yoshundadur.

Banda bir aqldan ta'rixin etmishdim savol,

Dedi: "G'ufro" toji Ismoilning boshindadur".

Bu she'rda ta'rix moddasi "G'ufro" so'zi bo'lib, abjad hisobida "غ" – 1000, "ف" – 80, "ر" – 200, "ا" – 1, "ن" – 50 qiymatlarini ifodalab, umumiy hisobda 1331 ga to'g'ri keladi. Hijriy 1331 yilni milodiy yilga aylantirsak, milodiy 1914-yil, ya'ni Ismoilbek Gasprinskiy vafoti yili kelib chiqadi. Bu ta'rixning matnini "Aynu-l-adab"dan boshqa joylarda uchratmadik. Shu boisdan ishimizda to'liq matnini keltirishni ma'qul deb bildik.

Ismoilbek Gasprinskiy vafotiga yozilgan "Ta'rixi vafoti Ismoilbek" asari o'zining ma'lum tarixiy ahamiyati bilan bir qatorda Siddiqiy-Ajziyning badiiy san'at qo'llash mahoratini ham namoyish qiluvchi yangi asardir.

Siddiqiy-Ajziy Ismoilbek Gasprinskiy vafotiga bag'ishlab "Ismoilbek G'asprinskiy marsiyasi" sarlavhali marsiya ham yozgan. Bu marsiya 11 baytdan iborat g'azal shaklida bo'lib, muzoriyi musammani axrabi makfufi mahzuf (maf'uvlu, foilotu, mafoiyu, foilun. *Taqte'si*: - - V/ - V- V/ V - - V/ - V -) vaznida yozilgan. Marsiya tili murakkab, tashbehlarga boy. Asar tilidan Siddiqiy-Ajziyning yoshligida madrasada tahsil olganligi, o'z ona tilidan tashqari arab, fors va ozarbayjon tillarini yaxshi bilganligi, ozarbayjon shoiri Fuzuliyga ergashib ijod qilganligi sezilib turadi.

Shoir marsiyada Ismoil Gaspinskiyga "ruhi ma'naviy", "qalblar sadaflarining toza gavhari", "Xizri roh, yo'lida qolonlarni rahbari". "kishvari taraqqiy", "fattohi a'zam", "bulbuli behisht", "jahonning suxanvari" kabi epitetlarni qo'llaydi va u zotni ma'rifat osmonining nur taratuvchi quyoshiga, baxt yulduziga o'xshatadi.

Bu g'azal shaklidagi marsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondida 254-inventar raqami va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Sharqshunoslik instituti toshbosma asarlar fondida 609-, 9436-, 9574-inventar raqamlari ostida saqlanayotgan “Aynu-l-adab” nomli she’riy majmuasidan o‘rin olgan. Ushbu marsiya avval nashr etilmaganligi uchun to‘liq matnini berishni lozim topdik.

Ismoilbek G‘asprinskiy marsiyasi

Ey, qiblagohi millati islom G‘aspiri(y),
V-ey, osmoni ma’rifatning mehri anvari.
Islomi sa’d kunlarining subhi sodiqi,
Burji sharafa tole’ o‘lan sa’d axtari.
Ey, jismlarda jilvaidin ruhi ma’naviy,
V-ey, qalblar sadaflarining toza gavhari.
Ey tashnalar, ey, chun qalaming chashmai hayot,
V-ey, Xizri roh, yo‘lda qolonlarni rahbari.
Ey, kishvari taraqqiy, ey, fattohi a’zam,
V-ey, olami tamaddun(n)i sardori akbari.
Ey, ma’rifat quyoshi bukun aylading g‘urub,
Bizdinmi gizladi seni bu charx chambari.
Dufrog‘a mahram o‘ldimi gul bargi orazing,
Sanduqa dushdi jisming yakdona gavhari.
Naqli makon edub abadiy barhayot sang,
Ey, bulbuli behishtu jahonning suxanvari.
No‘sh aylading jomi ajaldan sharobi mavt,
Etsun Xudo nasib senga havzi kavsari.
Jannat bu lahza ruhing, ey, chun jilvagohdur,
Hamsuhbating bo‘lamcha Xudoning payambari.
Yog‘sun mazoringa abadiy rahmati Iloh,
O‘lgil rizoyi Xoliqi a‘loni mazhari¹⁵⁶.

¹⁵⁶ Сиддиқий Ажзий. Айну-л-адаб. – Самарқанд: Б.А.Гозоров литографияси. 1914. – 36 б. Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи фонди. Инв. №254.

Imoilbek Gasprinskiy tavsifi ortiq darajada mubolag‘ali maqtovlar va xalq motami sifatida ko‘rinsa-da, marsiya janri an‘analariga rioya qilgan holda marhumning fazilatlari haqqoniy tavsiflangan.

2.2. “Mir’oti ibrat” dostonining matniy-qiyosiy tahlili

Siddiqiy-Ajziy ijodiga qiziqish, uni ilmiy tadqiq etish, asosan, o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlangan edi. Hozirgi paytga qadar “Mir’oti ibrat” dostonining kirill alifbosidagi uchta nashri mavjud. Dostonning joriy yozuvdagi dastlabki tabdili 1973-yilda Begali Qosimov tomonidan qisqartirilgan holda amalga oshirilgan. 1993-yilda Jo‘ra Xudoyberdiyev “Mir’oti ibrat”ni to‘liq holda nashr ettirdi. Begali Qosimov 1999-yilda dostonning to‘la variantini qayta nashr ettirdi.

“Mir’oti ibrat”ning O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondida saqlanayotgan 252-inventar raqamli toshbosma nusxasi hamda dostonning nisbatan to‘la va mukammal bo‘lgan 1999-yildagi nashrining matniy-qiyosiy tahlili asosida ko‘pgina tafovutlar borligi aniqlandi. Professor Abduqodir Hayitmetov ta’kidlaganidek, “Manba sifatida xizmat qilayotgan qo‘lyozmalarni to‘g‘ri o‘qiy bilish – bu matnshunosning asosiy burchi. Biroq hech bir matnshunos uzoq o‘tmish asarlari matnlarini xatosiz o‘qishga oldindan so‘z bera olmaydi. Adabiyotimiz tarixiga oid asarlarning ilmiy matnlari birdaniga emas, asta-sekin takomillashib boradi”¹⁵⁷.

Bizningcha, olimning fikrlari to‘g‘ri. Avvalgi nashrlar keyingilarining mukammallashuviga yordam beradi. Ko‘pgina ijodkorlarning asarlari avval nashr etilib, keyinchalik bu asarlarning tuzatilgan va qayta to‘ldirilgan nashrlarining chop etilishi buning yorqin misolidir.

Siddiqiy-Ajziy ijodidagi “Mir’oti ibrat” dostonining nashr nusxalari bilan toshbosma nusxasini matniy-qiyosiy tahlil qilish ham fikrimizning to‘g‘ri ekanligini yana bir bor isbotlaydi. “Mir’oti ibrat” dostonining nashr nusxalari toshbosma nusxasi bilan qiyoslanganda matniy tafovutlarning mavjudligi

¹⁵⁷ Раҳмонов В. Мумтоз сўз сеҳри: мақолалар тўплами / Тўплаб нашрга тайёрловчилар: Э.Раҳмонов, Т.Раҳмонов. – Т.: О‘zbekiston, 2015. – Б.244.

aniqlandi. Dostonni qayta tabdil qilishda ustoz Begali Qosimov va Jo'ra Xudoyberdiyevlarning ishlaridan foydalandik. Matniy xatoliklarni tuzatishga harakat qildik, biroq mutlaqo xatosiz matn yaratdik degan da'vodan yiroqmiz. Matniy tafovutlar quyidagicha tasniflandi:

1. Toshbosmani nashrga tayyorlash jarayonidagi kotib xatolari.
2. Nashr nusxalaridan tushib qolgan baytlar.
3. Xato o'qilgan so'zlar va texnik nuqsonlar.

1. Toshbosmani nashrga tayyorlash jarayonidagi kotib xatolari.

Toshbosmada kotib yo'l qo'ygan kamchiliklar harflardagi nuqtalarning ishlatilishi (qo'yish yoki qo'ymaslik) bilan bog'liq nuqsonlardir. Jumladan,

Ba'd o'yla o'z viloyatimiz,
Ko'mur, o'tun olmaq odatimiz.
Mosh ila birinj, arpayi beda,
Tariq-la sabon ham orasida.
Bu jumlasini yerli *munbatimiz*,
Ozroq edar o'zimiz otimiz¹⁵⁸.

Misra boshidagi "*Ba'd o'yla*" birikmasi asl manbada "*Bug'doy*" deb berilgan. "Ba'd" arabcha so'z bo'lib "so'ng", "keyin" degan ma'nolarni beradi va bir qarashda arab grafikasidagi shakli "bug'doy" so'zining shakliga o'xshab ketadi. Toshbosmada "*o'yla*" so'zining yo'qligi misraning ma'nosiga xalal bergan va nashrlarda imloviy chalkashlik borligini ko'rsatadi. Bu misrani "*Bug'doy vera* o'z viloyatimiz", deb o'qisak to'g'ri bo'ladi va beshinchi misradagi "*munbitimiz*" so'zi ham shunga ishora qilmoqda. Nashr nusxada "munbit" so'zi "munbat" shaklida xato berilgan. "Munbit" arabcha so'z bo'lib "o'simlik" degan ma'noni anglatadi. Haqiqatan, bug'doy, beda, mosh, guruch, tariq bularning hammasi yerlik, ya'ni mahalliy o'simliklarimizdir. Lekin ikkinchi misradagi "*ko'mur*" so'zi toshbosma matnida "*ko'miz*" shaklida kelgan "r" harfining ustiga kotib nuqta qo'yishi

¹⁵⁸ Ибрат, Сиддикий-Ажзий, Сўфизода. Танланган асарлар / Тўпловчи, нашрга тайёрловчи, сўзбоши, луғат муаллифлари: Б. Қосимов, С. Ахмедов, У. Долимов. – Т.: Маънавият, 1999. –Б.178.

natijasida “r” “z”ga aylangan. Biroq noshir bu soʻzni toʻgʻrilab “*koʻmur*” shaklida nashr ettirgan:

Bugʻdo(y) vera oʻz viloyatimiz,

Koʻmur, oʻtun olmaq odatimiz.

Toshbosmada:



Bu kabi matniy xato quyidagi misralarning uchinchi satrida ham uchraydi:

Tujjor ila shahr ichinda bozor,


Goʻyoki bu shahr shahri tujjor.

Har rastada bing *saroyu* doʻkon,


Har turli matoidin bing alvon¹⁵⁹.

Shoir dostonida Samarqand shahrining tuzulishi haqida va binolarning joylashish tartibini qayd etgan va oʻsha davr ijtimoiy ahvolining tasviridan boy shahar ekanligiga ishora qilgan. Dostonning nashr matnida yuqoridagi toʻrtinchi misrada: “*Har rastada bing saroyu doʻkon*”, deb yozilgan. Rastalar qatorida saroy joylashmasligi hammaga ayon. Bunday mantiqsizlik “*Har rastada minglarcha saralangan (yaxshi) doʻkon*” mazmunini beruvchi “*sara-u*” soʻzining “*saroy*” deb oʻqilishi natijasida buzilgan. “سره” soʻzini kotib “سرا” tarzida koʻchirishi natijasida bu soʻzning “saro”, “saroy” shaklida tabdil qilishga sabab boʻlgan.

Toshbosmada:



Bundan tashqari, kotib nusxa koʻchirish jarayonida qoldirib ketgan harflar ham mavjud.



¹⁵⁹ Koʻrsatilgan manba. – B.178.

Ikkinchi misradagi “*parizod*” soʻzini yozishda toshbosma nusxada kotib tomonidan “r” harfi qoldirib ketilgan, ammo nashrda “*parizod*” shaklida toʻgʻri nashr qilingan:

Kim etdi bani bu joya irod?

Yo zumrayi dev, yo *parizod*?¹⁶⁰

2. Nashr nusxalaridan tushib qolgan baytlar.

“Mir’oti ibrat” dostoni 824 misradan iborat boʻlib, dostonning 1993-yilda Joʻra Xudoyberdiyev tomonidan amalga oshirilgan nashri 808 misra. Professor Begali Qosimov tomonidan amalga oshirilgan 1999-yil nashri esa 820 misra. Quyidagi 4 misra sheʼr har ikkala nashrda ham uchramaydi:

Malbusa chekarlar Ovrupodan,

Adviya ey, soʻrsang Afriqodan...¹⁶¹

Oʻlmish necha mil u hisora,

Erdi u hisori bir minora¹⁶².

3. Xato oʻqilgan soʻz va birikmalar.

“Mir’oti ibrat” dostonining toshbosma nusxasi va nashr nusxalarini qiyosiy oʻrganish shuni koʻrsatadiki, nashrlarda koʻplab soʻzlar xato tabdil qilingan. Xuddi shunday xatolikni quyidagi misralarda uchratamiz:

Rashk oʻdi bu ikkisin edub *zarq*,

Daryoyi xijolata edi gʻarq¹⁶³.

Birinchi misradagi “*zarq*” soʻzi asl manbada “*xarq*” boʻlib kelgan. “*Zarq*” soʻzi “aldov”, “hiyla”, “munofiqlik” kabi maʼnolarda keladi. “*Xarq*” soʻzi esa, “aqli kam”, “aqli past”, “aqli zaiif” kabi maʼnolarda qoʻllanadi va bayt mazmunini toʻgʻri ochishga xizmat qiladi.

Toshbosmada:



¹⁶⁰ Koʻrsatilgan manba. – B.174.

¹⁶¹ Сиддиқий Ажзий. Миръоти ибрат. – Самарқанд: Б.А.Гозоров литографияси. 1914. – Б.10. Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи фонди. Инв. №252.

¹⁶² Koʻrsatilgan manba. – B.7.

¹⁶³ Ибрат, Сиддиқий-Ажзий, Сўфизода. Танланган асарлар / Тўпловчи, нашрга тайёрловчи, сўзбоши, луғат муаллифлари: Б. Қосимов, С. Ахмедов, У. Долимов. – Т.: Маънавият, 1999. –Б.174.

Quyida berilgan baytlarga e'tibor bersak, "yoqut" va "zabarjad" misolida qo'llangan obrazlar haqida gap boryotganini anglaymiz.

Yoqut u biri, biri – zabarjad,
Marjon ila inju evda yo'q had.
Yoquti evini hasratidan,
Yoqutni qon tomub dilidan.
O'lmishdi zabarjad o'yla bir hol,
Ruxsorasi sarg'ayub edi lol.
Hasrat-la dutub ikisi motam,
Dosh sanduqini yoshindi mahkam.
Marjon ila injutek makonlar,
Marjona urardi zaxm jonlar.

Bu misralarda Samarqand shahrining "yoqut" va "zabarjad"dan ham ko'rkli ekanligi ko'rsatilgan. "Yoqut" va "zabarjad" shaharning chiroyini ko'rib uyalganidan toshlar orasiga yashirinadi. Qimmatbaho toshlarning rashki tufayli bag'irlaridan qon tomib motam tutishlari va aqllarining zaifligini e'tiborga olsak, "*xarq*" so'zi mantiqiy jihatdan to'g'ri.

Bu so'zni *tar shaharla* yaksar,
Bog' ichra havo edi muattar.¹⁶⁴

Birinchi misradagi "*tar shaharla*" birikmasi bayt mazmunini mavhumlashtirib qo'ygan: *birinchidan*, so'zining ma'nosi to'g'ri kelmaydi, *ikkinchidan*, shahar so'zi "ح" (hoi huttiy) emas, balki "و" (hoi havvaz) bilan yozilishini hisobga olsak, so'zning noto'g'ri yozilgani yana ham ravshanlashadi. Bu so'zni asl manbada berilganidek "*tarashshuhi-la*" deb o'qish maqsadga muvofiq.

Toshbosmada:



Quyidagi misralardagi xato o'qilgan so'zlarga e'tibor beramiz:

¹⁶⁴ Ko'rsatilgan manba. – B.175.

Axshom ular o‘lsalar charog‘on,
Go‘cha o‘la o‘yla kavkabiston.
 Har ev eshiginda *shim* zina,
Begar zina? *Soldi* samina.
 Xalqi kim edi malakmi *yoxud*,
 Inson demak aylamishdi *tamhud*.
 Sonsang pari ko‘za *oid* ermas,
 Bir o‘zga demak munosib ermas¹⁶⁵.


Yuqoridagi birinchi misraning mazmun-mohiyatidan kelib chiqsak, nashrda berilgan ikkinchi misra boshidagi “*Go‘cha o‘la o‘yla*” so‘zlarining “*Go‘yo o‘la oy-la*” tarzida asl manbaga muvofiq tabdil qilinishi shoirning shoirona o‘xshatishini ko‘rsatadi: “Ular oqshomlari chorog‘on bo‘lsalar, go‘yo ular oy bilan yulduzlar charaqlab turgan tip-tiniq osmondir”. Ya‘ni tiniq osmonda oy bilan yulduzlarning nur taratib turishi nazarda tutilgan. Keyingi misradagi “*shim*” so‘zi toshbosmada “*yashm*” bo‘lib kelgan va bu so‘z lug‘atlarda “yashil tusli tosh”¹⁶⁶ ma‘nosida keladi. Bu misraning mazmuni: “*Har uy eshigida yashil tusli toshdan zina*” deyilmoqda. Baytdagi zinalarning tabiiyligini (*yashm*) hisobga olsak, ikkinchi misra nashrdagi “*begar*”, “*begor*” so‘zi “majburiy ishlatish”, “tekin ishlatish”, “hashar” ma‘nolarida keladi va bu so‘zning “zina” so‘ziga aloqasi yo‘q. To‘rtinchi misra boshidagi bu so‘z aslida arabcha “*bikr*” so‘zi bo‘lib, “toza”, “yangi” ma‘nolarini anglatadi¹⁶⁷. “*bikr zina* – toza zina, yangi zina”dir. Baytning to‘liq ma‘nosi: “*Har uy eshigidagi zina tabiiy va toza qimmatbaho toshdan*”, degan mazmundadir. Nashrda berilgan “*Soldi*” so‘zi toshbosmada “*beso‘id*” shaklida berilgan. Uchinchi baytning qofiyalari bo‘lib kelgan “*yoxud*” va “*tamhud*” so‘zlari toshbosma matnda “*yo hur*” va “*maqhur*” tarzida berilgan. Nashrdagi “*oid*” so‘zi ham toshbosmada “*g‘oyib*” tarzida berilgan.

Toshbosmada:

¹⁶⁵ Ko‘rsatilgan manba. – B.175.

¹⁶⁶ Navoiy asarlari lu‘fati / Тузувчилар: Шамсиев П., Иброҳимов С. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1972. – Б.717.

¹⁶⁷ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. I том.–Т.: Фан, 1983. – Б.290.




Quyidagi misralarda xato o‘qilgan so‘zni ko‘ramiz:

Bir pir banga yo‘liqdi nogoh,
Asrori hama zamondin ogoh...
Har bir so‘zi **hazra** obi hayvon,
Suratda mujassam vali-yu jon¹⁶⁸.

Shoir doston boshida uyqu yoki xayolda ekanligini aniq tasvirlamaydi, ikkalasining o‘rtasida behud holatda payti bir piri komilga nogoh uchrab qoladi. Piri komil dunyoning hamma fanlari va sirlaridan boxabar avliyo zot edi. Ikkinchi baytdagi “**Xizra**” so‘zi nashrda “**xazra**” deb yozilgan. Agar so‘z oxiridagi –a tovushining jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi ekani inobatga olinganda ham “**xazr**” hech qanday lug‘aviy ma’no anglatmaydi. Shoir bu yerda piring har so‘zi Xizr alayhissalomning “obi hayvon”i (tiriklik suvi, mangulik suvi) kabi deydi. Bu bilan piring inson zotidan ekanligiga alohida urg‘u berib, surati inson ko‘rinishidagi avliyo ekaniga ishora qilgan.

Toshbosmada:



Yoki dostonning nashr nusxasida berilgan quyidagi baytlarga diqqat qilamiz:

Tavsif eda boshladim Samarqand,
Firdavs, dedim, u shahr monand.
Jon dufrog‘idan ko‘karsa imkon,
Yo‘q kimsa deya bu **sirni** yalg‘on¹⁶⁹.

¹⁶⁸ Ибрат, Сиддикий-Ажзий, Сўфизода. Танланган асарлар / Тўпловчи, нашрга тайёрловчи, сўзбоши, луғат муаллифлари: Б.Қосимов, С.Ахмедов, У.Долимов. – Т.: Маънавият, 1999. – Б.176.

¹⁶⁹ Ko‘rsatilgan manba. – B.176.

Piri komil o‘ziga yaqin olib, xonasiga taklif qilib, hol-ahvol so‘rab, musulmonlarning ijtimoiy hayotda erishayotgan yutuqlari haqidagi xabarni so‘raydi. Shoir bo‘lsa Samarqand shahrini jannat bog‘larining eng yaxshilaridan bo‘lgan Firdavsga o‘xshashligini ta’riflab ketadi. Ikkinchi baytning ikkinchi misrasidagi **“hayni”** so‘zi nashrda **“sirni”** bo‘lib ketgan. E’tibor qilinmasa, so‘zning noto‘g‘ri yozilgani sezilmaydi. Hayni, ya’ni tirik odamni yolg‘on demang!



Bu baytlardan oldinroqda shoir aniq behud olamga o‘tganiga ishora qilgan:

Zannamcha ban o‘lmisham jahondan,
Jismim bani forig‘ o‘ldi jondan¹⁷⁰.

So‘zning asl matndagi yozilishini va yuqoridagi baytni hisobga olsak, **“sirni”** emas, **“hayni”** tarzida yozilishi to‘g‘ri bo‘ladi.

Quyidagi misralarni kuzatamiz:

Do‘rt madrasa vordur anda barpo,
Koshi-la munaqqashu mujallo.
Ishlandi nedan bu naqshi zebo,
Koshilarina xitoyi mino.
Boisi bularning oli – Temur,
Dorulfununa bu durdi mashhur¹⁷¹.


Samarqand shahrini surur bilan ta’rif-u tavsif qilayotgan shoir to‘rtta madrasa borligi va ularning naqshlari tovlanuvchi Xitoyda ishlangan sifatli ko‘k shishalarga o‘xshashligi tarannum qilingan. Ikkinchi baytdagi **“Boniyisi”** so‘zi nashrda **“boisi”** tarzida yozilgan. Mantiqiy jihatdan olib qaraganda Samarqand shahridagi me’moriy obidalarni Amir Temur va temuriy shahzodalar qurdirgani uchun Temurning oilasi Samarqandning chiroyiga sabab (bois) deb tushunish mumkin. Aslida shoir qo‘llagan **“boniy”** arabcha so‘z bo‘lib “bino qiluvchi”,

¹⁷⁰ Ko‘rsatilgan manba. – B.176.

¹⁷¹ Ko‘rsatilgan manba. – B.177.

“imorat quruvchi”, “quruvchi”, “binokor” degan ma’nomlarni bildiradi¹⁷². Demak, “Buyuk Samarqand shahrining bunyodkori Temur va temuriylar oilasidir”.

Yuqoridagi parchaning toshbosmadagi matni quyidagicha:




Nashrda berilgan quyidagi misralarda ham matniy nuqsonlar mavjud:

Bilmaz balda ahli qadrin oni,
Behuda ketar bu su mijoni.
Dufrog‘a dushar bu durri noyob,
Ori dusha dufrog‘a durri nob.
So‘ylay sana *al’oi* xorijiyini,
Ma’luming edub uzoq, yaqinni¹⁷³.

Ta’rixdan ma’lumki, Obi Rahmat arig‘i Samarqand shahrini toza ichimlik suvi bilan ta’minlagan. Shoir piri komilga Obi Rahmatning dur kabi toza tekin suvi tuproqqa behuda singib ketayotganligi va shahar ahli uning qadrimni bilmasligidan zorlanadi. Noyob durning tuproqqa tushganiga kuyinadi. Piri komil unga xorijiy mamlakatlarda bo‘layotgan o‘zgarishlar haqida gapiradi.

Beshinchi misradagi “*al’oi*” so‘zi toshbosma nusxada “*qal’ayi*” shaklda yozilgan. “*xorijiyini*” so‘zi “*qal’ayi*”ni talab qiladi, ya’ni “tashqi qal’ani” ma’nosini anglatadi.

Toshbosmada:



Navbatdagi misralar nashri quyidagicha:

Bog‘ ichra anor, **anjilu** limu,


¹⁷² Навоий асарлари луғати / Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Ибрлҳимов. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.127.

¹⁷³ Ибрат, Сиддиқий-Ажзий, Сўфизода. Танланган асарлар / Тўпловчи, нашрга тайёрловчи, сўзбоши, луғат муаллифлари: Б. Қосимов, С. Ахмедов, У. Долимов. – Т.: Маънавият, 1999. – Б.178.

Maydonlari har birini ayru.
Shaftolu ila *tarig‘u* bodom,
Pishmish *bari* garchi digari xom¹⁷⁴.

Yuqoridagi baytlarda shoir Samarqand bog‘larini ta’rif-u tavsif qilgan. Ularning go‘zalligi va mevalarning turlari nihoyatda ko‘pligiga alohida urg‘u beradi va ba’zilarini sanaydi. Mazkur baytlarning birinchi misrasidagi “*anjilu*” so‘zi toshbosmada “*naxlu*” shaklida berilgan. Shuningdek, uchinchi misrasi nashrda: “*Shaftolu ila tarig‘u bodom*” shaklda berilgan. Baytlarda asosan mevalar haqida gap borayotganini hisobga olsak, “*tarig*” so‘zi shaftoli, bodom so‘zlari bilan bir mazmuniy uyaga mansub emasligini anglash mumkin. “*Tarig*” so‘zini “*turunju*” so‘zi bilan almashtirsak, shaftoli, turunju(mandarin) va bodom so‘zlari uyadosh so‘zlar hosil qiladi. Shoir she’r misralarida boshqoqli donlar emas, balki bog‘dagi daraxt mevalari haqida mamnuniyat bilan gapirgan. To‘rtinchi misradagi “*bari*” so‘zi ham “*digari*” so‘zi bilan mantiqan bog‘lanmagan. Arab alifbosida “*bari*” va “*biri*” so‘zlari bir xil yozilsa-da, matnda kelgan “*digari*” so‘zi “*bari*” emas “*biri*” bo‘lishini taqozo qiladi. Ya’ni “*digari*” so‘zi fors-tojik tilda “boshqa” ma’nosini beradi. Matn mantiqqa muvofiq tabdil qilinsa, “*Biri pishgan, boshqasi xom*” mazmunini ifodalovchi misra yuzaga keladi.

Toshbosmada:



Xuddi shunday nuqsonlarni quyidagi misralarda ham uchratish mumkin:

Inson badani jahona bengzar,
A‘zo barisi barina yovar.
Boq gar biri o‘lsa noqis a‘zo,
U *azaviy* ish o‘lurmi barpo¹⁷⁵.

Shoir dostonida ilm-u urfon haqida gapiradi va dunyoning shiddat bilan o‘zgarib borayotganini, lekin Turkistonda hech qanday o‘zgarish yo‘qligiga


¹⁷⁴Ko‘rsatilgan manba. – B.178.

¹⁷⁵ Ko‘rsatilgan manba. – B.179.

achinadi. Dunyoni inson badaniga qiyoslaydi va tashbeh san'atidan foydalanadi hamda shu asnoda taraqqiyotni tushuntiradi. To'rtinchi misra nashrda: “U azaviy ish o'lurmi barpo” shaklda berilgan. “*Uzv*” so'zi arabcha bo'lib, inson a'zolarining bir ma'nosini beradi. Inson a'zolaridan birortasi nuqsonli bo'lsa, jismoniy xasta sanaladi. Bizningcha, shoir falsafiy fikr yuritgan. Chunki ikkinchi misraga diqqatni qaratsak, hamma a'zo bir a'zoga “*yovar*” – madadkoridir. O'sha bir a'zo insoning boshi, miyasi o'xshatishni hisobga olsak, aqli ma'nosida. Oxirgi misraga e'tibor bersak “*U uzviy ish o'lurmu barpo*”, shoir aytgan asosiy bir a'zo ishlamasa, hech ish amalga oshmaydi. Shoir bu baytlarda asosan tashbihi izmorni (zamidida o'xshatish bor) qo'llagan.

Zimdan nazarda tutilgan tashbihlar: Dunyo –inson, uzvi – bosh.

Toshbosmada:



Boshqa bir o'ringa diqqat qilamiz:

Aygum sana bir misoli monand,

Mahbubi *g'arizatek* Samarqand¹⁷⁶.

Ikkinchi misradagi “*g'arizatek*” so'zi toshbosmada “*azizatek*” berilgan. Mahbuba (sevgili) so'zi aziz, izzatli bo'lishi tabiiy bir holdir. Arab yozuvida “*aziza*” va “*g'ariza*” so'zlarining shakli bir xil bo'ladi.

Toshbosmada:



Nashr nusxada:

Ilmi hama ixtiro-u hikmat,

Ta'limi ziroat-u tijorat.

Bilgung yasamoq odoti olot,

Moshin ila g'irmofon-u soat.


¹⁷⁶ Ko'rsatilgan manba. – B.179.

Vopur samandu far, tilifo‘n,

Ham hikmatu tilg‘irofu bolun¹⁷⁷.

Dostonda shoir piri komil tilidan ilm haqida fikr yuritadi. Ilmning asl mohiyati ixtiro va hikmatdir, deydi. Ziroat, tijorat, hunar, mashina, g‘iramafon, soatlarni sanaydi va har biri uchun ta‘lim olish lozim ekanligi ta‘kidlanadi. Yuqoridagi beshinchi misra nashr matnida: “*Vopur samandu far, tilifo‘n*” tarzida yozilgan. Bu baytlarda gap texnika taraqqiyoti haqida ketayotganligi bois “samand”, ya‘ni ot so‘zining qo‘llanishi biroz mantiqqa zid. Yuqoridagi misrada moshina so‘zi va nashr matndagi “samand” so‘zidan keyingi “far” bo‘lishligi boshqacharoq yondoshuvni talab qiladi. Texnikaga taalluqli bo‘lgan so‘zni qo‘llasak maqsadga muvofiqroq bo‘ladi va nashrdagi “*Vopur samandu*” birikmasini toshbosmada berilganidek “*Va po‘rshind-u*” tarzida tabdil qildik.

Toshbosmada:




Boshqa bir o‘rinda:

Mansumi pombarxu barsim,

Maktabda o‘lur tamomi ta‘lim¹⁷⁸ –

baytda berilgan “*mansumi*”ni “*mansuja*” – to‘qimoq, “*pombarxu*”ni “*pombuqu*” – paxta, “*barsim*”ni “*barshim*” – “ipak” arabcha so‘zlari bilan almashtirsak, bayt mazmuni oydinlashib, satrlarda ifodalangan g‘oyani anglash osonlashadi.

Toshbosmada ham biz o‘qigan shaklda yozilgan:



Nashr nusxada:

Bilmazmisan *u* Mustafoni,

Payg‘ambaru *rasul* Xudoni¹⁷⁹.


¹⁷⁷ Ko‘rsatilgan manba. – B.182.

¹⁷⁸ Ko‘rsatilgan manba. – B.183.

¹⁷⁹ Ko‘rsatilgan manba. – B.184.

Nashr matnida toshbosmadagi “*amr*” so‘zi “*u*” shaklda yozilgan. Ikkinchi misradagi “*mursal*” so‘zi ham nashrda “*rasul*” tarzida yozilgan.

Toshbosmada:



Baytning

Bilmazmisan *amri* Mustafoni,

Payg‘ambari *mursali* Xudoni –

tarzida o‘qilishi bayt mazmunini oydinlashtiradi.

Boshqa bir bayt nashrda:

Dunyo ishi aylading *aroda*,

O‘lmak na emish xayola olma¹⁸⁰.

Baytning birinchi misrasida berilgan “*aroda*” so‘zi toshbosmada “*iroda*” shaklda yozilgan. Baytning mazmun-mohiyatiga qaraydigan bo‘lsak, “*iroda*” shaklda berish to‘g‘ri bo‘ladi. Baytning mazmuni: “*Dunyoni xohladingmi, o‘limni o‘ylama*”.

Toshbosmada:



Bing uch yuz o‘tuz bir erdi ta’rix,

Erdi u zamon *hilola taslix*¹⁸¹.

Shoir dostonning yozilish ta’rixini hijriy yil hisobi bilan 1331-yil va “hilola taslix” deydi. “Taslix” arabcha so‘z bo‘lib, “so‘yishlik” ma’nosini bildiradi, ya’ni so‘yishlik halol bo‘lgan oyda vafot etdi. Hijriy yilni milodiyga quyidagicha aylantiramiz.

$$1331:33=40$$


$$1331-40=1291$$

$$1291+621=1912$$

Toshbosmada:

¹⁸⁰ Ko‘rsatilgan manba. – B.184.

¹⁸¹ Ko‘rsatilgan manba. – B.184.



Demak, dostoning fors-tojik tilidagi asl nusxasini shoir milodiy 1912-yilda yozib tugatgan.

Dostonda bundan keyingi voqealar lirik qahramon uygʻongandan keyin kechadi. Lirik qahramon bahor payti otga minib dala-yu dashtning havosidan baharamand boʻlish maqsadida safarga chiqadi.

Nashr nusxada:

Ban sabza nazorasi-la dilshod,
Dil shod-u *qaygʻu* gʻamdin ozod¹⁸².

Bu baytning ikkinchi misrasidagi “*quyud*” soʻzi nashrda “*qaygʻu*” shaklda yozilgan. “*Quyud*” arabcha soʻz boʻlib, “zanjir, kishan, gʻul, band” kabi maʼnolarni bildiradi.

Toshbosmada:



Nashr nusxada:

Masrur oʻlub u Xizr axloq,
Jodugar fariyu ofoq¹⁸³.

Dostondagi lirik qahramon uygʻonib oʻziga kelgandan keyin oʻzida yoʻq xursand boʻladi. Nashr nusxadagi “*fariyu*” soʻzi toshbosmada “*faridi*” shaklda berilgan. “*Farid*” soʻzi arabcha boʻlib, “bitta, yagona” degan maʼnoni bildiradi. “*Fariyu*” soʻzi bayt mazmunini ochishga xalal beradi. “*Jodugar fariyu*” birikmasini asl manbadagi singari “*Judu karama faridi*” tarzida tabdil qilinganda quyidagicha mazmun anglashiladi: “*Xizr axloqli kishi xursand boʻldi, u saxovat va karamda ufqlarda yagona erdi*”.

Tuzatilgan tabdilni qiyoslash uchun toshbosma matnga eʼtiboringizni qaratamiz:

¹⁸² Koʻrsatilgan manba. – B.185.

¹⁸³ Koʻrsatilgan manba. – B.186.



Nashrda berilgan misralarni kuzatishda davom etamiz:

Bodom ila sarv, naxl-u limo‘,
Maydoni o‘lub bular-la *malu*.
Shingarfa qizil guli verub *o‘d*,
Yosminidan xijil edi sud¹⁸⁴.

Shoir yana dostonida Samarqand bog‘larining go‘zalligini maqtab bunaqasi Xitoyda ham yo‘q va bahavoligi jannatdek, deydi. Nashrda ikkinchi misradagi oxirgi “*mamlu*” so‘zi “*malu*” tarzida yozilgan. Bitta “m” harfining tushib qolishi ma’noga ta’sir qilgan va bayt mazmuni tushunarsiz bo‘lib qolgan. “*Bog‘ bodom, sarv, xurmo, limonlar bilan to‘lgan*”. Ikkinchi baytdagi birinchi misra oxiridagi “*ud*” so‘zi nashrda “*o‘d*” yozilgan. Bu yerda “u” harfi o‘rniga nashrda “o” harfi yozilgani ma’noga ta’sir qilgan. Qizil gul hech qachon o‘zidan “*o‘d*” o‘t, olov chiqarmaydi, ammo “*ud*” hushbo‘y hid taratadi. Ikkinchi misradagi “yosmin” (yosuman) so‘zi oppoq bo‘lib gullovchi gul. Misra mazmuni: “*Yosumanning oppoqligidan sut ham xijolatda edi*”.

Toshbosmada:



Yana bir misol. Nashrda berilgan misralarni kuzatamiz:

Nayrangdin ayladim savolin,
Kim so‘ylaya bu jamoa holin.
Kimdur bu jamoi parishon,
Bazinami yoki jinsi inson¹⁸⁵.

Dostondagi lirik qahramon safar payti ot bilan daryoga qulaydi va u yerda bir qancha ajoyibotlarni ko‘radi. Ko‘rgan narsalarini aqliga sig‘dira olmasdan ba’zi bir savollarni sherigidan so‘raydi. To‘rtinchi misradagi so‘z nashrda “*bazina*”

¹⁸⁴ Ko‘rsatilgan manba. – B.186.

¹⁸⁵ Ko‘rsatilgan manba. – B.188.

shaklida yozilgan. Bu soʻz oʻrniga **“Boʻziynami”** soʻzini asl manbaga muvofiq oʻqish lozim edi. **“Boʻziyna”** forscha maymun degan maʼnoni bildiradi. U yerdagi odamlarning holatini koʻrgan lirik qahramon **“maymunmi yoki inson”** deb hayratlanadi.

Toshbosmada:




Nashrdagi misralar:

Passaj edi Chorsu yerina,
 Har **jannati** bengzab u birina.
 Atrofini chashmayi safoyi,
 Kavsar suyi yangli bosafoyi.
 Mahsur edub Hisor doshinda,
 Dufrogʻa u suv **ketardi** boshdan¹⁸⁶.

Doston qahramoniga Samarqand shahrini koʻrsatadilar, shahar haqiqatda shoir orzu qilganidek mukammal edi. Yuqoridagi ikkinchi misradagi **“jonib”** tomon maʼnosini bildiruvchi soʻz nashrda **“jannati”** shaklda yozilgan. Oltinchi misradagi **“gedardi”** soʻzi nashrda **“ketardi”** tarzida yozilib, bayt mazmuniga taʼsir etmasa-da, asar til uslubiga putur yetkazgan. Agar **“ketardi”** soʻzi **“gedardi”** shaklida yozilsa, asarning til uslubi ham saqlangan boʻlardi.

Toshbosmada:



Quyidagi misralarga eʼtibor beramiz:

Ilmi **ala** olmoq va fununni,
 Davlatni, lisoni va zakunni.¹⁸⁷

¹⁸⁶ Koʻrsatilgan manba. – B.189.

¹⁸⁷ Koʻrsatilgan manba. – B.191.

Birinchi misradagi “*ala*” so‘zi toshbosmada “*ila*” shaklida yozilgan.

Toshbosmada:



Umuman, tahlillardan ma’lum bo’lmoqdaki, “Mir’oti ibrat” dostoni matnshunoslik nuqtayi naziridan tadqiq qilinishi va qayta nashrini amalga oshirish zarur. Doston o‘z davrining ijtimoiy ahvoli va odamlarning dunyoqarashi, turmish tarzi hamda dunyo tamaddunidan ma’lumot beruvchi didaktik asardir. Bu asar bugungi kunda ham qadr-qimmmatini yo‘qotmagan. Asar yoshlarni ilm olishga undashi bilan hozirgi avlod tarbiyasi uchun ham zarurdir. Hozirgi vaqtda “ommaviy madaniyat” niqobi ostida butun dunyo xalqlarini tahlikaga solayotgan xavf, ya’ni axloqsizliklarning oqibatini anglashda dasturul amal bo‘ladigan qimmatli asardir. O‘sha davridayoq Ajziy ijodidan ta’sirlangan ijodkorlar bo‘lgan. Bu esa Sayidahmadxo‘ja Siddiqiy-Ajziyning o‘zbek va fors-tojik adabiyotida o‘z ta’siri va o‘rni borligini ko‘rsatadi.

II bob bo‘yicha xulosa:

1. Siddiqiy-Ajziy lirik merosi toshbosma manbalari matnining joriy nashrlar bilan qiyosiy tahlili shoir asarlarining muallif variantiga yaqin matnlarini tiklash imkonini bergani bilan ahamiyatlidir.

2. “Oyna”, “Mashrab” jurnallari, “Aynu-l-adab”, “Ganjinayi hikmat” asarlari toshbosmasi va Siddiqiy-Ajziy “Tanlangan asarlar”idagi matnlar qiyoslanib, yangi 15 ta g‘azal, 1 ruboiy, 1 ta muxammas, 1 ta tarje‘band, 1 marsiya, 1 ta’rix va 1 ta fard ilk bor ilmiy istifodaga olib kirildi va mazkur manbalardagi g‘azal, muxammas, ruboiy, masnaviy, munojot, ta’rix, marsiya singari janrlardagi she’rlarining matn tarixi va tahriri masalasi ilmiy asoslandi.

3. “Oyna” jurnalida shoirning “Ismoilbek hazratlari yodig‘a” sarlavhali she’ri 8 misra holda berilgani, aslida “Aynu-l-adab” she’riy to‘plamida esa mazkur she’r 13 band (104 misra) ekanligi aniqlanib, to‘liq matni tiklandi.

4. “Mir’oti ibrat” dostonidagi matniy tafovutlar *toshbosmani nashrga tayyorlash jarayonidagi kotib xatolari; nashr nusxalaridan tushib qolgan baytlar;*

xato o‘qilgan so‘zlar va texnik nuqsonlar kabi tasnif asosida o‘rganildi. Jumladan, kotiblar faoliyati bilan bog‘liq harflardagi nuqtalarning, so‘zlardagi harflarning tushib qolishi, joriy nashrlar misralaridagi so‘zlarning tushib qolishi, misralar o‘rning almashishi, forscha, arabcha izofalarning xato o‘qilishi bilan bog‘liq nuqsonlar tuzatildi.

5. “Mir’oti ibrat” dostoning 1993-yilda Jo‘ra Xudoyberdiyev tomonidan amalga oshirilgan nashri 808 misra, Siddiqiy-Ajziy “Tanlangan asarlar”ining 1999-yil nashrida “Mir’oti ibrat” dostoni 820 misra holda berilgan. Biroq dostonning toshbosma nusxasida 824 misra ekanligi aniqlandi.

III BOB. SIDDIQIY-AJZIY IJODINING MAVZU KO‘LAMI VA MATN XUSUSIYATLARI

3.1. Shoir nazmiy asarlarining mavzuvii tasnifi va tahlili

Jadidlar Vatan va millatni jahonning mutaraqiy davlatlari darajasida yuksaltirish, buning uchun jamiyat hayotining barcha jabhalarini isloh etish g‘oyasini kun tartibiga qo‘ydi. Bu murakkab va mas‘uliyatli vazifani munosib ado etmoq uchun millatni uyg‘otish, yosh avlod qalbiga jadidchilik g‘oyalarini singdirish zarur edi. Jadidlar badiiy adabiyotni ana shu maqsadga yo‘naltirdi. Jadid adabiyotining atoqli namoyandasi Siddiqiy-Ajziy she‘riyatini tadqiq etishda ana shu mezonda yondashmoq kerak.

Shoir adabiy merosining mavzu ko‘lami va janrlar qamrovi ancha keng. Shoirning 1914-1916-yillarda bosilib chiqqan o‘zbekcha she‘rlari jamlangan “Aynu-l-adab” (“Odob bulog‘i”), tojikcha she‘rlaridan tuzilgan “Ganjinayi hikmat” (“Hikmat xazinasi”) to‘plamlari, “Mir‘oti ibrat”, “Anjumani arvo‘h” dostonlari, davrning dolzarb muammolari yoritilgan publitsistik asarlari, Gogolning “Shinel” asari tarjimasi va bir qancha hikoyalari ushbu fikrni tasdiqlaydi. She‘rlari Kavkazda nashr etilib turgan “Mulla Nasriddin”, “Dirilik” jurnallarida chop etilgani uning turkiy dunyodagi e‘tirofiga dalildir. Ijodkorning “Mir‘oti ibrat” asarini o‘qigan xo‘jandlik Toshxo‘ja Asiriy qattiq ta‘sirlangan va unga javoban “Timsol”i Asiriy dar javobi “Mir‘oti ibrat” Ajziy Samarqandiy” nomli she‘riy asarida Siddiqiy-Ajziy iste‘dodiga yuksak baho berib, uni “farxunda fitrat” deya ta‘riflaydi.

Rahim Hoshim (Tursunqul) esa bunday yozadi: “Siddiqiy mafkura va o‘ylashda o‘z chog‘dosh (muosir) maslakdoshlaridan yuqorida turadi. Ul san‘atda, adabiy ijodda ham o‘z davri shoirlaridan oldindadir. Ul eski adabiyot bilan yangi jadid adabiyoti orasida bir ko‘prik tashkil qiladi va eski usulning shirin va yoqimli havolari bilan o‘zining yangi navolarini eshittirmakchi bo‘ladi. Siddiqiy jadid

shoirlari orasida xayol jihatdan boy, mustag'niy bir siymodir. Uning xayoli keng, dunyoni ko'rishi atrofli, ko'zining ufqi vus'atlidir"¹⁸⁸.

XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida yashab ijod etgan samarqandlik ziyolilar ijodida diniy mavzudagi she'rlardan tortib, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'rifiy mavzulardagi asarlargacha uchratish mumkin. O'tgan asrning 20-yillarigacha bo'lgan davrdagi tazkira, bayoz va majmualarga kiritilgan Muftaqir, Taslim, Vasliy Samarqandiy, Behbudiy, Siddiqiy-Ajziy singari shoirlar ijodidan berilgan namunalar buning dalilidir.

Siddiqiy-Ajziy taraqqiyparvar shoirlar Mahmudxo'ja Behbudiy, Saidahmad Vasliy, Sadridin Ayniy, Abdulqodir Shakuriy va Vadud Mahmud singari ko'plab shoir va maorifchilar bilan adabiy hamkorlik qilgan.

Turkiston o'lkasida birinchilar qatorida usuli jadid maktabi ochgan Abduqodir Shakuriy adabiyot va axloq mashg'ulotlariga oid she'r va hikoyalar yozib berishni Siddiqiy-Ajziydan iltimos qiladi. Vadud Mahmudning faxr bilan eslashicha, Ajziy har bir ishda Abduqodir Shakuriyning eng yaqin maslahatchisi, "o'ng qo'li" bo'lgan ekan. Ajziy o'sha maktabda ilmga chanqoq yoshlarga rus tilidan saboq ham bergan. Vadud Mahmud ham Ajziyning sevimli shogidlaridan biri bo'lgan.

Adabiyotshunos Bahodir Karimov davr manzarasi haqida quyidagicha yozadi: "XX asr boshida yuzaga kelgan ijtimoiy turmishdagi o'zgarishlar, uyg'onish kayfiyati adabiyotda o'z ifodasini topishi lozim edi. Shunga ko'ra, klassik adabiyotning mavzu doirasi kengayib, Iloh, Haq va Yor vasfidan asta-sekinlik bilan ijtimoiy muammolar ifodasiga o'ta bordi. Ijtimoiy muammolarni shular bilan chambarchas aloqada talqin etish yo'lini tutdi. Adabiyotimiz tarixidagi bu jarayonga san'at olamidagi yuksalishdan ko'ra davr majburiyati sifatida qarash to'g'ri bo'ladi. Bu davrda ma'rifat tarqatish, millatni tarbiyalash va jamiyatni isloh qilish adabiyotniing asosiy mavzusi va maqsadiga aylandi. So'fizoda, Siddiqiy-Ajziy, Abdulla Avloniy, Sidqiy Xondoliqiy, Tavallo, Hamza Hakimzoda Niyoziy

¹⁸⁸ Хошим Р (Турсунқул). Сиддиқий тўғрисида мулоҳазалар // Маориф ва ўқитғувчи. 1928. №3. – Б.42.

kabi ikki davrga ko‘prik bo‘lmish shoirlar ijodida o‘sha adabiy voqelikni kuzatish mumkin”¹⁸⁹.

Bizningcha, Siddiqiy-Ajziyning she‘rlarining mavzu ko‘lamini shartli ravishda quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Ijtimoiy lirika.
2. Ilmiy-ma‘rifiy mavzudagi she‘rlar.
3. Ishqiy she‘rlar.

Ijtimoiy lirika. Shoir ijodida davrning dolzarb muammolariga bag‘ishlangan ijtimoiy mavzudagi she‘riy asarlari salmoq jihatdan ko‘p. Shoirning ijtimoiy mavzulardagi she‘rlaridan birida Rusiyaning mustamlaka siyosatini qattiq qoralaydi. Istibdod iskanjasida qolgan millat ahvolidan iztirobga tushadi. Shoirning Islom millatiga otilgan toshlardan dili og‘rigan:

Kavkablaring-la millati isloma otma dosh,
Bag‘rin jarohati dilamaz shimdidin xarosh¹⁹⁰ –

satrlarini tahlil etar ekan, Vadud Mahmud shunday yozadi: “Jadidlik davrining eng birinchi faoliyati xalqni – millatni ma‘rifatga yetishtirmakdan iborat edi. Bu davr maorifchilik davri atalsa ham muvofiq bo‘lur. O‘ris millatchilik zaharli zaxmlari Ajziyning bag‘rig‘a chuqur izlar qoldurg‘ondur. U har vaqt elning qonli panjalar ostida qolishidan zorlanadur, har tamong‘a qarasa, shuni ko‘radur, har voqeadan shuni istixroj etadur. Yulduzlar Ajziyga elining bag‘rig‘a otilg‘on toshlardur”¹⁹¹.

Jadid she‘riyati ijtimoiy-siyosiy mavzuni yetakchi mavqega ko‘targani bilangina emas, mumtoz adabiyotdagi an‘anaviy obrazlarni yangilagani, ularga tamomila o‘zgacha mohiyat yuklagani jihatidan ham alohida ahamiyatga ega. Jumladan, an‘anaviy gul, bulbul obrazlari jadid shoirlari uchun oshiq va ma‘shuqa timsolini emas, istibdod girdobida qolgan millatning ahvolini ifodalashga xizmat qildi. Ajziyning mana bu satrlaridagi lola obrazi ham ayni shu xususiyati bilan xarakterlanadi:

¹⁸⁹ Каримов Б. Жадид мунаққиди Вадуд Маҳмуд. – Т.: Университет, 2000. – Б.23.

¹⁹⁰ Siddiqiy-Ajziy. Tanlangan asarlar / Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi, lug‘at-izohlar muallifi: T.Shaymardonov. – Т.: Fan va ta‘lim, 2022. – В.140. (Bundan keyingi tahlildagi she‘rlar ushbu manbadan olingan)

¹⁹¹ Маҳмуд В. Танланган асарлар / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, луғат ва изоҳлар муаллифи: Б.Каримов. – Т.: Маънавият, 2007. – Б.66.

Ko‘randa lola yafrog‘in gumon etmak chamandur bu,
Lisoni holi harfi darsi ibrat, anjumandur bu.
Shahidi xanjari ishq i vatanlar laxta qonidin,
Ko‘rinmish pardayi nomus-lan xunin kafandur bu.

Ya‘ni ko‘rib turganimiz lola yaprog‘ini chaman deya gumon etmang. U hol tili bilan ibrat darsini berayotgan anjumandir. U (lola yaprog‘i) Vatan ishqida shahidlik xanjaridan oqqan laxta qon, nomus pardasida ko‘ringan xuni kafan. Ko‘ngil dardlarini ifodalashda shoir obrazli tasvirdan mahorat bilan foydalangan.

Bulbul obrazi badiiy mantiqqa ko‘ra gul obrazini taqozo etadi. Shoir talqinicha, gulshan sahnidagi qizillikni gul yaprog‘ining rangi deb gumon qilmaslik kerak, u nohaq to‘kilgan qonlardan qizargan Vatan tuprog‘idir. Ushbu tasvir ijodkorning zamon voqeligining, istibdod siyosatining mohiyatini chuqur tushunganidan, vatandoshlarining qoni nohaq to‘kilayotgani bois qalbi iztirobga, alamga to‘lganidan dalolat beradi:

Bu gulshan sahnida gul yafrog‘i rangi gumon etmang,
Qizormish xuni nohaq rangidin xoki vatandur – bu!

Shoirning ko‘z o‘ngida qizarib yotgan “gulshan” – vatan tuprog‘idir. Bu tuprog‘ nohaqlik, jabr-zulm dastidan qizargan, qizil gul rangini olgan. Ya‘ni Vatan tuprog‘i qip-qizil qonga bo‘yalgan. Shoirning bunday tasviriga ijtimoiy muhitdagi tengsizlik sabab bo‘lgan. Mustamlakachilarning nohaqliklari, jabr-zulmlari shoirni iztirobga soladi. Bu davr manzaralarini Tursunqul quyidagicha yozadi: “1900-yildan boshlab Rusiya hukumati Turkistonda to‘g‘ridan to‘g‘ri mustamlakachilik siyosatini yurgiza boshladi. Qirg‘iz dehqonlarining munbit va hosillik yerlari qo‘llaridan olinib, o‘zlari suvsiz dalalarga haydaldilar. Turkistonning bir ko‘b joylariga rus mujiklari keltirilib joylashtirildi. Muxojirotni yil sayin kuchaya bordi”¹⁹². Mazkur achchiq haqiqat birgina Ajziy she‘ri yoki Tursunqulning maqolasida ifodalangan emas, balki barcha sergak-hushyor ziyolilarning e‘tiborini tortgani haqiqatdir.

¹⁹² Xo‘shim P (Tursunqul). Siddiqiy tўғrisida muloҳazalar // Maorif va ўқитғувчи. 1928. №3. – Б.42.

To‘rtinchi baytda shoir Vatan sarhadlariga, shahar-qishloq va yo‘llariga nazar tashlar ekan, uning ko‘chalarini, rastalarini taqdirning Vatan bag‘riga solgan tiliklariga o‘xshatdi. Zolimlarning zulmidan zorlangan mazlumlarning nigohlaridan chok-chok bo‘lgan badanga qiyoslaydi:

Diliklardur so‘qoqu rastalar gardun xaroshidin,

Tazallum novakidin yo‘qsa chok o‘lmish badandur bu.

“Diliklardur” so‘zi “tiliklardir” degan ma‘noda, ya‘ni “tilingan”, “kesilgan” mazmunida. Siddiqiy-Ajziy she‘rlarining tilida ozarbayjon va usmonli turk tilining ta‘siri kuchli seziladi. Ushbu so‘zda ham ozarbayjon tili ta‘sirida “t” undoshi o‘rniga uning jarangli jufti “d” undoshi qo‘llangan.

“So‘qoq” so‘zi “ko‘cha” ma‘nosida. Bu arab tilidagi “zo‘qoqun” (زُقَاقُ) “ko‘cha” so‘zining turk tiliga moslashtirilgan talaffuzidir¹⁹³.

Beshinchi bayt:

Sariqlar sohibin ko‘rduqcha quvvatlatma ummiding,

Tamaddun, ma‘rifat, urfon yo‘lida rohzandur bu.

Sariqlarning, ya‘ni ruslarning xo‘jayinligini ko‘rib umidingni quvvatlantirma. Ular madaniyat, ma‘rifat va irfon yo‘lida to‘siq bo‘luvchi qaroqchidir.

Oltinchi bayt:

Jiloyi zohir dorulfununining o‘lma maftuni,

Tag‘obun so‘i ta‘siri ilan dorul mihandur bu.

“Jiloyi zohir dorilfununi” so‘z birikmasidan murod – dunyo va uning jilvalaridir. Ikkinchi misradagi “Tag‘obun” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi esa “bir-birini aldash”, “bir-biriga ziyon etkazish”dir¹⁹⁴.

Qur‘oni Karim suralaridan birining nomi ham “Tag‘obun” deb nomlangan. Qiyomat kunining nomlaridan biri ham shunday deb ataladi¹⁹⁵.

“Dorul mihan” so‘z birikmasidagi “mihan” so‘zi ikkita ma‘noni anglatadi: 1) مِحْن – shaklida bo‘lsa, “sinov”, “imtihon”, “mashaqqat”, “qiyinchilik” ma‘nolarini

¹⁹³ Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – М.: Русский язык. 1984, стр. 331.

¹⁹⁴ Қуръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима / Таржима ва изоҳлар муаллифи: Шайх Алоуддин Мансур. – Бишкек, 2001. – 768 б.

¹⁹⁵ Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – М.: Русский язык. 1984, стр. 556.

bildiradi¹⁹⁶; 2) مِهْن – shaklida esa (birlik shakli مِهْنَةٌ – mehnatun) hozirgi tilimizda biz qo‘llayotgan ma‘noda, ya‘ni “mehnat”, “kasb”, “hunar”, “malaka” ma‘nolarini anglatib keladi¹⁹⁷.

Zohir dorilfununining jilvalariga, ya‘ni dunyoning ko‘rinib turgan, kishini o‘zi jalb qiladigan jilvalariga maftun bo‘lmasin. Dunyo maydoni insonlarning bir-birini aldash, bir-biriga ziyon yetkazishning yomon ta‘siri natijasida mashaqqat – qiyinchiliklar uyiga aylanib qolgan.

Shoir butun g‘azal davomida fikrlarni bir-biriga bog‘lab, tizimli bayon etadi. Ya‘ni millat boshiga, yurt ustiga tushgan falokat – musibatlarning ildizlarini, manbalarini topishga harakat qiladi. Badiiy timsollar, o‘rinli o‘xshatishlar bilan yurt – Vatan ahvolini, uning fojeali manzarasini chizadi. Va nihoyat ushbu maqta‘dan oldingi baytda o‘z xulosasini aytadi.

G‘azal maqta‘sida esa shoir ritorik so‘roq bilan o‘z fikrini yakunlamoqda:

Kesilmak millat islomi dasti sa‘yi, ey Ajziy,

Falokat mazhari o‘lmoq nedandur bu, nedandur bu?!

Mazmuni: *“Islom millatining harakat qo‘llari kesildi. Ey Ajziy, bunday falokatga yo‘liqish nima tufayli bo‘ldi, nima tufayli bo‘ldi?!”*

Bunday xulosaga Siddiqiy-Ajziy bejizga kelmagan. U yer yuzidagi, turli millatlardagi siyosiy ahvoldan yaxshi xabardor bo‘lgan. XX asr boshidagi Yevropa millatlarining Sharqdagi, xususan, musulmon Sharqidagi makkorona mustamlakachilik siyosatining mohiyatini chuqur tushungan.

Shoir andalib – *bulbul* obraziga ham yangicha ma‘no yuklaydi. Bu obraz mohiyatini yangilar ekan, fikr ta‘sirchanligini oshirish maqsadida uni *zog‘ – qarg‘a* va *chug‘z – boyo‘g‘li* obrazi bilan qarama-qarshi qo‘yadi. Bulbullar o‘rnini zog‘lar egallagani, bu mustamlaka siyosatiga ishoradir. Shoir o‘zi yashagan davr ijtimoiy voqeligini tagdor, tig‘dor satrlarda badiiy talqin etadi:

Na andalib faqat masti jomu bodayi zavq,

Har oshyonda bukun xurram o‘ldi cho‘g‘z ila zog‘.

¹⁹⁶ Навоий асарлари луғати / Тузувчилар: Шамсиев П., Иброҳимов С. – Т.: Фафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1972. – Б.395.

¹⁹⁷ Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – М.: Русский язык. 1984, стр. 772.

“Obrazda yangilik qilish shakldagiga qaraganda ancha murakkab, – deb yozadi professor Nurboy Jabborov. – Lekin she’riyatning chin ma’noda yuksalishi ana shu poetik hodisaga ko‘proq bog‘liq”¹⁹⁸. An’anaviy obrazlarni poetik yangilashdek anchayin murakkab, alohida mahorat talab etadigan ijodiy yumushni yuksak darajada ado etgani Siddiqiy-Ajziyning ijodkor sifatidagi salohiyatiga dalil bo‘la oladi.

Quyidagi satrlarda ham shoir an’anaviy bulbul obraziga yangicha – millat dardi bilan bog‘liq ijtimoiy ma’no yuklaydi:

Bulbuli xoknishin etdi guliston shavqi,
Qafasi hajrda ra’noyi Eramdandur dog‘.
Bodayi hirs ila arbobi karamdur sarxush,
Ajziy, bu borada arbobi karamdandur dog‘.

Guliston shavqini orzu etsa-da, maskani tuproq bo‘lgan, Eram bog‘idagi ra’no guliga yetisha olmay hajr – ayriliq qafasiga tushganidan dog‘da qolgan bulbul obrazi tasvirlangan she’rda. Tarixda shoni-sharafi yuksak bo‘lgan, hur va ozod yashashga, taraqqiyotning yuksak cho‘qqilarini zabt etishga munosib bo‘la turib mustamlaka zulmi ostida ezilayotgan, haq-huquqi poymol etilgan millatning o‘sha kezdagi ahvoli ta’sirli ifodalangan.

Millatning tubanlashuvi, boshiga tushgan og‘ir savdo va kulfatlar, fojealar sababini quyidagi baytda shunday bayon etadi:

Na o‘ldi millat o‘lib etibordan mahrum,
Bu yo‘lda maslak bee’tibordir bois.

Millat e’tibordan chetda qolib ketgan, chunki uning maslagi aniq emas. Shoir davr qayg‘usidan azob chekib, o‘ziga hamdard xalqni topish ilinjida. Biroq “nodon qavm”ning balolariga giriftor bo‘layotir.

Shoirning “Mashrab” jurnali 1925-yil 19-sonida chop etilgan “Boshimdan o‘tganlar” she’ri tagiga “Shashpar” taxallusi qayd etilgan. Bu – Ajziy taxalluslaridan biridir. She’r hajviy asar bo‘lib, bir amaldor tovlamachining tilidan yozilgan. She’r qahramoni go‘yo o‘z boshidan o‘tganlarni birma-bir hikoya qilib

¹⁹⁸Jabborov N. Zamон, мезон, шеърият. – Т.: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2015. – Б.36.

beradi va shu jarayonda o‘z-o‘zini fosh qiladi. She‘r Ahmad Yassaviyning avtobiografik xarakterdagi mashhur “Mano” radifli to‘rtliklar shaklida yozilgan asarini eslatadi. She‘r quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Oyo do‘stlar, birodarlar, quloq soling!
Ko‘p qatori bu dunyoga keldim mano.
Ko‘rdim dunyo odamlari ahmoqdirlar,
Shayton bilmas nag‘malarni qildim mano.

She‘rning dastlabki misralaridan ko‘rinib turibdiki, asar qahramoni salbiy obrazdir. Keltirilgan bandning oxirgi misrasidagi “Shayton bilmas nag‘malarni qildim mano” jumlasidan lirik qahramonning keyingi qilmishlariga ham ishora mavjud. She‘r davomida hikoyachi, ya‘ni lirik qahramon o‘zining 16 yoshgacha maktabga bormagani, 16 yoshga yetgach xat tanigani, so‘ng o‘qishni yig‘ishtirib pul topishga berilib ketganini so‘zlab beradi. Pul topish yo‘lida turli ko‘chalarga kirgani – Oqsoqolga mirzo bo‘lib xizmat qilgani, so‘ng unga yacheykalik amali tekkani, bu amalda turganida xalqning haqqini o‘zlashtirib, tuzukkina mol-dunyo to‘plaganini so‘zlaydi:

Oxir manga yacheykalik amal tegdi,
E‘tiborim katta, ishim dur-dur bo‘ldi.
Har tomondan tanga keldi, kissam to‘ldi,
Otu ho‘kiz, qo‘yu sigir oldim mano.

She‘rda sovet hokimiyatining dastlabki yillarida xalqni har tomondan talash yo‘lida “jonbozlik” ko‘rsatgan, shu tizimning xizmatkori bo‘lgan kichik bir amaldorning kirdikorlari o‘z tilidan fosh etiladi. Bu amaldor xalqdan yig‘ilib, hukumatga topshiriladigan soliqqa mas‘ul shaxs ekanligi she‘r mazmunidan anglashiladi. Yig‘ilgan pullardan katta qismini o‘zlashtirib, hukumat xazinasiga esa oz miqdorini topshirganini ta‘kidlaydi. O‘zlashtirgan pullarning 550 so‘miga katta hovli sotib oladi:

O‘lpon terib topshirmoqqa vakil bo‘ldim,
Olg‘on puldan xazinaga oz topshirdim.
Hamyon ichra shul pullardan ko‘proq urdim,

Besh yuz ellik so‘mga hovli oldim mano.

Asar qahramoni hukumat uchun yig‘ilgan soliq pullaridan katta qismini o‘zlashtirish bilangina cheklanmaydi. U amaldor. Binobarin xalq ichidagi ko‘pgina tadbirlar, to‘y-marosimlarini o‘tkazishga ham mas’ul. U mana shu imkoniyatni ham qo‘ldan boy bermaydi. To‘y egalaridan turli sabablarni bahona qilib, pul talab qiladi. Agar pul berishmasa, har xil vajlar bilan to‘ylarni buzadi:

Birov xotin olmoq uchun to‘y berganda,
Oqshom nikoh qilmoqqa el yig‘ilganda,
Sakkiz chervon talab qilsam bermaganda,
To‘yni buzib, majlis ahlin quvdim mano.

She’r o‘zini o‘zi fosh qilish uslubida yozilgan. Chunki insonning qilmishlarini hech kim o‘zichalik yaxshi bilmaydi. Ayni shu uslubdan mumtoz shoirlarimizning ko‘pchiligi foydalangan. Jumladan, Zavqiy, Zoriy va Furqatlar o‘zlarining Qo‘qon xoni Xudoyorxon haqidagi muxammaslarida o‘zini o‘zi fosh etish usulidan foydalanganlar¹⁹⁹ va xonning kirdikorlarini uning o‘z tilidan bayon qilganlar.

She’rning oxirida hikoyachi qilmishlari o‘zining boshiga yetib oqibatda rasvoyi jahon bo‘lganligini afsus-nadomat bilan so‘zlaydi. Unda yaxshilik qilishga va yomonlikdan qaytarishga imkoniyat bor edi, lekin u bu yaxshi yo‘lni tanlamadi, aksincha yomon yo‘lni tanladi:

Yomonlikdan man’ qilg‘onni yomon ko‘rdim,
Yaxshilikdan yomonliqni yaxshi ko‘rdim.
Hukumatning qonuniga qarshi turdim,
Shul sababdan yomon kunda qoldim mano.

Ushbu bandning dastlabki ikki misrasida shoirning badiiy mahoratini yaqqol ko‘rish mumkin, ya’ni bu ikki misra aforizm darajasidagi baytga, to‘g‘rirog‘i shohbaytga aylangan. Bir so‘zning takror qo‘llanishidan takrir san’ati, zid ma’noli so‘zlarning qo‘llanishidan tazod san’ati yuzaga kelgan.

¹⁹⁹ Абдуллаева Д. Усмонхўжа Зорий ҳаёти ва ижоди. Фил. фан.номз... дисс. – Т., 2003. –Б.100-103.
Дехқонов А. Муҳаййирнинг ҳаёти ва ижоди. Фил. фан.номз... дисс. – Т.: 2007. –Б.51-52.

Navbatdagi band yuqorida aytilganlarning xulosasi o‘laroq jaranglaydi, ya’ni poraxo‘rlik, qalloblik, zulm-zo‘ravonlik jamiyatda ommaviy tus olganligini bayon qiladi:

Man bilaman bir man o‘zim shundog‘ emas,
Mandan boshqa manga o‘xshash kamrog‘ emas.
Man o‘ylagan ma’lum bo‘ldi andog‘ emas,
Andog‘ emasligin holo bildim mano.

Shoir ushbu she’rda yangi barpo bo‘layotgan sovet jamiyatidagi ijtimoiy illatlarni fosh qilgan. Bu jamiyat boshidanoq poraxo‘rlik, xalqni talash, davlat mulkini o‘zlashtirish asosiga qurilayotganligini shoir g‘oyat ziyraklik bilan ko‘ra olgan.

Siddiqiy-Ajziy bu she’r yozilgan paytda yoshi ancha ulug‘ bo‘lgan. U XIX asr so‘nggi choragi va XX asr boshlaridagi ijtimoiy hayotdagi ahvolni, bu davrdagi jamiyat a’zolari hayotini ko‘rgan, bu davrda yashagan. U dunyo ko‘rgan, jahonning turli mamlakatlarida bo‘lgan, turfa ellar, turfa millatlar va jamiyatlarni ko‘rgan turli toifadagi insonlar bilan muloqotda bo‘lgan. Shuning uchun unga bu jamiyatda bo‘layotgan ishlar – zulm, zo‘ravonlik, qalloblik, aldov, firibgarlik kabilar yaqqol ko‘rinib turgan.

Ilmiy-ma’rifiy mavzudagi she’rlar. Asosan, ijtimoiy mavzuda she’rlar yozgan Siddiqiy-Ajziyning ilmiy-ma’rifiy mavzudagi she’rlari ham anchagina. Shoir ilm-u irfonni egallash millat saodatining asosi ekanini ta’kidlagan g‘azallaridan birida quyidagicha yozadi:

G‘unchasin ochmish tamaddun gulshani javlon edub,
Olam ahlini sanoye gullari hayron edub...
Maktab atfola, hamd o‘lsunki, vermish toza jon,
Toza qonuni-la ta’lim aylamak nishon edub.

Shoir tamaddun gulshanida g‘unchalar javlon etib ochilganidan, sanoye – nafis san’at, ya’ni adabiyot gullari olam ahlini hayron etar darajada go‘zal tusga kirganidan quvonchini izhor etadi. Toza qonun, ya’ni usuli jadid ila ta’lim berilishiga erishilgani maktabga va unda o‘qiyotgan atfol – bolalarga toza ruh

berayotgani uchun Tangri taologa hamdlar aytadi. She'ning davomida yana quyidagilarni o'qiymiz:

Fikr as'hobiga tabrik aylamak shoistadur,
Har dam, har soat, har lahza dastijon edub.
Dahr avzoyin mujarrab aylamak oson dagil,
Bo'yla bir mushkulni mushkul anglamak oson edub...
Xalqni, Ajziy, taraqqiyota sa'y etdurmaka,
Aylaram taklifi irfon xislatin burhon edub.

Ta'lim islohi tufayli erishilayotgan natijalardan quvongan shoir har dam, har lahza jonini nisor etib fikr egalarini tabriklashni lozim ko'radi. Zamon avzoyini mujarrab aylamak – yangilamoq, o'zgartirmoq oson emas. Shunday bir mushkul yumushni mushkul anglamoqni oson etgani, ya'ni qiyinchilikni yengillikka aylantirgani uchun shukr aytmoq kerak. Shoir irfon, ya'ni ma'rifat xislatini hujjat tutib, ya'ni shunga tayanib, xalqni taraqqiyot sari harakat qilmoqqa chorlaydi.

“Oyna” jurnalining 1914-yil 38-sonida chop etilgan g'azal janridagi she'rida shoir bunday yozadi:

Ilm ekan farz, nedan jahl ila tabdil etduk,
G'arqayi ziynat o'lub jubba-u dastorlara.
G'arb ilan Sharq uyonmaq-la boshin qoldurdi,
Ta'na paykonini mahdufi biz ag'yorlara.

Shoir millatning ilm olish farz ekanini bila turib ham uni jaholatga almashtirganidan iztirob chekadi. Buning sababini u “g'arqayi ziynat o'lmoq” tarzida izohlaydi. Ya'ni, ziynatga, nafs-u havo, hirs-u havasga asir bo'lish natijasida shu ahvolga tushganidan afsuslanadi. Shoir G'arb-u Sharqdan o'rnak olib, uyg'onmoqqa chaqiradi.

Siddiqiy-Ajziyning millatni jaholat va g'aflat uyqusidan uyg'otish, ilm-u ma'rifatga chorlov ruhidagi she'riy asarlari talaygina. Adabiyotshunos Nurboy Jabborovning Cho'lpon she'rlari tahlili natijasida aytgan mana bu fikrlarini Siddiqiy-Ajziy ijodiga ham to'liq tatbiq etish mumkin: “Chin shoir ko'ngli armonlar iskanjasida qolib ketishi mumkin emas. Bu armon zamiridan orzu o'sib


chiqishi aniq. Zero, orzudan mosivo insonning qanoti qayrilib qoladi, kelajakka bo‘lgan umidi so‘nadi. Ma‘rifatparvar bobolarimiz ana shundan saqlana bildilar. Ko‘ngillarga titroq soluvchi asarlarida nainki o‘z ko‘ngil istaklarini, millatning orzularini ifodalashga muvaffaq bo‘ldilar”²⁰⁰. Shu ma‘noda, Siddiqiy-Ajziy mustamlaka girdobida qolgan millat qismati uchun kuyinish, uni ma‘rifatga, ilm-u irfonga da‘vat etish barobarida xalqining o‘z erkini, ozodligini qo‘lga kiritishi bilan bog‘liq orzularini ham she‘rga soldi. Jumladan, “Mir‘oti ibrat” dostonida shoir istiqloq haqidagi orzularini mana bu tarzda ifodalagan edi:

Ilmi iloh olmoq va fununni,
Davlatni, lisonni, zakunni,
Har qavm bulardin o‘ldi mahrum,
Istiqboli holidin o‘lur shum²⁰¹.

Ilohiy ilmni, fanni, davlatni, lisonni, zakunni olmoq – amalda istiqloqga erishmoq. Shoir fikricha, bulardan mahrum bo‘lgan qavmning istiqboli o‘sha kezdagi ahvolidan ham zabunroq bo‘ladi. Ushbu satrlarda shoirning milliy ozodlik haqidagi orzulari ifodalanganini sezish qiyin emas.

Siddiqiy-Ajziy o‘z davrining eng peshqadam ma‘rifatparvar ziyolilari qatori maktabni, ta‘limni isloh qilishni millatni isloh qilishning o‘zagi deb hisoblaydi. Shuning uchun ham Siddiqiy-Ajziy umrining so‘nggi 25 yilini maorif sohasiga bag‘ishlagan.

Shoir she‘rlarida ilm-u irfoni nodonlik va jaholat illatidan qutulish uchun eng zo‘r davo ekanini qayta-qayta ta‘kidlaydi. Jumladan, fors tilida yozgan bir ruboiysida²⁰² shunday deydi:



²⁰⁰ Жабборов Н. Чўлпон шеърларида миллий истиқлол орзусининг бадиий талқини. / Чўлпон ижоди ва замонавий адабий жараён (Адабий-илмий мақолалар). — Т.: Mashhur-press, 2018, — Б.45-52.

²⁰¹ Siddiqiy-Ajziy. Tanlangan asarlar / Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi, lug‘at-izohlar muallifi: Shaymardonov T. — Т.: Fan va ta‘lim, 2022. — Б.139.

²⁰² Ko‘rsatilgan manba. — Б.98-99.

(Urfon sohibi aqlga murojaat qildim:

– Menga nodonlikdan qutulish yo‘lini ko‘rsat.

Dedi: “Maktab, maktab, maktab, maktab,

O‘qi, o‘qi, o‘qi, yana o‘qi!”)

Darhaqiqat, maktab, ya’ni ilm tahlikali hayot zulmati ichra insonga mayoq bo‘lib xizmat qiladi. Jaholat va nodonlik zindoni torligidan iymon va ma’rifat kengligiga olib chiquvchi asosiy najotkor ham maktab-u ilmdir. Mana shu haqiqatni Siddiqiy-Ajziy yuqoridagi ruboiysida qisqa va lo‘nda shaklda ifodalab bergan.

Siddiqiy-Ajziyning maktabni targ‘ib qiluvchi “Dar ta’rifi maktab”²⁰³ (“Maktab ta’rifida”) deb nomlangan forscha g‘azali bu jihatdan ahamiyatlidir. Bu g‘azal Siddiqiy-Ajziyning 1914-yilda nashr etilgan “Ganjinayi hikmat” (“Hikmat xazinasini”) deb nomlangan fors tilidagi she’rlar to‘plamiga kiritilgan. Ma’rifiy ruhdagi g‘azalning ayrim baytlarini tahlil qilamiz:

1-bayt:



*(Haqiqatan ham, agar qarasangiz, maktab jannat bog‘iga o‘xshaydi,
Maktab jonga ozuqa, yurakka kuch, iymonga ravnaqdir).*

Shoir matla’ning birinchi misrasida maktabni jannat bog‘iga qiyoslaydi. Darhaqiqat, maktab inson uchun jannat sari qo‘yilgan ilk qadamdir. Chunki inson ilm olish uchun yo‘lga chiqar ekan, uning yo‘liga farishtalar qanotlarini yozib turishi muborak hadislarda aytilgan. Maktab sari qo‘yilgan qadam – ilm olish uchun qo‘yilgan qadamdir. Maktab – ma’naviy, ruhiy jannatning bog‘idir.

Matla’ning ikkinchi misrasida maktab jon uchun ozuqa, yurakka quvvat, iymon uchun ravnaq, ya’ni yuksalish ekani aytilmoqda.

Insonning jismiga, tanasiga ozuqa zarur bo‘lganidek, uning joni-ruhiga ham ozuqa kerak. Bu ozuqa ilm olish bilan hosil qilinadi. Ruhi oziqlangach, yuragiga

²⁰³ Ko‘rsatilgan manba. – B.104.

quvvat kiradi. Ruhi oziqlanib, yuragi quvvat topgach, iymoni ham ravnaq topadi, rivojlanadi.

2-bayt:




(Jaholat, nodonlik insonni xayfli halokatga tortadi.

Agar inson va maktab orasida vosita bo‘lmaganida nima bo‘lardi?)

Jaholat – zulmatdir. Zulmatda qolgan odam halokat sari yo‘l oladi. Ilm esa nurdir. U insonni saodat tomon yetaklaydi. Ilm esa maktab vositasida hosil qilinadi. Binobarin, maktab inson hayotining ajralmas qismidir. Maktab bo‘lmaganida inson jaholat va nodonlik qorong‘uligida qolib ketgan bo‘lar edi.

4-bayt:



(Maktab shubha va gumon kasalligini davolovchidir.

Maktab nodon – johillar guruhining qalb kasalliklarining malhamidir).


Maktabda inson ilm hosil qiladi. Ilm esa undagi shubha va gumon kasalligini davolaydi. Shuningdek, maktab insondagi ko‘pgina qalb kasalliklariga ham shifo beradi.

Insonning tanasiga turli kasalliklar tegishi mumkin bo‘lganidek, uning qalbiga ham turli-tuman xastaliklar yopishadi. Imom G‘azzoliy o‘zining “Ihyo-u ulumi-d-din” (“Din ilmlarini tiriltirish”) nomli asarida qalb xastaligi haqida shunday yozadi: “Qabih axloq – qalb xastaligi, jonlarni o‘rtovchi og‘riqdir. Jasadning tirikligi tugashi bilan poyoniga yetadigan dunyodagi barcha og‘riqlar qalb og‘rig‘i oldida hech narsadir... Lekin yomon xulq tufayli qalb xastalansa, abadiy hayot boy beriladi...”²⁰⁴

²⁰⁴ Абу Ҳомид Ғаззолий. Ихёу улумид дин, – Т.: Ўзбекистон, 2019. – Б.319.

Demak, insondagi salbiy illatlar – yomon xulqlar qalb xastaligining ko‘rinishlaridir. Yomon xulqlarni yo‘qotish – muolaja qilish esa maktab orqali amalga oshadi.

8-bayt:




(Maktab gunoh to‘fonining halokatidan omonlikdir.

Halokatli to‘fon vaqtida go‘yo Nuh kemasidekdir).

Shoirning nazarida hayotning o‘zi halokatli to‘fondir. Chunki insonni har qadamda gunohlar ta‘qib etadi. Gunohlardan esa faqat ilm vositasida saqlanish mumkin. Ilm esa maktabda hosil qilinadi. Binobarin, hayot dengizidagi halokatli to‘fonda maktab najotga eltuvchi Nuh alayhissalomning kemasi kabidir. Chunki ma‘rifat – ilm insonni jaholat va nodonlik dengizidan najot sohiliga eltuvchi muborak qayiqdir.

9-bayt:



(Maktab sening yomon xulqlaringni tuzatadi,

Maktab tufayli qalbing poklik va soflikda oy kabidir).

Yuqorida 4-baytning sharhida qalb kasalligi tufayli yuzaga keluvchi yomon xulqlar haqida aytib o‘tilgan edi. Shoir yana o‘sha fikriga qaytib, maktab yomon xulqlarni tuzatuvchi dargoh ekanini yana bir bor ta‘kidlamoqda. Maktab ta‘limi sabab insonning qalbi poklanib, yaxshi xulqlar tomon yuzlanishi aytilmoqda.

12-bayt:



(Agar sen inson bo‘lishni istasang, maktabdan uzilma,

Sababki, maktab inson olamining tarbiyachisidir).

She'r nihoyasida shoir maktabning inson hayotidagi olamshumul ahamiyatini yana bir bor ta'kidlayapti. Bu muqaddas dargohni "...inson olamining tarbiyachisi" deb eng yuqori maqomga olib chiqmoqda.

Siddiqiy-Ajziy ma'rifatparvar, xalqparvar ziyoli bo'lishi bilan birga sof e'tiqodli inson ham edi. Shoirning to'g'ri e'tiqodi uning g'azallarida, ruboiy va muxammaslarida, "Mir'oti ibrat" dostonida, nasriy asarlarida, qo'yingki, butun ijod namunalarida aks etib turadi. Shu ma'noda, shoirning badiiy mahorati nisbatan yaqqol namoyon bo'lgan munojot ruhidagi g'azallaridan biri tahliliga e'tibor qarataylik:

Ey karaming hodiyyi rohi najot,
Mag'firating takyagoh etmish ussot.
Vorlig'ing vorlig' isbot edar,
Zotinga inkor etmaz hech zot.
Noqa chekub doshdan ishorat ila,
Dufrog'a ko'kdin verib obi hayot.
Haq ila botil nadur, iymonu kufr.
Sehra barobarmu o'lur mo'jizot?!
Mahrami asroring emaz bir kishi,
Kimga g'azab, kimga verursan barot.
Amr ila farmoningadur mustaid,
Har dam-u har lahza hayot-u mamot.
Olami ijodina taqrir edub,
Do'rt anosir ila olti jihot.
Hikmating asrorig'a voquf dagil,
Kimsakim u sharh edar bu nukot.
Zotiga maxsusdur oning baqo,
Ajziy, fano olamidur besabot.

Siddiqiy-Ajziyning ushbu munojot – g'azali Yaratuvchining yer-u osmonlarni qamrab olgan karamini yod etish bilan boshlanyapti: "Ey karami najot yo'lga boshlovchi – yetaklovchi bo'lgan Zot! Sening mag'firatingga isyon ahli

suyangan – umid qilgandir”. “Ussot” (عُصَاةٌ) so‘zi “osiy”, ya’ni “isyonkor”, “isyon qiluvchi” so‘zining ko‘plik shaklidir. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, biror kishi, xususan, ahli iymon bo‘lgan solih e’tiqod qilayotgan narsasini masxara qilishi mumkin emas. Chunki Alloh taoloning ulkan hikmatlaridan biri masxara qilayotgan bilan masxara qilinayotgan kishining o‘rnini almashtirib qo‘yishi mumkin. Bunday hodisalar insoniyat tarixida ko‘p bo‘lgan.

Shu ma’noda, ahli isyonning ustidan ham kulib bo‘lmaydi. Siddiqiy-Ajziy bu haqiqatni juda yaxshi bilgan. Chunki Allohning tavba eshiklari to qiyomatgacha ochiqdir. Agar u Zot hidoyat qilsa, har qanday osiy – gunohkor kishi tavba qilib, hidoyatga erishishi mumkin.

Vorlig‘ing vorlig‘ isbot edar,
Zotinga inkor etmaz hech zot.

Sening borliging borligingni isbot qiladi, ya’ni olamdagi barcha narsalar Sening borligingni tasdiqlovchidir. Fazodagi million-million yulduzlardan tortib, yerni yorib, endi nish urib chiqayotgan giyohgacha barcha-barchasi U zotning mavjudligiga ochiq-oydin dalildir.

Mahrami asroring emaz bir kishi,

Kimga g‘azab, kimga verursan barot –

bu baytda shoir Yaratuvchiga munojot qilmoqda: biror bir kishi Sening siringdan voqif emas. Kimga g‘azab qilib, do‘zaxga kiritishing yoki kimga lutf qilib, gunohini afv etib, jannatga doxil qilishing ham hech kimga ma’lum emas!

G‘azal maqta’si:

Zotiga maxsusdur oning baqo,


Ajziy, fano olamidur besabot.

G‘azal maqta’sida shoir Yaratuvchi Zotning boqiylik sifatini yod qilib, boqiylik – abadiylik faqatgina U Zotga xos – maxsus ekanligini, olamdagi boshqa barcha narsalar foniy – o‘tkinchi ekanligini yana bir bor e’tirof etib she’rni yakunlamoqda.

Ushbu munajat – g‘azal tahlilidan Siddiqiy-Ajziy asarlarining badiiy mahorati, shoir e‘tiqodining qay darajada sof – toza bo‘lganligini, ilmiy salohiyatining ko‘lamini bilib olishimiz mumkin.

Ishqiy she’rlar. Siddiqiy-Ajziy ishqiy she’rlarining taqdiri haqida yuqorida ta’kidlagan edik. Biroq Ne‘matulla Muhtaram o‘z tazkirasida Siddiqiyning ishqiy mavzudagi ikki forscha she’rini keltirgan.

Birining matla’si:



(*Yuzing uzra cho 'k tushgan soching mardi maydon talab qiladi va har lahza oshiqlar ko 'ksiga yuz bora xanjar uradi*)

Ikkinchisi:



(*Ravo ko 'rmagil, soching ko 'rmayin o 'lmog'im,*

Yopma yuzing, shartdir ikki o 'pich olmog'im).

Shoirning o‘zbekcha ishqiy she’rlari saqlanmagan.

Vadud Mahmud “Turk shoiri Ajziy” maqolasida shoir she’riyatini ikkiga bo‘lib tahlilga tortgan: 1) Ajziyning ishq; 2) ijtimoiy fikri.

Vadud Mahmud shoir she’riyatining ishqiy mavzusini butunlay o‘zgacha tasavvur qiladi: “Bu shoirimiz ham oshiqdur. Faqat buning ishq na u tasavvuf ishqidur, na realist shoirlarning zohiriy ishqidur. Shoirimiz oshiqdur, ma’shuqa esa xalqdur, millatdur. U ishq esa bizga shuni bildiradir. Ajziy millatining ishq, dardi bilan sug‘orilgan bir shoirdur. Uning bu hayajonlari yasama emasdur, chindur, tabiiydur. Ul ko‘z yosh to‘ksa, millati uchun to‘kadur, birovdan xafalansa, millatining holiga boqmagani uchun xafalanadur. Birovdan xursand bo‘lsa ham millati, xalqi uchun bo‘ladur. Qarangiz, shoir o‘zining dardli ekanini qanday anglatadur:

Niholi darddur hosilim ashki qatorimdur,

Fano gulzorini obod aylamish jismi nazorimdur.

Do‘kar qon bag‘rimi gul yafrog‘itek chok-chokidin,
Chamanda g‘uncha bag‘rim holidin oyinadorimdur.
Chaman ra’nolarin sirridin istig‘noyadam zero
Sarig‘ ruxsora oqmish qon yoshim naxli bahorimdur.
Diliklar jismi betobimda tiyg‘i zulmi gardundin
Ochilmish gulshani jono bog‘ida yo lolazorimdur”²⁰⁵.

Vadud Mahmud shoirning ijtimoiy va ma’rifiy she’rlarini qorishiq holda “Ajziyning ijtimoiy fikri” deb ataydi.

Haqiqatan, Siddiqiy-Ajziy – Vatan va millat oshig‘i. Uning ishqi Vatan taraqqiysi, millat ozodligi singari muqaddas tuyg‘ulardan oziqlangan. Tuyg‘ulari rost, hayajonlari haqqoniy, ko‘z yosh to‘ksa, millat uchun to‘kkan, birovdan xafa bo‘lsa, millat ahvoliga befarq, loqayd bo‘lgani uchun xafa bo‘lgan shoir asarlari yosh avlodni ilm-u irfonga, vatanparvarlik va millatparvarlikka chaqirishi jihatidan bugungi zamon uchun ham benihoya ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda, Siddiqiy-Ajziy adabiy merosi o‘tgan asr avvalidagi Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayoti, millatning orzu va armonlari betakror ifoda etilgani bilan ahamiyatlidir. Shoirning adabiy-estetik ideali Vatan va millat tarixi, taqdiri bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Ijodkor asarlari ifoda uslubi, ma’rifiy mazmuni va obrazlar tizimi o‘ziga xos ekani bilan zamondoshlari she’rlaridan alohida ajralib turadi. Mumtoz she’riyatga xos an’analar yangilangani, o‘zbek va Sharq mumtoz adabiyotiga xos mazmun, shakl va obrazlar poetik sintez qilingani shoirning ijodiy salohiyati yuqori ekanligidan dalolatdir.

3.2. Ijodkor she’riyatida matn va badiiyat uyg‘unligi

Siddiqiy-Ajziy o‘z qalami va ma’rifatchilik faoliyati bilan yurt, millat, e’tiqod himoyasi yo‘lida xizmat qildi. Albatta, bu davrda yashagan shoirlar ijodida ijtimoiy ohanglar, publitsistik ruh yetakchilik qilganligi ma’lum. Abdulla Avloniy, Muhammadsharif So‘fizoda, Xislat, Tavallo, Hoji Muin, Sirojiddin Sidqiy, Hamza

²⁰⁵ Маҳмуд В. Танланган асарлар / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, луғат ва изоҳлар муаллифи: Б.Каримов. – Т.: Маънавият, 2007. – Б.61.

Hakimzoda Niyoziy, Mirmuhsin Shermuhamedov kabi o'ziga zamondosh ijodkorlar qatorida Siddiqiy-Ajziy ijodida ham millat va yurt kelajagi uchun qayg'urish, uning ozodligi uchun sa'y-harakat qilish yaqqol seziladi.

Shoir mumtoz adabiy an'analarni munosib davom ettirdi. Ahmad Yassaviy, Navoiy, Bedil, Fuzuliy singari mumtoz shoirlar ijodidan oziqlandi. Shoir ko'pincha ijtimoiy hayotdagi voqelikni, yurakdagi armonlarini, qalbini iztirobga solgan mushohadalarini she'r orqali ifodaladi. Haqiqiy shoir lirikaning qaysi janrida ijod etmasin, o'z fikrini go'zal badiiy tasvirlar bilan ifodalaydi.

Siddiqiy-Ajziy she'rlarida mazmunning ta'siri va ohangdorligini oshiradigan tazod, talmeh, tashbeh, tashxis, takrir, mukarrar, ta'rix, iqtibos, qaytarish, alliteratsiya va ishtiyoq kabi ko'plab badiiy san'atlardan mahorat bilan foydalangan. Ayniqsa, bular orasida tazod, talmeh, tashbeh, iqtibos san'atining qo'llanishi alohida ajralib turadi.

“**Tazod** (arabcha. تضاد – zid qo'yish, qarshilantirish) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, nasr yo nazmda bir-biriga qarama-qarshi ma'noli so'zlarni ishlatish. Ilmi bade'ga oid asarlarda tazod san'ati tiboq, taboq, tatbiq, takafu, mutobaqa, mutobiqa, taqobul, mutazod kabi nomlar bilan yuritilgan, nomlanishi turlicha bo'lsa ham, ular mohiyatan bir xil”²⁰⁶. Siddiqiy-Ajziyning quyidagi baytida:

Haq ila botil nadur, iymonu kufr,

Sehra barobarmu o'lur mo'jizot?!

Haq – botil, iymon – kufr, mo'jizot – sehr so'zlari o'zaro zid ma'nolarni ifodalashi, shoir ularni qo'llash bilan Haq bilan botilning nimaligini ta'sirchan ifodalashga imkon bergan.

Zotiga maxsusdur oning baqo,

Ajziy, fano olamidur besabot.

Xudoga sano aytish bilan boshlangan g'azalning bu baytida boqiylik sifati Allohning faqat O'ziga xos ekanligini, beqarorlik, o'tkinchilik esa fano olami uchun xosligi ta'kidlanadi. Baytni ko'zdan kechirsak, unda keltirilgan zid ma'noli

²⁰⁶ Қуронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. / Т.: Akademnashr, 2010. – Б.304.

“baqo” va “fano” soʻzlari tazod sanʼatini, “fano” va “besabot” soʻzlari esa tanosib sanʼatini yuzaga keltirgan.

Surat asʼhobi dagil mahram koʻngil asrorina,

Oqil ermaz kimsa maqsudin edar nodona arz.

Bayt mazmuni shuki, tashqi koʻrinishiga qarab baho beradigan odamlar koʻngil sirlariga mahram (yaqin, sirdosh) boʻlolmaydi. Chunki kishining mol-mulkiga, mansabiga, nasl-nasabiga va chiroyiga qarab muomala qiladiganlar ham nodondir. Aqlli kishi nodonga arz qilmaydi. Kimki nodonga oʻz maqsadini arz etsa, u oqil sanalmaydi.

Gʻazal baytidagi ana shu goʻzal maʼno “oqil” va “nodon” soʻzlarini bir-biriga qarshilantirish orqali taʼsirchan ifodalangan. Koʻrinadiki, Siddiqiy-Ajziy oʻz ijodida tazod sanʼatidan mohirona foydalangan.

“**Talmeh** (arabcha. تلميح – chaqmoq chaqishi, koʻz qirini tashlash, nazar solmoq) – mumtoz adabiyotdagi sheʼriy sanʼat, sheʼrda mashhur tarixiy voqea, shaxslar, badiiy asarlarga ishora qilish. Talmeh shoirni koʻzda tutilgan fikrni batafsil aytish, holatni batafsil tasvirlash zaruratidan xalos etib, koʻzlangan samaraga oʻsha fikr yoki holatga mos keladigan boshqa biror hayotiy yoki badiiy faktga ishora qilish bilanoq erishish imkonini beradi. Natijada oz soʻz bilan koʻp maʼno ifoda qilish mumkin boʻladi”²⁰⁷. Siddiqiy-Ajziy gʻazallaridan olingan mana bu misollarga eʼtibor qaratsak:

Saning-lan oshnoliq xalq ikromin pisand etmaz,

Nadur Majnuna majnunliq-la Layli ishqida parvo²⁰⁸.

Alloh bilan oshno boʻlgan kishining odamlar hurmat qilishiga, eʼtibor berishiga muhtojligi yoʻq. Uning uchun Allohga yaqinligining, Allohga oshnoligining oʻzi yetarli. Baytning birinchi misrasidan anglashilgan tushuncha Majnunning Layliga muhabbatini esga olish bilan tasavvurimizni yana aniqlashtiradi.

²⁰⁷ Қуронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик луғати / Т.: Akademnashr, 2010. – Б.306.

²⁰⁸ Siddiqiy-Ajziy. Tanlangan asarlar / Nashrga tayyorlovchi, soʻzboshi va lugʻat-izohlar muallifi: T.Shaymardonov. – Т.: Fan va taʼlim, 2022. – Б.16.

Ma'lumki, Majnun o'zining majnunligidan uyalmaydi, o'zining jununiga parvo qilmaydi, chunki u Laylining ishqini bilan band. U faqat Laylining visoliga erishsa bas.

Ishim g'am teshasi-lan jismimi dog'ini qazmoqdur,

Bani Farhoda bengzatmak dagil insofdin hosho –

baytida lirik qahramonni Farhodga o'xshatish, albatta, insofdan emasligini ta'kidlash bilan "Farhod va Shirin" dostoni qahramoniga ishora qilmoqda. Ya'ni mening ishim g'am teshasi bilan jismimning tog'ini qazishdir. Meni Farhodga tenglashtirish, albatta, insofdan emas.

Noqa chekub doshdan ishorat ila,

Dufrog'a ko'kdin verib obi hayot, –

baytida Solih alayhissalom bilan uning qavmi – Samud o'rtasidagi tortishuviga ishora qilingan. Al-Mala, ya'ni boy kofirlar Solih alayhissalomning payg'ambarligiga ishonishmaydi. "Agar sen payg'ambar bo'lsang, bizga oyat (dalil, mo'jiza) keltir", - deyishadi. Solih alayhissalom Allohga duo qiladi. Alloh xarsang tosh ichidan katta urg'ochi bo'g'oz tuya chiqaradi. Tuya oz fursatda tug'adi. Odamlar tuyaning sutidan ichishadi va ba'zilar iymon keltirishib musulmon bo'ladi.

Jannat obod edi Odam ila Havvodan,

Jannat ahvoli nadur, shimdi ango odam yo'x.

Bayt mazmuni: Odam Ato va Momo Havo bilan jannat obod edi, hozir unda odam yo'q, jannatning ahvoli qanday ekan?

Alloh taolo Odamni yerdan chiqardi, ya'ni tuproqdan yaratdi. Odam yerni obod qilish uchun yaratildi, xarob qilish uchun emas. Allohning ta'qiqlagan ne'matini yeganligi uchun Odam Ato va Momo Havo jannatdan quvildi.

Kimsakim, Ajziy, jahonda mahrami idrok emaz,

Har nafas yuz bingcha Iso versa etmaz kor dars²⁰⁹.

²⁰⁹ Siddiqiy-Ajziy. Tanlangan asarlar / Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va lug'at-izohlar muallifi: T.Shaymardonov. – T.: Fan va ta'lim, 2022. – B.29.

Ajziy, kimki idrok egasi bo'lmasa, fahmlamaydigan bo'lsa, har nafasda yuz ming Iso dars bersa ham kor qilmaydi. Baytda Iso payg'ambarga ishora qilib, talmeh san'atidan foydalangan. Talmeh san'atining qo'llanishi bayt mazmunini kuchaytirib, ifodalangan fikrning ta'sirchanligini oshirgan.

Muftaxir toj ila taxtg'a o'lur xoknishin,

Baxt do'nmazmi nigin etsa Sulaymon mafqud.

Toj bilan taxtiga g'ururlangan, faxrlangan odam tuproqqa qorishadi. Sulaymon uzugi sehrli bo'lib, rivoyatlarga ko'ra, uzuk ko'ziga qarab dunyoning barcha sirlaridan voqif bo'lib turish mumkin edi. Biroq Sulaymon uzugini yo'qotib qo'ysa, baxt undan teskari o'girilib ketmaydi. She'r baytida "baxt do'nmazmi" ritorik so'roq shaklida berilib, aslida kuchaytirilgan tasdiq ma'noni bergan.

Yuqoridagi baytda Sulaymon payg'ambar va uning uzugi (nigin)ga ishora qilingan. Talmeh san'ati she'r mazmunini ochib berishga xizmat qilgan.

Iqtibos "ilm o'zlashtirmoq" ma'nosidagi bu so'z Qur'on oyatlari va payg'ambar hadislarini she'r ichida keltirish yoki ularning mazmunini she'rda ifodalash san'ati nomidir²¹⁰. Mumtoz shoirlarimiz bu san'atga ko'plab murojaat qilishgan, o'zlarining lirik asarlarini Qur'on oyatlari va payg'ambar hadislaridan ilhomlanib yozishgan. Jumladan, Alisher Navoiyning "Arbain" va Abdulla Oripovning "Haj daftari" asarlari buning isbotidir.

Siddiqiy-Ajziy ham iqtibos san'atini mahorat bilan qo'llagan. Quyidagi baytlar so'zimizga dalolatdir:

O'lma g'aflat yorikim "annavmu axul mavt" aytmish,

Murda ta'birindadur har kimki bedor o'lmasa –

baytida Muhammad alayhissalomning go'zal hadislarida shunday deyiladi:

²¹¹ "التَّوَمُ أَخُو الْمَوْتِ وَ أَهْلُ الْجَنَّةِ لَا يَنَامُونَ", ya'ni "Uyqu o'limning birodaridir, jannat ahli uxlamaydi". Ushbu bayt iqtibos san'atining go'zal namunasidir.

Quyidagi bayt ham iqtibos san'ati qo'llangan shoirning go'zal satrlariga misol bo'la oladi:

²¹⁰ Ҳоҷиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ, 1999. – Б.62.

²¹¹ Имом Бухорий. Ал-жомеъ ас-Саҳиҳ. 8 жилдлик. 7-жилд. – Ар-Риёз: Абдулқодир Шайбатул Ҳамд, 2008.– Б.31.

“Kullukum roin” vordur arzi mas’uliyatining,

Bas bu taklif o‘lmadi bir zumrayi mavzuna xos.

Muhammad Rasulullohning ²¹²“كَلِّم رَاعٍ و كَلِّم مَسْؤُولٍ عَنْ رَعِيَّتِهِ”, ya’ni “Sizlarning har biringiz rahbarsiz va har biringiz o‘z qo‘l ostingizdagilarga mas’uldir” degan hadisi keltirilgan.

Tashbeh – Sharq adabiyotida keng tarqalgan san’atlardan biri bo‘lib, “o‘xshatish” ma’nosini ifodalaydi. Ikki narsa yoki tushunchani ular o‘rtasidagi haqiqiy (real) yoki majoziy munosabatlarga ko‘ra o‘xshatish san’atidir²¹³. Tashbeh shunday san’atki, shoir-u yozuvchilar undan g‘oyalarini, fikr-u istaklarini go‘zal va jozibali tasvirlash uchun foydalangan.

Siddiqiy-Ajziyning quyidagi misralarida tashbeh san’atining go‘zal namunasi yaratilgan:

Noumid o‘lmoq harom, ey qavm,

O‘yla noumidliq iblistek mal’una xos.

Har qaysi holatda ham banda Allohning rahmatidan umidini uzmasligi lozim. Umidsizlik kufrga yaqindir. Shuning uchun hamisha Allohning rahmatidan umidvor bo‘lib ko‘z tutishi lozim. Odam noumid bo‘lmagani uchun uning tavbasini Alloh qabul qildi. Iblis Allohning rahmatidan umidini uzgani uchun la’natlandi va toshbo‘ron qilindi.

Baytda ta’kidlanganidek, ey qavm, (Allohning rahmatidan) noumid bo‘lish haromdir. Bunday noumidlik iblisga o‘xshash mal’un (la’natlangan)larga xosdir.

Ma’lumki, tashbeh san’ati to‘rt juzv asosida qo‘llaniladi:

1. Mushabbih, ya’ni o‘xshamish.
2. Mushabbihun bihi, ya’ni o‘xshatilmish.
3. Vajhi shaboh, ya’ni o‘xshamish va o‘xshatilmish orasidagi munosabat (sabab, asos).
4. Vositayi tashbeh, ya’ni o‘xshatish vositasi.

²¹² Имом Ибн Жарир ат-Табароний. Мўъжамул Авсот. – БАА: Дорул ҳарамайни, 1995. – Б.475.

²¹³ Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ, 1999. – Б.14.

Baytda kelgan mal'un (la'natlangan) – o'xshamish, iblis – o'xshatilmish, noumidlik – munosabat, -tek – vosita bo'lib, tashbehning barcha juzvlari ishtirok etgan. Bunday tashbehga tashbehi mufassal deyiladi.

Badan rohati-la ulfat dutmaki, tark etmisham, Ajziy,

Sabab, simobtek jismimda ruhi beqarorimdur.

Bayt o'zida falsafiy, tasavvufiy, ijtimoiy mazmunni jamlagan. Shoir tinglovchiga murojaat qilib aytmoqdaki, sen badan rohatini o'zingga ulfat tutmagin. Men – Ajziy badan rohatini tark qilganman. Bunga sabab jismimdagi beqaror ruhimdir.

Shoir o'z jismidagi beqaror ruhini shisha ichida qalqib yuruvchi simobga o'xshatyapti. Baytda tashbehning hamma juzvlari ishtirok etganligi sababli bu bayt ham tashbehi mufassalning go'zal namunasi.

Shoirning tashbeh qo'llangan she'rlarida ba'zan tashbehning vajhi shabih va vositayi tashbeh juzvlari tushirilgan ko'rinishlari ham uchraydi. Bunday tashbeh "tashbehi muqayyad" deb ataladi. Aruzshunos Anvar Hojiahmedov ta'kidlaganidek: "Tashbehi muqayyad tashbehi mufassalga qaraganda o'xshatish belgisining kuchliligi bilan ajralib turadi"²¹⁴. Masalan,

Moyayi insofi yo'x panding qimoshing naylasun,

Gavhar maqsuding et bir sohibi vijdona arz –

baytida shoir "gavhardek yashirin (sirli) maqsuding" jumlasini o'rniga "gavhar maqsuding" tarzida vajhi shabih va vositayi tashbeh juzvlari tushirilgan tashbehni qo'llagan va o'xshatish belgisini kuchaytirib ko'rsatgan.

Qaytarish san'ati baytning biror o'rnida ishtirok etgan bir ma'noli yoki shakldosh so'zning mazkur baytning boshqa biror o'rnida qayta ishtirok etishidan hosil bo'lgan san'atdir. "Qaytarish san'atida quyidagilarni bilish lozim: *Sadr* – birinchi misraning boshlanishi, *aruz* – birinchi misraning oxiri, *ibtido* – ikkinchi misraning boshi, *ajuz(zarb)* – ikkinchi misraning oxiri, *hashv* – misralarning o'rta qismi"²¹⁵. Jumladan, shoirning

²¹⁴ Ko'rsatilgan manba. – B.15.

²¹⁵ Сариев Ш. Адабиёт. Методик қўлланма. – Т.: HEAD BOOK, 2018. – Б.113.

Pariro‘lar parishon zulfitek xotir parishonam,

Parishonam nedan xotir parishonliq-la hayronam –

bayti birinchi misrasi oxiridagi “parishonam” so‘zi ikkinchi misraning boshida takrorlanib kelgan. Ushbu baytda bir so‘zning bu xilda takrorlanishidan radd-ul aruz ilal-ibtido san’ati yuzaga kelgan, shuningdek, shoir o‘z qalbining parishonligini pari yuzli go‘zallarning sochilgan sochiga o‘xshatyapti (tashbeh san’ati qo‘llangan), lekin qalbining nima sababdan parishon ekanligini bilolmasdan hayron qolmoqda. Bayt o‘qilishi bilanoq birdan o‘quvchi diqqatini tortadi. Birinchidan, baytda qo‘llangan so‘zlardagi tovushlar uyg‘unligi talaffuzdagi jarangdorlik va ohangdorlikni yuzaga keltirgan. Ikkinchidan, baytda takror qo‘llangan so‘zlar mazmunni kuchaytirishga, ta’kidlab ko‘rsatishga xizmat qilgan. Baytdagi “Parishon” va “parishonliq” so‘zlari ishtiyoq san’atini yuzaga keltirgan. Shoir bir baytning o‘zida *qaytarish, tashbeh, alliteratsiya va ishtiyoq* san’atlaridan unumli foydalangan.

Takrir “takrorlash” ma’nosini ifodalovchi bu san’at qo‘llangan she’rda u yoki bu so‘z takror qo‘llanadi. So‘zni takrorlash vositasida ifodalangan ma’noni kuchaytirib, uning mohiyati ta’kidlab ko‘rsatiladi. Chunonchi, Siddiqiy-Ajziyning quyidagi baytlardagi

Havodis sarsari har yona kezdurmaq-la har soat,

Parishonam, parishonam, parishonam, parishonam...

So‘rma amniyat tariyqin, Ajziy, har bemag‘zdin,

Sohibi urfona arz et, sohibi urfona arz –

kabi juft misralaridagi takrorlar ham takrorlangan so‘zlardagi ma’nolarni kuchaytirib, nihoyasiz ehtirosni ifodalagan. Lirik qahramonning dil dardlari ta’sirchanligini oshirgan.

Siddiqiy-Ajziy lirikasida qo‘llangan she’riy san’atlarning rang-barangligi shoir she’rlarining mazmunini ochishda qimmatli ahamiyatga ega. Ijodkor she’riyatidagi ijtimoiy-axloqiy g‘oyalar u qo‘llagan she’riy san’atlar bilan uzviy uyg‘unlikda aks etgan.

She'riyatda qofiya muhim unsurlardan biri hisoblanadi. Qofiya she'rning mazmuni, janri, shakli va kompozitsiyasida muhim ahamiyatga ega. U she'r ritmi va ohangdoshligini ta'minlashdan tashqari, g'oyaviy mazmuni ham go'zal va ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi.

Ahmad Taroziy "Funun ul-balog'a" asarida qofiyani chuqur tahlil etib, badiiyat ilmida uning o'rnini yuksak belgilaydi. Qofiya she'rning ustuni ekanligini, qofiyasiz she'r bo'lishi mumkin emasligini ta'kidlaydi: "...tab'ning natijasi she'rdur. Va she'rning asli qofiya. Va qofiyasiz she'r mumkin ermas"²¹⁶. Shu bilan bir qatorda har bir fozil va olim kishi uni bilishi va mahorat bilan qo'llay olishi lozimligini ham ta'kidlagan: "Bilgilkim, majmu'i ulamo va fuzalo mazhabinda ahli tab'ga qofiya ilmini bilmak muhimdir"²¹⁷.

Abdurauf Fitrat esa "Adabiyot qoidalari" asarida qofiyaning she'riy misralar bezagi ekanligini, majburiy sharti emasligini aytadi. Eng muhimi, she'r insonni to'qlinlantirishi, unda fikr va ta'sirlanish uyg'ota olishi kerak, deb hisoblaydi olim²¹⁸. Vazni aniq, qofiyasiz she'r oq she'r deb ataladi. Vazni, misralardagi rang-barang ritmik qurilish oq she'rning ohangdorligini ta'minlaydi. Oq she'r atamasi misralarning qofiyalanmay qolishidan, ya'ni "oq" qolishidan olingan. O'zbek adabiyotida oq she'rning go'zal namunalarini Usmon Nosir, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Abdulla Oripov, Rauf Parfi kabi shoirlar ijodida ko'rish mumkin. Shuningdek, chet el shoir va adiblarining o'zbek tilidagi tarjima asarlarining ba'zilari ham oq she'rda yaratilgan²¹⁹.

Yuqoridagi fikrlar professor Abdurauf Fitrat nazariyasini asoslaydi. Biroq Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida qayd etilgan nazariy qarashlar davr nuqtayi nazaridan qaraganda ayni haqiqat edi. Mumtoz adabiyotda qofiya muhim vazifani bajaradi. Qofiya she'r baytlarida ifodalanayotgan fikrning yechimini o'zida mujassam etadi. O'quvchi she'r qofiyasini o'qish bilan uning tasavvuri oydinlashadi. Chunki qofiya faqat ohangdorlikni ta'minlovchi vositagina

²¹⁶ Taroziy A. Funun ul-baloga. – T.: Hazina, 1996. – B.3.

²¹⁷ Ko'rsatilgan manba. – B.3.

²¹⁸ Fitrat A. Adabiyot qoidalari. – T.: Uqituvchi, 1995. – B.22.

²¹⁹ Shekspirning "Otello" "Hamlet", "Qirol Lir", "Romeo va Juletta", Sofoklning "Shoh Edip" kabi asarlarining tarjimalari.

emas, balki ijodkor aytmoqchi bo'lgan fikrning mazmun-mohiyatini jamlab beruvchi badiiy unsur hamdir. Shuningdek, nazariyotchi olim To'xta Boboyev ta'kidlaganidek: "Qofiya adabiy janrlar (g'azal, qasida, ruboiy, tuyuq, qit'a, murabba', musaddas, sonet...)ni vujudga keltirishda muhim rol o'ynaydi"²²⁰.

Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostonidagi qofiya va radiflar badiiy g'oya bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlab quyidagicha yozadi:

Ham qofiyasi aning sifoti,

Ham barcha radifi oning oti²²¹.

Sayidahmadxo'ja Siddiqiy-Ajziy she'riyatida ham qofiya muhim vazifa bajargan. Shoir she'riyatida qofiya ohangdorlikni ta'minlabgina qolmasdan, she'r baytlarining alohida-alohida yechimini ham o'zida jamlagan. O'quvchi har bir baytni o'qiganida qofiyadosh so'zlarda ifodalangan mazmun orqali she'r baytidagi nisbiy tugallangan fikrni anglaydi.

Professor Anvar Hojiahmedov mumtoz badiiyatning asoslaridan bo'lgan qofiyaning ahamiyatini quyidagicha ta'riflaydi: "Ijodkorning salohiyati she'rlarda qo'llagan qofiyalarning g'oyalar mohiyatini, timsollar qiyofasini ochishdagi ahamiyati, qofiya uchun tanlangan so'zlarning ma'naviy teranligi, ohangdorligi, jilo va jozibasi bilan ham belgilangan. Qofiyaning xilma-xil turlari va san'atlaridan, vazn va qofiya munosabatlaridan o'rinli foydalanish shoir mahoratining muhim jihatlaridan biri hisoblangan"²²². Sayidahmadxo'ja Siddiqiy-Ajziy lirik merosi qofiya qo'llash nuqtayi nazaridan ham tadqiqotlar uchun boy material beradi.

Raviy qofiyaning asosi ekanligini va u barcha qofiyalanuvchi so'zlar tarkibida aynan takrorlanib kelishi zarurligi e'tiborga olinsa, Sayidahmadxo'ja Siddiqiy-Ajziy she'riyatida ana shu nazariy qoidaga to'liq amal qilingani kuzatiladi. Masalan, quyidagi g'azalda "n" undoshi raviy bo'lib kelgan:

Ohkim, etmish ummidim g'ami hijron mafqud,

²²⁰ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – Б.265.

²²¹ Alisher Navoiy. Layli va Majnun. Doston / Nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir: Rahmonov V. – Т.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2020. – Б.141.

²²² Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадийат малоҳати. – Т.: Шарқ, 1999. – Б.195.

O‘ylakim, bulbuli sho‘rida guliston mafqud.

G‘ayr uchun gavhar elin ma‘dan ochilmish, ban uchun

Sangda xora duton la‘li Badaxshon mafqud.

G‘azalning keyingi baytlarida qofiyadosh bo‘lib kelgan “Sulaymon”, “urfon”, “rayhon”, “hayvon”, “iymon”, “ehson”, “inson” so‘zlarining barchasida “n” undoshi raviydir.

Ma‘lumki, o‘zak tarkibiga ko‘ra qofiyalarning to‘rtta turi mavjud:

1. Mujarrad qofiya.
2. Murdaf qofiya.
3. Muqayyad qofiya.
4. Muassas qofiya.

Mumtoz adabiyotda qofiyaning bu to‘rt turidan qaysi turi qo‘llanishidan qat‘i nazar she‘rning muhim asoslaridan biri sifatida ahamiyatlidir. “Qofiya mumtoz she‘rshunoslikda vazn kabi she‘riy ruknni vujudga keltiruvchi asosiy unsur sanalib, uning bayt so‘ngida qo‘llanilishi zaruriy talablardan biri bo‘lgan”²²³.

Mujarrad qofiya. Bu qofiyaning ikki turi bo‘lib, birinchisi, “...raviy cho‘ziq unlidan iborat bo‘lib, ana shu cho‘ziq unlidan boshqa biror harf ishtirok etmaydi. Raviy o‘rnida esa cho‘ziq unlilardan istalgani kela oladi”²²⁴. Masalan, Siddiqiy-Ajziyning quyidagi g‘azali buning isbotidir:

Bu kun ashhodi zoting ila guftor aylaram insho,

Vujuding “lo”din isbot etmaka “illolloh” istisno.

Ko‘zum ashki-la bag‘rim qoni tasdiq etsa aqvolim,

Bu mazmun ila ishqing ishtiyoqin aylaram da‘vo.

Misralardagi “insho”, “istisno”, “da‘vo” so‘zlari va g‘azalning so‘nggi misralarida kelgan “savdo”, “parvo”, “shaydo”, “hosho”, “ma‘vo”, “paydo”, “rasvo” so‘zlari so‘ngida kelgan “o” raviysi cho‘ziq unli hisoblanib, qofiyadosh so‘zlar shu harf bilan tugagan. Qofiya ushbu g‘azalda lirik qahramon kechinmalari

²²³ Юсупова Д. Аруз ва мумтоз поэтикага кириш. – Т.: Akademnashr, 2020. – Б.289.

²²⁴ Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадийят малоҳати. – Т.: Шарқ, 1999. – Б. 197.

ifodasining ohangdorligini, ta'sir kuchini oshirib, shoir ijodiy niyatining o'quvchi ongi va qalbiga yetib borishini ta'minlagan.

“Mujarrad qofiyaning ikkinchi turi undosh bilan tugallanib, shu undosh raviy bo‘lib hisoblanadi, undan oldin esa istalgan qisqa unli kelishi mumkin. Bu unli *tavjih* deb yuritiladi”²²⁵. Siddiqiy-Ajziy g‘azallarida bu turdagi qofiya keng qo‘llanilgan. Jumladan, “Yo‘x” radifli g‘azalning qofiyalanish tartibi bunga misol bo‘la oladi:

Ko‘nglim asrorini sharh etmakka bir mahram yo‘x,

Hamdam-u dard-u banim dardima bir hamdam yo‘x.

Ushbu baytda “mahram”, “hamdam” so‘zlari o‘zaro qofiyadosh bo‘lib, “m” undoshi raviy, “a” qisqa unlisi esa “tavjih” sanaladi. Mujarrad qofiyaning asosiy sharti qofiyaning raviy harfi bilan tugallanishidir. Shunga ko‘ra, ushbu g‘azal mujarrad qofiyaga misol bo‘la oladi.

G‘azalning matla’sidagi “marham”, “xurram” so‘zlariga keyingi baytlarda kelgan “odam”, “mustahkam”, “ham”, “beg‘am” so‘zlari qofiyadosh bo‘lib kelgan. Qofiya baytdan baytga o‘tgan sari lirik qahramon ahvoli ruhiyatini mantiqiy izchillikda, ta’sirchan ifodalashga xizmat qilgan. Teran mazmun va shakl uyg‘unligi g‘azal badiiyati yuksak bo‘lishini ta'minlagan.

Murdaf qofiya. “Raviy harfidan oldin cho‘ziq unilardan biri kelgan qofiya **murdaf (ridfli) qofiya** deb nomlanadi. Cho‘ziq unlining o‘zi esa **ridf** deb ataladi”²²⁶. Raviydan oldin kelgan cho‘ziq unli *ridfi asliy*, raviy bilan ridfi asliyning o‘rtasida kelgan undosh *ridfi zoyid* deb yuritiladi²²⁷. Siddiqiy-Ajziy g‘azallarida qofiyaning bu turi keng qo‘llangan. Jumladan, shoirning “G‘alat” radifli g‘azali qofiyaning ana shu turiga misol bo‘la oladi:

Vermak ozurdalaring qalbina ozor g‘alat,

Gunah afgori tanim aylamak afgor g‘alat.

Ushbu baytda “ozor”, “afgor” qofiyadosh so‘zlari so‘ngidagi “r” undoshi raviy, undan avvalgi “o” cho‘ziq unlisi esa ridfi asliy hisoblanadi. Natijada

²²⁵ Ko‘rsatilgan manba. – B.199.

²²⁶ Ko‘rsatilgan manba. – B. 197.

²²⁷ Юсупова Д. Аруз ва мумтоз поэтикага кириш. – Т.: Akadernashr, 2020. – Б.290–291.

ohangdorlik kuchayishi barobarida o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'ladigan badiiy tasvir yaratilgan.

Saydi bedodam shamshiri jafu bismilim,

Kim edan bismili bismil gunah takror g'alat.

Ushbu bayt Siddiqiy-Ajziyning badiiy tasvir yaratish borasida yuksak san'atkor darajasiga ko'tarilganidan dalolat beradi. Baytdagi "gunah takror" so'zi qofiyadosh so'zlar bilan bog'liqlikda poetik tasvir mukammalligini hosil qilgan.

G'azalning so'nggi baytlarida kelgan "sarkor", "raftor", "guftor", "xor", "ag'yor" so'zlari hosil qilgan muradaf qofiya ifodaga mos ohangni, fikrning mantiqiy izchilligini va ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Siddiqiy-Ajziy g'azallarida qo'llagan qofiyalardan eng unumlisi bu murdaf qofiyadir. "Ey karaming hodiysi rohi najot", "Niholi darddur bani hosilim ashk qatoridur", "Bahor fayzi tarovat-la mahram o'lmish bog'", "Yadi bedodi yag'modin na o'lmish, ey Vatan, holing", "Pariro'lar parishon zulfiteki xotir parishonam", "Navla rahm etsa falak ban kabi bemorlarga", "Amomali shaytonlaringa "shukr" Xudoyo!" misralari boshlanuvchi va "Bango", "O'lmasa", "Edub", "Bois", "Iloj" "Farah", "Mafqud", "Dars", "Etmish", "Arz", "Malhuz", "Tama", "Sadaf", "Etmish", "Hilol" radifli g'azallari shular jumlasidandir. Bu hol ijodkorning qofiya ilmini yaxshi egallaganining va o'z she'riyatida mahorat bilan qo'llay olganining tasdig'idir.

Muqayyad qofiya. Bu turdagi qofiyalarda qo'sh undoshdan oldin qisqa unli keladi. "Bunda qisqa unli *hazv*, raviydan oldin turgan undosh *qayd* deb ataladi"²²⁸. Shoir qofiyaning bu turidan "Ey millati jalilayi islom atolari" deb boshlanuvchi tarje'bandning quyidagi bandida foydalangan:

Atfoli maktab o'ldi kamoling-la bahramand,

Lutfing alarni etti aziz-u ham arjumand.

Husni tavajjuhing verub atfola bol-u qand,

Yo'q shubha o'ldilar iki olamda sarbaland,

Neshi zamon havodisidin etmagay gazand.

²²⁸ Ko'rsatilgan manba. – B.291.

Yo Rab, bu zumrayi baxt ila iqbolin et baland,
Sabriy Hasan muallimi din-u lisonimiz,
Rabbi jahon jism-u g'izobaxshi jonimiz.

Tarje'bandning ushbu bandida "bahramand – arjumand – qand – sarbaland – gazand – baland" so'zlari – qofiya, "d" harfi – raviy, "n" – qayd, "a" qisqa unlisi – hazv bo'lib kelgan. Natijada tarje'band misralarining ohangdorligini kuchaytirib, jozibadorligini oshirgan.

Siddiqiy-Ajziy "Mir'oti ibrat" dostonida muqayyad qofiyaga ko'plab murojaat qilgan. Jumladan, quyidagi baytlar bunga misol bo'ladi:

Aygum sana bir misoli monand,
Mahbubi azizatek Samarqand...
Xurram edi sabzi sabzadan dasht,
Sahroyi nasim edardi gulgasht.

Muassas qofiya. Aruzshunos Anvar Hojiahmedovning yozishicha: "Cho'ziq "o" unlisi (faqat cho'ziq "o" unlisi) bilan raviy o'rtasida bir undosh va undan keyin bir unli keladigan qofiya **muassas (ta'sisli) qofiya** deyiladi. Cho'ziq "o" unlisi **ta'sis** deb, undan keyingi undosh **daxil** deb, raviy oldidagi qisqa unli **ishbo'** deb ataladi"²²⁹. Siddiqiy-Ajziy qofiyaning bu turidan "Mir'oti ibrat" dostonidagina foydalangan. Shoirning boshqa janrlardagi she'rlarida muassas qofiya uchramaydi. "...muassas qofiyalar lirik she'riyatda juda kam qo'llanadi. Shoirlar bu xil qofiyaga ko'proq epik she'riyatda murojaat qilishadi. Shunda ham ular jami qofiyaning 3,5 – 7 foizidan oshmaydi"²³⁰.

Siddiqiy-Ajziy "Mir'oti ibrat" dostonida muassas qofiyadan mohirlik bilan foydalanganini ko'rish mumkin:

...To'ti sori ayladi ishorat,
Verdi bana yangi bir bashorat.

Ushbu baytdagi "ishorat" va "bashorat" so'zlari – qofiya, "t" harfi – raviy, "o" – ta'sis, "r" undoshi – daxil, "a" qisqa unlisi – ishbo' bo'lib kelgan. Bu esa, o'z

²²⁹Хожиаҳмедов А. Мумтоз бадийат малоҳати. – Т.: Шарқ, 1999. – Б. 203.

²³⁰ Ko'rsatilgan manba. – B.204.

navbatida, she’rda ilgari surilgan g’oyaviy mazmunning o‘quvchi ongi va qalbiga go‘zal va ta’sirchan yetib borishiga xizmat qilgan.

Shoir “Mir’oti ibrat” dostonidagi quyidagi baytlarda ham muassas qofiyalardan foydalangan:

...Bu nav’da istiqomatimiz,
 Bay-bay, na go‘zal iqomatimiz.
 ...Bilmoq necha chayr etar kavokib,
 Gohi ko‘rinur goh o‘la g‘oyib.
 ...Uqboda verur anga mukofat,
 Dunyoda kim aylasa ibodat.

Ta’kidlangan qofiyalarning barchasida cho‘ziq “o” unlisi – ta’sis, undan keyin kelgan undosh – daxil, qisqa unli – ishbo’ va undosh bilan ifodalangan raviy kelgan. Yuqorida keltirilgan qofiyalarni quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

	ta’sis	daxil	ishbo’	raviy	
istiq	o	m	a	t	imiz
iq	o	m	a	t	imiz
kav	o	k	i	b	
g‘	o	y	i	b	
muk	o	f	a	t	
ib	o	d	a	t	

Ushbu misollar shoirning muassas qofiya qo‘llash borasidagi salohiyati baland va tajribasi katta bo‘lganini ko‘rsatadi. Shoir qo‘llagan badiiy tasvir vositalari bilan birgalikda muassas qofiyadan foydalanishi dostonning poetik mukammalligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Ma’lumki, qofiyalar raviy bilan tugashi yoki raviydan keyin harflar kelishiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:

1. Muqayyad qofiya.
2. Mutlaq qofiya.

Siddiqiy-Ajziy lirikasida qofiyaning ushbu ikki turi ham mahorat bilan qo‘llangan. Qofiya shoir lirikasida she‘rning musiqiylikini va ohangdorligini ta‘minlovchi vositagina bo‘lib qolmasdan, balki ifodalanayotgan ijtimoiy-axloqiy g‘oyalarni badiiy so‘z vositasida yuzaga keltiruvchi omillardan biridir, ya‘ni qofiyadosh so‘zlarda shoirning g‘oyaviy-badiiy niyati ham amalga oshgan. Siddiqiy-Ajziy she‘riyatida muqayyad qofiya ham, mutlaq qofiya ham birdek qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin.

Muqayyad qofiya. Bu turdagi qofiyaning muhim xususiyati uning raviv bilan tugallangan bo‘lishidir. Siddiqiy-Ajziy lirikasida muqayyad qofiya keng va samarali qo‘llangan. Jumladan, shoirning

Nola-yu faryod etarmu kimsa bemor o‘lmasa,

Siynasi tig‘i tazallumlar-la afgor o‘lmasa –

matla‘li g‘azali bunga misol bo‘la oladi. Ushbu baytdagi “bemor” va “afgor” qofiyadosh so‘zlarida “r” undoshi raviv bo‘lib kelgan. Keyingi baytlardagi “bedor”, “devor”, “hushyor”, “sarkor”, “ag‘yor”, “xabardor” qofiyalari ham bayt mazmunini ta‘sirchan qilgan hamda g‘azalning musiqiylikini ta‘minlashga xizmat qilgan. She‘riyatda badiiyatning boshqa unsurlari kabi qofiyaning ham o‘ziga xos o‘rni borligiga nazariyotchi olim Bahodir Sarimsoqovning quyidagi fikrlari dilildir: “...badiiy asarning mazmuni hamda shakli badiiylikning ikki qanotidir”²³¹.

Siddiqiy-Ajziy g‘azallarining aksariyati muqayyad qofiyaga asoslangan. Shoirning “Bu kun ashhodi zoting ila guftor aylaram insho”, “Charxdin navla agar etmasa ozor bango”, “Nola-yu faryod etarmu kimsa bemor o‘lmasa”, “G‘unchasin ochmish tamaddun gulshani javlon edub”, “Ey karaming hodiyyi rohi najot”, “Ko‘rmdim dahrda bir lahza ban zor farah”, “Ko‘nglim asrorini sharh etmaka bir mahram yo‘x”, “Ohkim, etmish ummidim g‘ami hijron mafqud”, “Kimsa mag‘mum o‘lan ahvolimi masrur edamaz”, “To tamaddun maktabinda etmisham takror dars”, “G‘amingdin osmon badri munirin to hilol etmish”, “Vermak ozurdalaring, qalbina ozor g‘alat”, “Dardmandamki durur dardima darmon

²³¹ Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари / Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи: Ҳ. Аҳмедов. – Т.: Bookmany print, 2022. – Б.5.

malhuz”, “Sen etma sarvati dunyodan e’tibor tama”, “Bahor fayzi tarovat-la mahram o’lmish bog’”, “Nadan jahona ayon etdi e’tibor sadaf”, “Hiloling suvratidek, ey falak, qaddim duto etding”, “Dun banim ranju malolimdan xayol etmish hilol”, “Inson o’la istarsang agar tolibi rang o’l” misralari bilan boshlanuvchi g’azallari hamda “Chin va yolg’on ziyolilar”, “Ulamolar”, “Tabrik” she’rlari shular jumlasidandir.

Mutlaq qofiya. Qofiyaning bu turida “...raviy harfidan keyin qofiyaning boshqa harflari (vasl, xuruj, mazid, noira) ham ishtirok etadi”²³². Anvar Hojiahmedov raviydan keyin keluvchi harflarning har biriga quyidagicha izoh beradi: “...raviydan keyin turuvchi undosh yoki cho‘ziq unli **vasl** deb, ikkinchi, ya’ni vasldan keyin turuvchi undosh yoki cho‘ziq unli **xuruj** deb, uchinchi, ya’ni xurujdan keyingi undosh yoki cho‘ziq unli **mazid** deb, to’rtinchi, ya’ni maziddan keyingi undosh yoki cho‘ziq unli **noyira** deb yuritiladi. Harflar noyiradan keyin davom etsa, har qaysi undosh yoki cho‘ziq unli shu nom bilan, ya’ni noyira deb atalaveradi”²³³.

Siddiqiy-Ajziy lirikasida mutlaq qofiyali she’rlar ham ko‘p. Jumladan, shoirning

Niholi darddur bani hosilim ashk qatorimdur,

Fano gulzorin obod aylamish jismi nizorimdur –

matla’si bilan boshlangan g’azalning “qatorimdur” va “nizorimdur” so‘zlari mutlaq qofiya bo‘lib, ulardagi “r” undoshi – raviy hisoblanadi. Raviydan keyingi “i” unlisi – majro, “m” undoshi – vasl, “d” undoshi – xuruj, “u” unlisi – nafoz, “r” undoshi – mazid sanaladi.

Aruzshunos Dilnavoz Yusupovanning ta’kidlashicha: “Mutlaq qofiya hisoblanishi uchun raviydan so‘ng birgina vasl harfining qo‘llanilishi ham kifoya qiladi”²³⁴. Siddiqiy-Ajziy g’azallari ichida mutlaq qofiyaning aynan shu shaklda qo‘llangan ko‘rinishi ham bor. Jumladan, shoirning “Arz” radifli g’azali bunga misol bo‘la oladi:

²³² Юсупова Д. Аруз ва мумтоз поэтикага кириш. – Т.: Akademnashr, 2020. – Б.293.

²³³ Ҳоҗиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ, 1999. – Б. 205.

²³⁴ Юсупова Д. Аруз ва мумтоз поэтикага кириш. – Т.: Akademnashr, 2020. – Б.294.

Subhi ummidim magar etmish shabi hijrona arz –

Kim, qora baxt etdi ruxsorin hayrona arz.

Bu o‘rinda “hijrona” va “hayrona” qofiyadosh so‘zlaridagi “n” undosh harfi – raviy, undan keyingi “a” unlisi – vasl harfi hisoblanadi. Raviydin keyin birgina vasl harfi qo‘llanganining o‘zi ushbu g‘azalning mutlaq qofiya asosida yozilganini ko‘rsatadi.

Siddiqiy-Ajziyning mutlaq qofiyaga asoslangan g‘azallari ham ko‘p. Shoirning “Bango qarorsiz o‘lmoqda vordur bois”, “Kimsa, yo Rab, bu dili zorima etmazmi iloj”, “Sokini dashti balo o‘lmoq bani majnuna xos”, “Subhi ummidim magar etmish shabi hijrona arz”, “Etma, ey oqil, sarvari qalbi dunyodin tama”, “Siynam, ahboblarim, otashi g‘amdandur dog‘”, “Yadi bedodi yag‘modan na o‘lmish, ey Vatan, holing”, “Pariro‘lar parishon zulfitek xotir parishonam”, “Navla mahsulim, Iloho, bu tamannolardin”, “Ko‘randa lola yafrog‘in gumon etmang, chamandur bu”, “Navla rahm etsa falak ban kabi bemorlara”, “Nadur, yo Rab, bu giryon chashmi xunborim tamannosi”, “Amomali shaytonlaringa “shukr”, Xudoyo” satrlari bilan boshlanuvchi g‘azallari, shuningdek, “Yo Rab, eshit bu xasta dilimning navosini”, “Bu dunyog‘a kelishda gul bo‘lib, g‘uncha otib keldik” misralari bilan boshlanuvchi muxammaslari mutlaq qofiyalangan she‘rlarga misol bo‘la oladi.

Ma‘lumki, o‘zak tarkibiga ko‘ra qofiyalarning mujarrad, murdaf, muqayyad, muassas kabi to‘rtta turi mavjud bo‘lib, Sayidahmadxo‘ja Siddiqiy-Ajziy ana shu to‘rt turni ham mahorat bilan qo‘llagan. Bundan tashqari, qofiyaning tuzilishi ko‘ra muqayyad qofiya va mutlaq qofiyadan ham birdek san‘atkorona foydalangan.

Sayidahmadxo‘ja Siddiqiy-Ajziy lirikasida radif keng ko‘lamda mohirlik bilan qo‘llanilgan. Shoirning “Aynu-l-adab” turkiy she‘riy majmuasiga 34 g‘azal kiritilgan bo‘lib, shundan 25 g‘azal radifli, bundan tashqari XX asr boshlarida “Oyna” va “Mashrab” jurnallarida chop etilgan “Faxriya”, “Ekin yerlaring dard-u hasrati”, “Boshimdan o‘tganlar”, “Chervon”, “Nima lozim?”, “Tabrik”, “Barakallo”, “Keldik”, “Chin va yolg‘on ziyolilar”, “O‘zi anglovchiga”, “Inchunin boyad”, “Ulamolarga” she‘rlariga ham radif qo‘llangan. Shoirning “Aynu-l-adab”

asarida kelgan g‘azallardagi radif, asosan, bir so‘z bilan ifodalangan. Jumladan, “G‘alat”, “Bu”, “Mafqud”, “Sadaf”, “Tama”, “Dog‘”, “Farah”, “Dars”, “Iloj”, “Bois” radifli g‘azallar bunga misol bo‘la oladi. “Ekin erlaring dardu hasrati”, “Nima lozim?”, “Inchunin boyad” she‘rlarida qo‘llangan radiflar ikki yoki undan ortiq so‘zlardan hosil bo‘lgan.

Shoir she‘rlarida radif musiqiy ohangdorlikni, she‘rda ifodalangan g‘oyaning ta‘sirchanligini, badiiyatning yuqori bo‘lishini ta‘minlagan. Baytlar va bandlararo bog‘lanishni kuchaytirgan. Olima Dilnavoz Yusupova yozganidek, “Radif she‘rda ifodalanayotgan yetakchi fikrni takrorlash, kitobxon e‘tiborini asosiy g‘oyaga jalb etib, muallif g‘oyaviy niyatini chuqurroq yetkazib berishga xizmat qiladi”²³⁵.

Sayidahmadxo‘ja Siddiqiy-Ajziy she‘riyati radifi, asosan, turkiy-o‘zbekcha, qisman, arab-fors tillariga mansubdir. Shoir she‘riyatida, asosan, turkiy-o‘zbekcha so‘zlarining radif bo‘lib kelishi ham Siddiqiy-Ajziyning o‘zbek she‘riyati taraqqiyotida alohida o‘rin tutganidan dalolat beradi.

III bob bo‘yicha xulosa:

1. Siddiqiy-Ajziy lirikasi mavzu ko‘laminini uchga bo‘lib tasnif qilish mumkin: ijtimoiy lirika, ilmiy-ma‘rifiy mavzudagi she‘rlar, ishqiy she‘rlar. Shoir she‘rlarining asosiy mavzusini ijtimoiy lirika tashkil etadi. Shoir ijtimoiy hayotdagi voqelikni, yurakdagi armonlarini, qalbini iztirobga solgan mushohadalarini she‘r orqali ifodaladi. “Dog‘”, “Bois”, “Bu”, “Sadaf” radifli g‘azallari va “Boshimdan o‘tganlar”, “Keldik”, “Chin va yolg‘on ziyolilar” kabi she‘rlar buning dalilidir.

2. Shoir mumtoz adabiy an‘analarni munosib davom ettirdi. Ahmad Yassaviy, Navoiy, Bedil, Fuzuliy singari mumtoz shoirlar ijodidan oziqlandi. Jumladan, Muhammad Fuzuliy ijodidan ta‘sirlanib, buyuk salafi g‘azallarida qo‘llangan “Dog‘”, “Bu”, “Bango” “Tama”, “Iloj” singari radiflarda g‘azallar bitgani misollar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, shoir she‘rlarida tazod, talmeh, tashbeh, tashxis, takrir, mukarrar, ta‘rix, iqtibos, qaytarish, alliteratsiya va ishtiyoq

²³⁵Юсупова Д. Аруз ва мумтоз поэтикага кириш. – Т.: Akademnashr, 2020. – Б.294.

kabi badiiy san'atlardan mohirona foydalanilgani matn va badiiyat mutanosibligi kesimida tadqiq qilindi.

3. She'r badiiyatini, ijodkor poetik mahoratini belgilovchi asosiy omillardan sanalgan qofiyani san'atkorona qo'llagani shoirning yuksak salohiyatidan dalolat beradi. Shoir mumtoz qofiyaning tuzilishiga ko'ra muqayyad va mutlaq kabi turlaridan mahorat bilan foydalangan.

XULOSA

Siddiqiy-Ajziy asarlarining qiyosiy-matniy tadqiqiga bag'ishlangan ushbu tadqiqot natijalaridan quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Ijodkor biografiyasiga oid ilk ma'lumotlar shoir zamondoshlari tomonidan yaratilgan asarlarda uchraydi. Jumladan, Vadud Mahmudning "Turk shoiri Ajziy", Rahim Hoshim (Tursunqul)ning "Siddiqiy to'g'risida mulohazalar" maqolalarida hamda Sadridin Ayniyning "Namunayi adabiyoti tojik" kitobida keltirilgan aniq dalillar va O'zbekiston Milliy arxividan aniqlangan hujjatlar shoirning biografiyasini qayta tiklashda eng ishonchli manba sifatida qimmatlidir.

2. Shoir biografiyasini tiklashda fanga ma'lum bo'lmagan avlodlari shajarasi, oilaviy muhiti, taxallusi (Muqallid), o'sha davr ijodkorlari bilan adabiy aloqalari (Mahmudxo'ja Behbudiy, Sadridin Ayniy, Abduqodir Shakuriy, Toshxo'ja Asiriy) ishda ilk marta dalillar asosida yoritildi. Shuningdek, Siddiqiy-Ajziyning pedagogik faoliyati bilan bog'liq masalalarga O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan manbalar asosida aniqlik kiritildi. Jumladan, ishda uning 1911-yil 15-iyuldagi o'qituvchilik lavozimidan ozod etish to'g'risidagi arizasi tahlil etildi.

3. Shoir ijodiy merosi manbalari quyidagi tasnif asosida o'rganildi: 1) Siddiqiy-Ajziyning zamondoshlari tomonidan tuzilgan tazkiralar; 2) shoirning o'zi nashr ettirgan toshbosma kitoblar; 3) XX asr boshlaridagi darslik va majmualar; 4) XX asr boshlaridagi matbuot nashrlari; 5) XX asrning ikkinchi yarmidan keyingi vaqtli matbuot nashrlari. Mazkur manbalar tadqiqi natijasida joriy nashrlardan tushirib qoldirilgan 26 misra, shuningdek, yangi aniqlangan 500 misraga yaqin she'rlari, 5 ta publitsistik maqolasi va Gogolning "Shinel" qissasi tarjimai ilk manbalar asosida tiklangan.

4. Siddiqiy-Ajziy mumtoz she'riyatning g'azal, fard, ruboiy, ta'rix, marsiya, madhiya, murabba', muxammas, musaddas, musamman, tarje'band, tarkibband, chiston, masnaviy va boshqa janrlarida ijod qilgan. Shoir nazmiy ijodining umumiy hajmi janrlar kesimida 73 g'azal, 3 muxammas, 1 tarje'band, 1 tarkibband, 1 marsiya, 3 madhiya, 1 fard, 20 ruboiy, 1 ta'rix, 2 murabba', 3

muxammas, 2 musaddas, 1 munojot, 2 masnaviydan iborat bo‘lib, jami 3890 misrani tashkil etadi. Shundan 1550 misrasi fors-tojik tilidadir. Lekin bu ma’lumotlar shartli bo‘lib, ijodkor asarlarining qo‘lyozma manbalari haligacha topilgan emas. Shuningdek, XX asr boshlaridagi matbuot nashrlarini to‘liq topish imkoni bo‘lmadi.

5. Toshbosma manbalar hamda joriy nashrlar qiyosiy tahlili natijasida shoir she’rlarining muallif variantiga yaqin matnlari tiklangani ularning ishonchlilik darajasini oshiradi. “Oyna” va “Mashrab” jurnallarida chop etilgan hamda “Aynul-adab” va “Ganjinayi hikmat” kitoblariga kirgan she’rlarining shoir **“Tanlangan asarlar”**i matnlari bilan o‘zaro qiyosi natijasida ilm ahliga ma’lum bo‘lmagan 15 ta g‘azal, 1 ta muxammas va 1 ta fard aniqlanib, ilmiy istifodaga olib kirilgan. Ular Siddiqiy-Ajziy adabiy merosi tasavvur etilganidan ko‘ra boyroq ekanini ko‘rsatishi jihatidan ahamiyatlidir.

6. “Oyna” jurnalida shoirning “Ismoilbek hazratlari yodig‘a” sarlavhali she’ri 8 misra tarzida berilgani, “Aynul-adab” she’riy to‘plamida esa mazkur she’r 13 bandedan iborat bo‘lib, jami 104 misrani tashkil etishi aniqlanib, to‘liq matni tiklangani shoir dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi haqidagi qarashlarni boyitadi.

7. “Mir’oti ibrat” dostonidagi matniy tafovutlar: *toshbosmani nashrga tayyorlash jarayonidagi kotib xatolari; nashr nusxalaridan tushib qolgan baytlar; xato o‘qilgan so‘zlar va texnik nuqsonlar* kabi tasnif asosida o‘rganilgan. Bu tasniflarning har biriga misollar asosida batafsil to‘xtalangan. Jumladan, kotiblar bilan bog‘liq harflardagi nuqtalar, so‘zlardagi harflarning tushirib qoldirilishi, joriy nashrlardagi matnda so‘zlarning tushib qolishi, misralar o‘rnining almashishi, forscha, arabcha izofalarning xato o‘qilishi holatlari aniqlanib, ular tuzatildi. Natijada shoir asarlarining nuqsondan xoli ishonchli matnlari tiklandi.

8. “Mir’oti ibrat” dostonining 1993-yilda Jo‘ra Xudoyberdiyev tomonidan amalga oshirilgan nashri 808 misra, Siddiqiy-Ajziy “Tanlangan asarlar”ining 1999-yil nashrida “Mir’oti ibrat” dostoni 820 misra holda berilgani aniqlanib, aslyat manba asosida asarning 824 misradan iborat to‘liq matni tiklangani, joriy nashrlardagi xato o‘qilgan 100 dan ortiq so‘zlar manbaga mos ravishda tuzatilgani

shoir adabiy merosi matni ustida davomli izlanishlar olib borish zarurligini ko'rsatadi.

9. Siddiqiy-Ajziy lirikasini mavzu jihatdan uchga bo'lib tasnif qilish mumkin: ijtimoiy lirika, ilmiy-ma'rifiy mavzudagi va ishqiy she'rlar. Shoir nazmiy asarlari ichida hajm nuqtai nazaridan ijtimoiy lirika yetakchilik qiladi. Ijodkor ijtimoiy hayotdagi voqelikni, yurakdagi armonlarini, qalbini iztirobga solgan mushohadalarini she'r orqali ifodaladi. "Dog", "Bois", "Bu", "Sadaf" radifli g'azallari, shuningdek, "Boshimdan o'tganlar", "Keldik", "Chin va yolg'on ziyolilar" kabi she'rlar buning dalilidir.

10. Shoir mumtoz adabiy an'analarni munosib davom ettirdi. Ahmad Yassaviy, Navoiy, Bedil, Fuzuliy singari mumtoz shoirlar ijodiy an'alarini o'rgandi va davom ettirdi. Jumladan, Muhammad Fuzuliy ijodidan ta'sirlanib, buyuk salafi g'azallarida qo'llangan "Dog", "Bu", "Bango" "Tama", "Iloj" singari radiflarda g'azallar bitgani ushbu fikrni tasdiqlaydi. Shuningdek, shoir she'rlarida tashbeh, tashxis, tazod, mubolag'a, iqtibos, husni ta'lil kabi badiiy san'atlardan mohirona foydalanilgani matn va badiiyat mutanosibliigi kesimida ochib berildi.

11. She'r badiiyatini, ijodkor poetik mahoratini belgilovchi asosiy omillardan sanalgan qofiyani san'atkorona qo'llagani shoirning ijodiy salohiyati yuqori ekanidan dalolat beradi. Shoir mumtoz qofiyaning tuzilishiga ko'ra muqayyad va mutlaq kabi turlaridan samarali foydalangan. Bu esa uning she'rlarida ohang va mazmun uyg'unlashuvini ta'minlagan.

Фойдаланилган адабиётлар

I. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва методологик аҳамиятга молик нашрлар:

1. Мирзиёев Ш.М. “Фанлар академияси фаолияти, илмий–тадқиқот ишларини ташкил этиш, бошқариш ва молиялаштиришни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2789-сонли қарори, 2017 йил 17 февраль. <https://lex.uz/docs/3117025>
2. Мирзиёев Ш.М. “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги” ПФ-5850-сонли фармони, 2019 йил 21 октябрь. <https://lex.uz/docs/4561730>
3. Мирзиёев Ш.М. “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш ва тадқиқ этиш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-126-сонли қарори, 2022 йил 10 февраль. <https://uza.uz/uz/posts/345758>.
4. Мирзиёев Ш.М. “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқи ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–2995-сонли қарори, 2017 йил 24 май. <https://lex.uz/docs/3211987>
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ–5847–сон “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони. – 2019 йил 8 октябрь // <https://www.lex.uz/docs/4545884>.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ–2909–сон “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. – 2017 йил 20 апрель // <https://www.lex.uz/docs/3171590>.

II. Илмий-назарий адабиётлар

1) Миллий нашрлар

7. Abdulxayrov M. Asliyat va tabdil muammolari. Navoiy asliyati tabdillari / O‘quv qo‘llanma. – T.: Adast Poligraf, 2023. – 132 b
8. Афоқова Н. Жадид шеърини поэтикаси. – Т.: Фан, 2000. – 140 б.
9. Афоқова Н. Жадид ғазалиёти. – Т.: Фан, 2005. – 34 б.

10. Афоқова Н. XX аср ўзбек адабиётида рубоий ва қитъа. – Т.: Фан, 2005. – 28 б.
11. Афоқова Н., Ражабзода М. Шеърят ва сабабият. – Т.: Akademnashr, 2012. – 52 б.
12. Аҳмад С. Миллий ҳуррият адабиёти. – Т.: Info Capital Group, 2018.– 268 б.
13. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – 560 б.
14. Деҳқонов А. Муҳаййир ва унинг мероси. – Т.: Ziyo nashr, 2021. – 160 б.
15. Долимов У. Миллий уйғониш педагогикаси. – Т.: Ношир, 2012. – 174 б.
16. Жабборов Н. Замон, мезон, шеърят. – Т.: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015. – 136.
17. Жалолов А. XX аср охири – XX аср бошларидаги ўзбек адабиёти. Монография. – Т.: Фан, 1991. – 156 б.
18. Жўрабоев О. Матнинг матности сирлари.–Т.: Tammadun, 2017. – 200 б.
19. Жўрабоев О. Ўзбек классик адабиётида фалсафий-дидактик дostonчилик. – Т.: Фан, 1985. – 80 б
20. Исмоилбек Гаспринский ва Туркистон / Масъул муҳаррир: Каримов Н. – Т.: Шарқ, 2005. – 288 б.
21. Исмоилбек Гаспринскийни эслаганда... / Нашрга тайёрловчилар: Каримов Б., Абдирашидов З., Эгамқулова Н.– Т.: Turon zamin ziyo, 2014. – 72 б.
22. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан, 1983. –167 б.
23. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – 320 б.
24. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Т.: Муҳаррир, 2011. – 88 б.
25. Каримов Б. Жадид мунаққиди Вадуд Маҳмуд. – Т.: Университет, 2000. – 104 б.
26. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. Биринчи китоб. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – 536 б.
27. Мухтарам Н. Тазкирату-ш-шуара. Поэтическая антология / Критический текст и введение: Джанфида А. – Душанбе: Дониш, 1976. – 252 с.

28. Назарова Ш. XX аср бошлари ўзбек шеърятининг янгиланиш тамойиллари. – Т.: Akademnashr, 2022. – 256 б.
29. Олтинбек О. Каримбек Камий – миллий уйғониш шоири. – Т.: Muharrir, 2018. – 124 б.
30. Орзобеков Р. Ўзбек классик шеърятда мураббаъ. – Т.: Ўзбекистон, 1981. – 22 б.
31. Орзобеков Р. Ўзбек поэзиясида мураккаб структурали жанрлар. – Самарқанд: СамДУ, 1984. – 52 б.
32. Сариев Ш. Адабиёт. Методик қўлланма. – Тошкент: HEAD BOOK, 2018. – 413 б.
33. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Т.: Bookmany print, 2022. – 252 б.
34. Сиддиқий А. Танланган асарлар / Сўзбоши ва нашрга тайёрловчи: Қосимов Б. – Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. – 77 б.
35. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Т.: Akademnashr, 2011. – 326 б.
36. Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Т.: Navoiy universiteti, 2019. – 128 б.
37. Сирожиддинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги қирралари. – Т.: Akademnashr, 2015. – 128 б.
38. Содиков Қ. Матншунослик ва манбашунослик асослари. – Т.: ТДШИ, 2017. – 220 б.
39. Сулаймон Ҳ. “Хазойин ул-маоний” текстларини ўрганиш ва нашрга тайёрлашнинг асосий масалалари / Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. – Т.: ЎзФА, 1959. – 98 б.
40. Тарозий А. Фунун ул-балоға. – Т.: Хазиана, 1996. – 212 б.
41. Турсунов Ю. Муҳокамату-л-луғатайн / Илмий-танқидий матн. – Т.: Фан, 2021. – 160 б.
42. Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. – Т.: Шарқ, 2002. – 256 б.

43. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 112 б.
44. Хасанов Н. Ясавийликка доир манбалар ва “Девони ҳикмат”. – Т.: Akademnashr, 2012. – 271 б.
45. Шамсиев П. Ўзбек матншунослигига оид тадқиқотлар. – Т.: Фан, 1986. – 164 б.
46. Шодмонов Н. Муаммо ва уни ечиш амаллари. – Қарши: Насаф, 2013. – 48 б.
47. Шодмонов Н. Шоҳиду-л-иқбол / адабий манба. – Т.: Фан, 2009. – 283 б.
48. Эркинов А. Алишер Навоий “Хамса”си талқини (XV – XX аср боши). – Т.: Tamaddun, 1998. – 296 б.
49. Эркинов А.С. Матншуносликка кириш. – Т.: Республика таълим маркази, 1997. – 50 б.
50. Юсупова Д. Аруз ва мумтоз поэтикага кириш. – Т.: Akademnashr, 2020. – Б.289.
51. Қосимов Б. Излай-излай топганим. – Т.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 269 б.
52. Қосимов Б. Инқилобий шеърят саҳифалари. – Т.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 126 б.
53. Қосимов Б. Маслакдошлар: Беҳбудий, Ажзий, Фитрат. – Т.: Шарқ, 1994. – 160 б.
54. Қосимов Б. Миллий Уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – 400 б.
55. Ҳайитметов А., Ғаниева С. Алишер Навоийнинг прозаик асарлари.–Т.: Ўзбекистон, 1981.–237 б.
56. Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т.: 1991. – 52 б.
57. Ҳамидова М. Манбашуносликнинг баъзи масалалари. – Т.: Шарқ машъали туркуми, 1999. – 220 б.
58. Ҳамидова М. Қўлёзма баёзлар – адабий манба. – Т.: Фан, 1981. – 124 б.

59. Ҳамроева О. XX аср бошлари ўзбек матншунослиги тараққиётида Фитрат мажмуаларининг ўрни. – Т.: Akademnashr, 2019. – 208 б.
60. Ҳасаний М., Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншуносликнинг назарий масалалари. – Т.: ТДШИ, 2012. – 136 б.
61. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ, 1999. – 162 б.
62. Ҳожиаҳмедов А. Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия. – Т.: Шарқ, 1998. – 158 б.

2) Хорижий нашрлар

63. Айний С. Намунаи адабиёти тожик. – Москва: Чопхонаи нашриёти марказии халқи Иттиҳоди жамоҳири шӯравии сўсиёлисти, 1926. – 545 с.
64. Бағоутдинов А. Из истории общественной и философской мысли Таджикского народа второй половины XIX и начало XX вв. – Москва, 1951. – 324 с.
65. Брагинский И. Очерки из истории таджикской литературы. – Душанбе, 1959. – 476 с.
66. Муминов И. Из истории общественной и политической мысли Узбекистана конца XIX и начало XX века. – Самарканд: УзГУ, 1949. – 347 с.
67. Ражабов З. Ажзий ва Асирий. – Душанбе, 1951. – 93 с.
68. Шакурии М. Нигоҳе ба адабиётии тоҷикии. – Душанбе, 2006. – 562 с.

III. Диний манбалар, адабиётлар

69. Абу Ҳомид Ғаззолий. Ихёу улумид дин. – Т.: Ўзбекистон, 2019. – 359 б.
70. Имом Бухорий. Ал-жомеъ ас-Саҳиҳ. 8 жилдлик. 7-жилд. – Ар-Риёз: Абдулқодир Шайбатул Ҳамд, 2008. – 431 б.
71. Имом Ибн Жарир ат-Табароний. Мўъжамул Авсот. – БАА: Дорул ҳарамайни, 1995. – 495 б.
72. Куръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима / Алоуддин Мансур таржимаси. – Бишкек, 2001. – 768 б.

IV. Қўлёзма ва тошбосма манбалар

73. “Маориф ва ўқитғувчи” журнали 1926 йил 1 – 3-сонлар; 1928 йил 3-сон.
74. “Машраб” журнали 1924 йил 12-сон; 1925 йил 18-,19-, 21-, 22-,24-. 25-, 26-, 27-, 28-, 30-, 32-сонлар; 1926 йил 24-25-, 35-, 36-, 37-, 38-сонлар
75. “Мулла Мушфиқий” журнали 1927 йил 6-, 9-, 16-,17-сонлар.
76. “Ойна” журнали 1914 йил 16-, 33-, 34-, 37-, 38-, 39-, 40-, 41-, 44-, 51-сонлар.
77. “Садойи Туркистон” газетаси 1914 йил апрель – декабрь ойлари
78. “Хуррият” газетаси 1917 йилги 27-, 28-, 30-, 32-сонлар; 1926 йилги 17-, 35-, 36-, 37-, 38-сонлар.
79. Сиддиқий. Айну-л-адаб. Тошбосма. ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи фонди. Инв. № 254.
80. Сиддиқий. Айну-л-адаб. Тошбосма. ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Асосий фонди. Инв. №609, 9436, 9574
81. Сиддиқий. Анжумани арвоҳ ёхуд илҳоми ар-руҳ. Тошбосма. ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Асосий фонди. Инв. №3019, 3167.
82. Сиддиқий. Ганжинайи ҳикмат ёхуд адабиёти жадида. Тошбосма. ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Асосий фонди. Инв. №3215, 9414.
83. Сиддиқий. Миръоти ибрат.Тошбосма. ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Асосий фонди. Инв. №3166, 699, 1553.
84. Сиддиқий. Тажвид ал-Қуръону-л-Мажид. Тошбосма. ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Асосий фонди. Инв. №3161.
85. Қайюмов П. Тазкираи Қайюмий. Қўлёзма. ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи фонди. №734.

V. Луғатлар

86. Абулхайров М. Навоий асарларининг изоҳли луғати. – Т.: “ЎзМЭ” Давлат илмий нашриёти, 2018. – 560 б.
87. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. I-IV томлар. Т.: Фан, 1983, 1984, 1985. – 1235 б.
88. Баранов Х. Арабско-русский словарь. – М.: Русский язык, 1985. – 926 с.
89. Навоий асарлари луғати / Тузувчилар: Шамсиев П., Иброҳимов С. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1972. – 426 б.
90. Навоий асарлари учун қисқача луғат / Тузувчи: Ҳасанов Б. – Т.: Фан, 1993. – 324 б.
91. Персидско-русский словарь. Под редакцией Ю.А.Рубинчика. В 2-х томах, Том I. – М.: Русский язык, 1985. – 800 с.
92. Персидско-русский словарь. Под редакцией Ю.А.Рубинчика. В 2-х томах, Том II. – М.: Русский язык, 1985. – 864 с.
93. Раҳмонов В. Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат. –Т.: Ўқитувчи, 1983. – 200 б.
94. Русско-узбекский словарь. В 2-х томах, Том I, II. – Т.: Энциклопедия, 1983. – 1468 с.
95. Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ. Иборат аз 2 ҷилд. Ҷилди 1. Душанбе: Пажӯҳишгоҳи забон ва адабиёти Рӯдакӣ, 2008. – 950 с.
96. Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ. Иборат аз 2 ҷилд. Ҷилди 2. – Душанбе: Пажӯҳишгоҳи забон ва адабиёти Рӯдакӣ, 2008. – 946 с.
97. Хоксор, Муҳаммад Ризобек. Алишер Навоий асарлари луғати. – Т.: Akademnashr, 2017. – 416 б.
98. Ўзбек тилидаги арабча ва форсча сўзлар луғати. Тузувчилар: Сапоев Р., Аvezметов Ш. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 192 б.
99. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2010. – 392 б.
100. Ҳақимов М. Шарқ манбашунослиги луғати. – Т.: “Davr press”, 2013. – 496 б.

101. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. – Т.: Янги аср авлоди, 2008. – 194 б.
102. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998. – 222 б.
103. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1979. – 382 б.

VI. Архив материаллари

104. Ўзбекистон Миллий архиви. 181-фонд, 134-ҳужжатлар. – Б.1,39,63,77.

VII. Бадиий адабиётлар

105. Авлоний А. Танланган асарлар / II жилдлик. II жилд. – Т.: Маънавият, 1998. – 304 б.
106. Авлоний А. Танланган асарлар / II жилдлик. I жилд. – Т.: Маънавият, 1998. – 272 б.
107. Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Илмий-танқидий матн / Нашрга тайёрловчи: Шамсиев П. – Т.: ЎзФА нашриёти, 1956. – 764 б.
108. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. Илмий-танқидий текст / Нашрга тайёрловчи: Эшонхўжаев Ш. – Т.: Фан, 1965. – 284 б.
109. Алишер Навоий. Мажолису-н-нафоис. Илмий-танқидий текст / Нашрга тайёрловчи: Ганиева С. – Т.: Фан, 1961. – 764 б.
110. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб / ТАТ. Ўн жилдлик. IX жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – 768 б.
111. Алишер Навоий. Мезон ул-авзон / Нашрга тайёрловчи: Султонов И. – Т.: Фан, 1949. – 96 б.
112. Алишер Навоий. Наводируш-шабоб / IV жилдлик. II жилд. – Т.: Фан, 1959. – 784 б.
113. Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. Илмий-критик текст / Нашрга тайёрловчи: Шамсиев П. – Т.: Фан, 1956. – 764 б.
114. Беҳбудий М. Танланган асарлар / Тузатилган ва тўлдирилган 3-нашри. – Т.: Маънавият, 2006. – 280 б.

115. Гаспринский И. Фароғат ўлкаси / Масъул муҳаррир, нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи: Абдирашидов З. – Т.: Muharrir, 2013. – 96 б.
116. Гаспринский И. Ҳаёт ва мамот масаласи. Танланган асарлар / Таржимон, тўпловчи, нашрга тайёрловчилар: Қосимов Б., Каримов Б. – Т.: Маънавият, 2006. – 320 б.
117. Зоҳидов Р. “Саботул ожизин” асари матни, шарҳлари ва илмий-танқидий матнини комплекс ўрганиш муаммолари. – Т.: Turon zamin ziyo, 2015.– 256 б.
118. Ибрат, Сиддиқий-Ажзий, Сўфизода. Танланган асарлар / Тўпловчи, нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифлари: Қосимов Б., Ахмедов С., Долимов У. – Т.: Маънавият, 1999. – 232 б.
119. Камий К. Дилни обод айлангиз / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи: Олтинбек О. – Т.: Маънавият, 1998. – 160 б.
120. Маҳмуд В. Танланган асарлар / Нашрга тайёрловчи: Каримов Б. – Т.: Маънавият, 2007. – 160 б.
121. Олимжон Ҳ. Танланган асарлар. 3 томлик, 3-том. Ҳикоя, очерк, танқид, публицистика / Текстни нашрга тайёрловчи: Сулаймонова Х. – Т.: ЎзССР давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1960. – 366 б.
122. Фитрат А. Танланган асарлар. IV жилдлик. I жилд. Шеърлар, насрий асарлар, драмалар / Нашрга тайёрловчи: Болтабоев Ҳ. – Т.: Маънавият, 2000. – 257 б.
123. Фитрат А. Танланган асарлар. IV жилдлик. II жилд. Илмий асарлар / Нашрга тайёрловчи: Болтабоев Ҳ. – Т.: Маънавият, 2000. – 208 б.
124. Фитрат А. Танланган асарлар. IV жилдлик. III жилд. Драмалар, публицистик мақолалар / Нашрга тайёрловчи: Болтабоев Ҳ. – Т.: Маънавият, 2000. – 256 б.
125. Фитрат А. Танланган асарлар. IV жилдлик. IV жилд. Адабиёт қоидалари / Нашрга тайёрловчи: Болтабоев Ҳ. – Тошкент: Маънавият, 2006. – 256 б.
126. Шодмонов Н. “Шоҳиду-л-икбол” – адабий манба. – Т.: Muharrir, 2009. – 182 б.

VIII. Диссертация ва авторефератлар

127. Абдуллаева Д. Усмонхўжа Зорий ҳаёти ва ижоди. Фил. фан. номз... дисс. – Т., 2003. – 163 б.
128. Абдулхайров М. Навоий асарлари матни табилини ўрганиш усуллари, тамойиллари ва амалий масалалари. Фил. фан. докт... дисс. – Т., 2020. – 309 б.
129. Амонов Ш. Ҳамза шеърятининг манбалари, матний тадқиқи. Фил. фан. номз... дисс. – Т., 2010. – 156 б.
130. Аслонов. Р. Мироззрение Саид Ахмеда Сиддиқи: Дисс... канд. фил. наук. – Душанбе, 1962. – 254 с.
131. Афоқова Н. Ўзбек жадид адабиётида шеърӣ шакллар тараққиёти тамойиллари. Фил. фан. докт... дисс. – Т., 2005. – 281 б.
132. Болтабоев Ҳ. XX аср бошлари ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси. Фил. фан. докт... дисс. – Т., 1996. – 368 б.
133. Дехқонов А. Муҳаййирнинг ҳаёти ва ижоди. Фил. фан. номз... дисс. – Т., 2007. – 154 б.
134. Дехқонов А. Муҳаййирнинг ҳаёти ва ижоди. Фил. фан. номз... дисс. автореф. – Т., 2007. – 25 б.
135. Долимов У. Жадид мактаблари: уларда она тили ва адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий ҳамда амалий асослари. Пед. фан. докт... дисс. автореф. – Т., 2008. – 42 б.
136. Жабборов Н.А. Фурқат асарларининг қўлёзма манбалари: Фил. фан. номз... дисс. – Т., 1994. – 156 б.
137. Жабборов Н.А. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Фил. фан. докт... дисс. – Т., 2004. – 298 б.
138. Жалолов А. Ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг ривожланиш жараёни. Фил. фан. докт... дисс. – Т., 1993. – 285 б.
139. Жўрабоев О.Р. Ҳазиний Хўқандий ҳаёти ва ижодий мероси. Фил. фан. номз... дисс. – Т., 2003. – 163 б.

140. Жўраев Ж. Комёб ҳаёти ва ижодий мероси манбалари тадқиқи. Фил. фан. номз... дисс. – Т., 2010. – 200 б.
141. Зоҳидов Р. “Саботул ожизин” асарининг манбалари, шарҳлари ва илмий-танқидий матнини комплекс ўрганиш муаммолари. Фил. фан. докт... дисс. – Т., 2018. – 240 б.
142. Каримов Б. Вадуд Маҳмуднинг 20-йиллар адабий танқидчилигидаги ўрни. Фил. фан. номз... дисс. – Т., 1995. – 162 б.
143. Мирзараҳимова А.Ш. Ўрта Осиёда тошбосма китоб тарихи. Тарих фан. номз... дисс. автореф. – Т., 2009. – 49 б.
144. Пардаев Қ. Муқимий шеърятининг матн тарихи, таҳрири ва талқини. Фил. фан. докт... дисс. – Т., 2020. – 223 б.
145. Рашидова М. Алишер Навоий “Назм ул жавоҳир” асарининг матний тадқиқоти. Фил. фан. номз... дисс. – Т., 1991. – 222 б.
146. Тожибоева М. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари: Фил. фан. докт... дисс. – Т., 2017. – 283 б.
147. Шамсиев П. Алишер Навоийнинг “Сабъаи сайёр” достони илмий-танқидий матни ва уни тузиш принциплари. Фил. фан. номз... дисс. автореф. – Т., 1952. – 130 б.
148. Шамсиев П. Навоий асарлари матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари. Фил. фан. докт... дисс. – Т., 1969. – 89 б.
149. Шодмонов Н. “Шоҳиду-л-иқбол”нинг ўзбек бадиий-тарихий насри таракқиётидаги ўрни, манбалари ва матний тадқиқи. Фил. фан. докт... дисс. – Т., 2009. – 232 б.
150. Юсупов Ш. Фурқат ва ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг янги босқичи. Фил. фан. докт... дисс. – Т., 1990. – 234 б.
151. Қурбон Т. Залилий ҳаёти ва ижодий мероси. Фил. фан. номз... дисс. – Т., 2008. – 133 б.
152. Қурбонов С. Носир Бухорий форсий девонининг илмий-танқидий матни ва тадқиқи. Фил. фан. докт... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 52 б.

IX. Илмий тўплам, журнал ва газеталардаги мақолалар

153. Жабборов Н. Матншуносликнинг айрим назарий масалалари // Ўзбек матншунослигининг назарий ва амалий муаммолари (Республика илмий анжумани материаллари). – Қарши: Насаф, 2019. – Б.3-8.
154. Жабборов Н. Адабий манбаларда матн таҳрири масаласи // Адабий манба: ўрганишнинг замонавий тамойиллари ва нашр муаммолари (Илмий мақолалар тўплами). – Қарши: Насаф, 2013. – Б.6-13.
155. Жабборов Н. Бадиий матн таҳрирининг хос хусусиятлари // Ўзбек адабиётшунослигида талқин ва таҳлил муаммолари (Илмий-назарий анжуман материаллари). – Т.: Мумтоз сўз, 2014. – Б.28-32.
156. Жабборов Н. Матн тарихи ва унинг генезисига доир айрим мулоҳазалар // Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари (Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари). 1-китоб. – Наманган, 2021. – Б.5-12.
157. Жабборов Н. Матн тарихини ўрганиш – илмий ҳақиқат мезони // Илмий мақолалар тўплами: Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари. – Наманган, 2020. – Б.50-57.
158. Жабборов Н. Матн тарихини ўрганишнинг муқобала услуби // Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари (Республика илмий-амалий конференцияси материаллари). – Т.: Mumtoz so‘z, 2020. – Б.20-25.
159. Жабборов Н. Ўзбек матншунослиги ва унда матн танқиди, илмий-танқидий матн истилоҳларининг ўрни // Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари (Республика илмий-амалий конференцияси материаллари). – Т.: Mumtoz so‘z, 2019. – Б.9-16.
160. Жабборов Н. Ўзбек матншунослиги: муаммолар, истиқболдаги вазифалар. // Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари (Республика илмий-амалий анжуман материаллари). – Наманган, 2018. – Б.34-40.

161. Жабборов Н. Ўзбек матншунослигининг долзарб муаммолари // Замонавий ўзбек адабиётшунослигининг янгиланиш тамойиллари (Республика илмий-назарий анжумани материаллари). – Т.: Adabiyot uchqunlari, 2016. – Б.99-105.
162. Жумахўжаев Н. Дебоча матни мукамалми? // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2011 йил 18 март.
163. Жумахўжаев Н. То тузди Навойи ояти ишқ // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1990 йил 9 ноябрь.
164. Жумахўжаев Н. Янги илмий-танқидий матн // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2011 йил 28 октябрь.
165. Жумахўжаев Н. Матншунослик давр талаблари даражасидами? // Ўзбек адабиёти. 2010 йил 2 июль.
166. Исҳоқов Ё. Алишер Навоий ва Соқийнома жанри // Ўзбек тили ва адабиёти. 1975. №1. – Б.16-23.
167. Исҳоқов Ё. Навоийнинг илк девонини текстологик текшириш принциплари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1962. № 4. – Б.65-67.
168. Миллий уйғониш ва Ўзбек филологияси масалалари. (Тўпловчи. Ш. Ризаев) – Т.: Университет, 1993. – 128 б.
169. Мирзозода Х. “Миръоти ибрат” ва эжодиёти Ажзий” // Барон адабиёти социалистик. 1936. №2,3.
170. Ражабов З. Шоир Ачзй дар бораи маданияти рус // Шарқи сурх. 1950. №9.
171. Раҳмонов В. Матн ва матншунослик // Ўзбек адабиёти санъати. 1987 йил 10 декабрь.
172. Раҳмонов В. Мумтоз сўз сеҳри. // Мақолалар тўплами. – Т.: Ўзбекистон, НМИУ, 2015. – 440 б.
173. Раҳмонов В. Эмас осондур бу майдон ичра турмоқ... // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2011 йил 4 феврал.
174. Раҳмонов Н. Тўғри матн яратиш масъулияти // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2011 йил 29 апрель.

175. Ризаев Ш. Халқдин ёрлик истармен... // Гулистон. 1990. №8.
176. Рустамов А. Матнчилигимиздаги нуқсонлар // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1982 йил 3 сентябрь.
177. Содиқов Қ., Омонов Қ. Илмий танқидий матн яратиш замон талаби // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2010 йил 20 август.
178. Турсунзода М. Адабиёти советии ва вазифаҳои он. // Шарқи сурх. 1947. №12.
179. Фозилов Э. Матнчи масъулияти. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2011 йил 17 июнь.
180. Шарқ қўлёзмаларига доир терминларнинг қисқа изоҳли луғати // Адабий мерос. 1982. № 3.
181. Шодмонов Н., Имомова Г. Адабий манба ва матн тасарруфи // Адабий манба: ўрганишнинг замонавий тамойиллари ва нашр муаммолари (Мақолалар тўплами). Қарши: Насаф, 2013. – Б.13-21.
182. Шодмонов Н., Нуриддинов Ш. “Фарҳод ва Ширин” достонининг матний тадқиқи тўғрисида // Алишер Навоий “Хамса”си ва унинг шарқ адабиёти тараққиётидаги улкан мавқеи (Илмий-амалий конференция материаллари). – Самарқанд. 2015. – Б.79-82.
183. Шодмонов Н., Қаххорова Ш. Кучирма матнлар, хатолар ва уларни бартараф этиш йўллари // Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари. Мақолалар тўплами. – Наманган. 2018.– Б.40-46.
184. Ҳайитметов А. Навоийнинг текстологик тадқиқотлари ва уларнинг тақдири ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1965. №1.–Б.23–30.
185. Ҳайитметов А. Алишер Навоий асарларининг академик нашрини тайёрлаш ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1976. №1.– Б.31–34.
186. Ҳайитметов А. Матншунослик муаммолари. // Шарқ юлдузи, 1982. №3. – Б.167-171.
187. Ҳайитметов А. Навоийнинг текстологик тадқиқотлари ва уларнинг тақдири ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1965. №1. – Б.23-31.

188. Ҳамидова М. Алишер Навоий “Садди Искандарий” достонининг илмий-танқидий матни тузиш принциплари // Адабий мерос. 1988. № 4. – Б.13-18.

189. Ҳамидова М. Алишер Навоий ғазалларига ёзилган мухаммаслар мажмуаси // Адабий мерос. 1981. №3.– Б.19.

Х. Интернет сайтлари

190. <https://myfilology.ru/163/sistema-osnovnyx-terminov-i-ponyatij-teorii-i-praktiki-tekstologii/>.

191. <https://bigenc.ru/music/text/4181559>

192. Текстология. Монографии. Научные статьи... www.teneta.ru/rus/textology/textology.htm - 5 к.

193. Текстология. www.cultinfo.ru/fulltext/1/001/008/109/489.htm - 11 к.

194. <https://bigenc.ru/music/text/4181559>

195. <https://jarida.uz/maqola/647>.

196. <https://myfilology.ru/163/sistema-osnovnyx-terminov-i-ponyatij-teorii-i-praktiki-tekstologii>

197. <https://silo.tips/download/hive-hive>